


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

Umarov A.R.

**MASHINASOZLIK CHIZMACHILIGI  
KURSI**

**Eqism**



Toshkent 2008

“Mashinasozlik chizmachiligi kursi”. I qism. O’quv qo’llanma. Umarov A.R. -Toshkent, ToshDTU, 2008.

“Mashinasozlik chizmachiligi kursi” fanidan yozilgan o’quv qo’llanma hozir amal qilinayotgan namunaviy dastur asosida yozilgan. Qo’llanmaga muallifning ToshDTU da “Mashinasozlik chizmachiligi kursi” fanidan ko’p yillik ma’ruza o’qish tajribalari asos qilib olingan.

Qo’llanmada chizmalarda tasvirlash, yaqqol tasvirlar, buyumning chizmasi va eskizi, buyumlami biriktirish, yig’ma birkimaning chizmasi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Usibu qo’llanmadan Oliy muhandislik pedagogika instituti “Chizma geometriya va chizmachilik” fanidan kasbiy qayta tayyorlanuvchi tinglovchilar, malaka oshinuvechilar, oliy texnika o’quv yurtlarining magistr va bakalavr talabalari, muhandis, texnik xodimlar foydalanishi mumkun.

Chizma 184 ta

Adabiyot 20 ta

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan chop etildi.

Taqrizchilar TAQI “Informatika va kompyuter grafikasi” kafedrasи,  
“Chizma geometriya va qurilish chizmachiligi” bo’limi  
mudiri, t.f.n., dots. J.X.Mirhamidov

ToshDTU “Chizma giyometriya va muhandislik  
grafikasi” kafedrasи dotsenti, t.f.n. Rixsiboyev.U.T.

-

## **Kirish**

Mashina va mexanizmlar detallarini ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlash va ulami yig'ish, bino hamda inshootlar qurish uchun ulaming chizmalarini bo'lishi kerak. Chizmasiz buyumlami aniq tayyorlab bo'lmaydi.

Buyumning shakli va o'lcamlarini tekislikda aniq ko'satadigan tasvir kompleks chizma, qisqacha chizma deb ataladi. Buyumning chizmasini tuzish to'g'ri buchakli parallel tasvirlasb usuliga asoslangan.

Chizmalami to'g'ri tuzish usullari, chizma xo'jaligini bareha sohalarini to'g'ri tashkil qilish haqidagi fan chizmachilik deyiladi. Xalq xo'jaligining tarmog'iga qarab, undan foydalilanigan chizmalar har xil nom bilan ataladi. Masalan: turli mashina va mexanizmlarning detallarini tayyorlash uchun tuzilgan chizmalar mashinasozlik chizmachiligi, bino va inshootlami qurishda ishlatalidigan chizmalar qurilish chizmalarini deb ataladi.

Qo'llanmada mashinasozlikda ishlatalidigan chizmalami chizish va taxt qilish to'g'risidagi qonun qoidalar va normallar bayon qilingan. Ya'ni chizmalami davlat standartlarining (DS) talabiga muvofiq bajarish geometrik chizmachilik, tasviriy chizmachilik, mashina detallari yaqqol tasvirini chizish, birikmalar, pnujinalar, mashina buyumlari eskizlarini, ish chizmalarini va yig'ish chizmalarini bajarish haqida ulami o'qish qoidalarini va usullari mukammal bayon qilingan. Bundan tashqari chizmalami chizishda davlat standartlarida (DS) keltirilgan qoida va normalarga rioya qilish zarur. Ishlab chiqarish korxonalariga KXYaT talablarini to'la bajargan chizmalar qabul qilinadi.

"KXYaT tasvirlash, ko'rinish, qirqim, kesimlardagi standart belgi" da DS 2.3.05-68 quyidagilami bildiradi".

DS - davlat standartlari

2. - standartlaming sinfi.

3. - standartlaming klassifikatsiya lashgan guruhi.

05. - standartlaming guruhdagi tartib nomerlari.

68. - standartlaming ro'yxatga olingan yili.

## **I bob. Chizmalarni chizish haqidagi umumiy qoidalar.**

### **1.1. Chizmalarni taxt qilish standartlari.**

Korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash va ulaming ma'lum o'lchamga va sifatga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan standartlar belgilangan. (DS)

Chizmalarga oid standartlar tuzish bo'yicha ishlami tashkil qilish uchun 1925 yilda standartlashtirish komissiyasi tuzilgan. Bu komissiya chizmalami chizish bo'yicha standartlarni yaratadi va bu standartlar 1928 yilda nashr etildi.

Bu to'plamda 14 ta standart bo'lgan. 1940 yilda nashr etilgan "Mashinasozlik chizmalari" to'plamiga 22 ta standart kiritilgan.

1950 yilda "chizmachilik xo'jaligi tartibi" yig'indisi yaratildi. Bu standartlar qayta ishlandi va bir necha yangi standartlar bilan to'ldirildi.

1965-67 yillarda "Konstruktorlik hujjatlarining yagona tartibi" tuzildi.

1965 yilda nashr qilingan "Konstruktorlik hujjatlarining yagona tartibi" (KXYaT - YeSKD) standarti 1971 yildan amaliy ishlar uchun qo'llanila boshlandi. KXYaT standartlari klassifikatsiyalangan guruhlarga bo'linadi va ulaming har biriga shifr belgilangan. (1:9). KXYaT standartlar yig'indisiga 2 - nomer belgilangan bo'lib, u quyidagi bo'limlardan iborat:

1. DS 2. 00-93 dan va keyingilari - umumiy qoidalar,
2. DS 2. 201-68 dan va keyingilari - asosiy qoidalar,
3. DS 2. 201-80 dan va keyingilari - konstruktorlik hujjatlarida buyumlar klassifikatsiyasi va belgilar,
4. DS 2. 301-68 dan va keyingilari - chizmalami taxt qilish bo'yicha umumiy qoidalar,
5. DS 2. 401-68 dan va keyingilari - mashinasozlik va asbobsozlik chizmalarni bajarish qoidalari,
6. DS 2. 501-68 dan va keyingilari - konstruktorlik hujjatlarini hisobga olish, saqlash, nusxalar olish, o'zgarishlar kiritish qoidalari,
7. DS 2.601-95 dan va keyingilari - ekspluatatsiya va remont hujjatlarini bajarish qoidalarini,

- DS 2. 701-76 dan va keyingilari -- sxemalami bajarish qoidalari va sxemalarda qo'llaniladigan grafik belgilar.
- DS 2. 801 dan 2. 899 gacha -- qurilish va kemasozlik hujjatlarini bajarish qoidalari.
- DS 2. 901 dan 2. 999 gacha -- konstrukturlik hujjatlarini taxt qilish bo'yicha qolgan hamma hujjatlar.

**Standartlarning quyidagi kategoriyalari mavjud:**

Davlat standartlari, xalq xo'jaligi tarmoqlari xo'jaligi TS. (VST) viloyatlar standartlari, korxona standartlari.

Chizmachilikka standartlami tatbiq etish chizmalarga bir xil talab qo'yish imkoniyatini beradi. Har qanday mashinasozlik chizmasi standartga asosan bajarilishi zarur. Davlat standartlarini buzib bo'lmaydi. Ular barcha loyiha tuzish tashkilotlari va o'quv yurtlari uchun majburiy.

### 1.2. O'z DSt 2.301 – 96 Chizma formatlari.

Hamma chizmalar va konstrukturlik hujjatlari aniq formatdagi qog'ozga bajariladi. Bu chizmalami o'qishda, saqlashda, juzband qilishda va ularni butlashda qulaylik tashkil qildi. Format qog'ozlari uzlusiz ingichka chiziq bilan chizilgan tashqi ramka o'lchami bilan aniqlanadi. O'z DSt 2.301 – 96 da quyidagi asosiy formatlami belgilaydi. (1-jadval)

1-jadval

Format belgisi	A4	A3	A2	A1	A0
Format tomonlarining o'lchami, mm	210×297	297×420	420×594	594×841	841×1189


teng 1m<sup>2</sup>. Har bir keyingi kichik format oldingi formatning kichik tomoniga parallel teng ikkiga bo'lish bilan hosil qilinadi. Ayrim hollarda tomonlari 148 x 210 mm bo'lgan  $\wedge$  5 formatdan foydalanishga ruxsat beriladi.

## **Chizmaning asosiy hoshiyasi va asosiy yozushi.**


Chizmaning hoshiyasi formatning 3 tomonidan 5 mm dan to'rtinchi tomonidan 20 mm masofada o'tkazilgan ramka bilan chegaralangan bo'ladi. 20 mm lik hoshiya chizmani tikish uchun qoldiriladi. (1-chizma)

Chizmaning pastki o'ng burchagiga 1-forma bo'yicha O'z DSt 2.104 – 68 bilan belgilangan asosiy yozuv joylashtiriladi. Asosiy yozuv chizma haqida ma'lumot beradi. 2-chizmada grafalar raqami qavslarda berilgan.

1. - buyumning nomi,
2. - hujjatning belgisi O'z DSt 2.201 – 80 bo'yicha,
3. - detal materialining nomi. Bu grafa faqat detal chizmalarida to'ldiriladi,
4. - bu grafa O'z DSt 2.103 – 68 ga muvofiq berilgan bosma (literi) harf shaklidagi belgi. O'quv Chizmalarida bu grafa qaga O' (o'quv hujjati) indeksi qo'yilishi kerak,
5. - chizmada tasvirlangan buyumning kilogrammda berilgan massasi,
6. - buyumning chizmada tasvirlangan masshtabi (O'z DSt 2.302 – 97 bo'yicha).
7. - listing tartib raqami. Bitta bajarilgan hujjatda (chizmada) bu to'lg'azilmaydi.
8. - hujjatning umumiyligi chizmalar soni bu raqam faqat birinchi chizmada ko'rsatiladi,
9. - hujjat chiqargan korxonaning nomeri yoki farqlanish indeksi (o'quv chizmalarida fakultet va guruh nomerlarini ko'rsatish tavsiya etiladi).
10. - hujjatga imzo qo'ygan shaxslamig vazifasi, chizmani tekshirgan, tasdiqlagan (o'quv chizmalarida chizdi, tekshirdi, qabul qildi).
11. - hujjatga imzo qo'ygan shaxslamig imzosi,
12. - familiyalari 11-da ko'rsatilgan shaxslamig imzosi.
13. - hujjatga imzo qo'ygan sana (kun, oy va yil).
14. - chizmaga kiritilgan o'zgarishlar haqida.



Chizmaning birinchi formati bo'yicha pastdan o'ng burchakka O'z DSt 2.104 - 68 da belgilangan asosiy yozuvi joylashtiriladi. (2-chizma)



**1.3. O'z DSt 2.302. 97- Masshtablar** bu buyum tasvirini chizmada asliga nisbatan necha marta kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilganligini ko'rsatuvchi son yoki buyumning haqiqiy o'lehamalarini uning chizmasidagi (tasviridagi) o'lehamiga nisbatan masshtab belgilovchi nisbat oldiga M harfi qo'yildi.

O'z DSt 2.302. 97 muvofiq quyidagi masshtablar mavjud:  
M 1:1 – bu buyumning haqiqiy kattaligini tasvirlash masshtabi.


**Buyumni kichraytiruvchi masshtabi:** 1:2; 1:2,5; 1:4; 1:5; 1:10; 1:20; 1:25; 1:40; 1:50; 1:75; 1:100; 1:200; 1:400; 1:800; 1:1000.

**Buyumning kattalashtirilgan masshtabi:** 2:1; 2,5:1; 4:1; 5:1; 10:1; 20:1; 25:1; 40:1; 50:1; 75:1; 100:1; 200:1; 400:1; 800:1; 1000:1. Asosiy yozuvda masshtab uning uchun belgilangan grafsaga yozilgan bo'lsa M harfi tushirilib qoldiriladi. Qolgan hollarda M 1:1, M 1:2, M 2:1..... tartibida yoziladi. Mahalliy ko'rinish yoki ayrim harflar yoxud raqamlar bilan belgilangan tasvirlar masshtabi quyidagicha yoziladi:



$$\frac{A}{M2:1} : \frac{H}{M4:1}$$

#### 1.4. O'z DSt 2.303. 97- Chizma chiziqlari.

Buyumning chizmasini o'qish qulay bo'lishi uchun u har-xil qalintikdagi chiziqlar bilan tasvirlanadi. Chizmani yaqqolligini undagi chiziqlami to'g'ri tanlab olishga va ulaming yo'g'onliklarining nisbatini davlat standartlariiga rioya qilib chizishga bog'liq.



Chiziqlar nomi, yo'g'onligi, yo'g'onligi nisbati va ulaming tatbiq qilinishi O'zDSt 2.303. 97- ga muvofiq belgilangan. Chiziqlar xillari va ulaming qalinligini asosiy tutash chiziq qalinligi S ga nisbatli 3-chizmada berilgan. Chizmada uning qanday masshtabda chizilishidan qat'iy nazar buyumning haqiqiy o'chami ko'rsatiladi.



tamom bo'lishi kerak. (5-chizma,b). Aylananing markaziy chizig'i (o'qi) aylana ocherkidan taxminan 3-5 mm ga chiqib turishi mumkin. (5-chizma,b). Diametri 12 mm va undan kichik bo'lgan aylanalaming markaziy chiziqlarini ingichka tutash chiziq bilan chizish kerak. (5-chizma,v). To'g'ri chiziq aylana bilan uringanda va ikki yoy tutashsa, ulaming tutashgan chiziqlarini hech qanday yo'g'oniksiz birlashtirish shart.

Tasvining murakkabligi, katta kichikligiga va chizmaning formatiga qarab asosiy tutash chiziq o'lehami 0,5 mm dan 1,4 mm gacha tanlab olinadi. 2-jadvalda hamma chiziqlar nomi va ulaming tasvirlashda qo'llanilishi berilgan. 4-chizmada chiziqlami chizma qo'llanilishi qotsatilgan.

Chizmadagi shtrixlar uzunligi va shtrixlar orasidagi masofa bir xil bo'lishi kerak. Shtrix chizig'i bosqqa chiziqlar bilan birlashganda uzulish bo'lishi mumkin emas. (5-chizma,a)

Chizmalarda shtrix punktir chiziq shtrix bilan kesishishi va

### **1.5. O'z DSt 2.304. 97- Chizma shriftlari.**

Konstruktiv hujatlarda, yozuvlar O'z DSt 2.304. 97- da belgilangan chizma shriftlar bilan bajariladi. Bu standartlarda shriftning shakli, balandligi, yo'g'onligi (qalinligi), shriftlar orasidagi masofa va boshqalar ko'satilgan. Sanoatning hamma tarmoqlariga oid chizmalar va texnikaviy hujatlар, chizmalar yozuvlari uchun chizma shriftlarining quyidagi o'lechamlari berilgan: 2,5; 3,5; 5; 7; 10; 14; 20; 28; 40. Shriftlar o'lehami deb bosh harflaming millimetr hisobidagi balandligi h ni tuchunish kerak. Texnik chizmalarda o'lehami h = 2,5 dan h = 14 gacha bo'lgan shriftlar qo'llaniladi. O'z DSt 2.304. 97 bo'yicha kirill, lotin, yunon alfavitlarining harflari hamda raqamlardan iborat bo'lgan chizma shriftlari belgilangan. Bu standartlar asosan kirill va lotin alfavitlari harflari va arab sonlari tuzilish jihatdan asosi va enli shriftlarga bo'linadi. Asosiy shrift hamma chizmalarda va tekstli hujatlardagi yozuvlarda qo'llaniladi. Keng shrifilar bir necha so'z bilan bir qatomni to'ldirish kerak bo'lgan hollarda va shuningdek diagramma, jadval, ko'rgazma chizmalari, titul variqlari va hokazolarda qo'llaniladi. Normal shrift asosiy chiziqqa nisbatan 75° og'malikda yoziladi.

Nomlami, sarlavhalami va asosiy yozuvdagi va chizma yuzasidagi belgilami qiyalatmasdan to'g'ri yozish mumkin. Chizmalami kompyuter yordamida bajarish jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtida rus, lotin, arab, grek alfavitlarini chizmalarda va hujatlarda yozish uchun O'z DSt 2.304. 97ning hamma talablarini kompyuter yordamida bajarish dasturlari tuzilgan va u kompyuter xotirasiga kiritilgan. Bizga kerak bo'lgan shriftning parametрini kompyuterga kiritib xohlagan tekst yozuvini yozib uni printer yoki grafopostroitel yordamida chiqarish mumkin.

### **1.6. O'z DSt 2.307. 68- Chizmalarga o'leham qo'yish.**

Formatga chizmalami chizishda konstruktorlar tasvirlanayotgan buyum va uning elementlarini chizish emas balki ulami o'lechamlarini ham berish kerak. Buyumlar ulaming o'lechamlari asosida tayyorlanadi. Shuning uchun chizmalni o'lechamlarini to'g'ri qo'yish katta ahamiyatga ega. Chizilgan chizmadagi o'leham soni

mumkin qadar kam bo'lishi va buyumning tayyorlash uchun yetarli bo'lishi talab qilinadi. O'leham qo'yish va ulami o'zaro bog'lashda xatoga yo'l qo'ymaslik uchun O'z DSt 2.307. 68- da belgilangan qoidalarga amal qilish va uni mukammal o'rganish kerak. Buyumning formatdagi tasviri uning shaklini aniqlaydi, o'leham soni uning katta kichikligini bildiradi.

### **Umumiy qoidalar.**


Chizmalarda o'lehamlami o'leham chizg'ini ustiga yozilgan sonlar ko'rsatiladi. O'lehamlar chiziqli va burchakliklarga bo'linadilar. Chiziqli o'lehamlar chizmalarda millimetrlarda qo'yiladi. Bunda o'leham birligi ko'rsatilmaydi. Agar o'leham sonlarini boshqa o'lerov birligida ko'rsatilsa (sm.mm) u holda o'leham soni yoniga berilgan o'lerov birtigi yoziladi yoki buyumga berilgan texnik talablarda bunga ko'rsatma beriladi. Chizmada burchak o'lehamlari gradusda, minutda va sekunda ko'rsatiladi va uni o'lerov birligi belgilanadi. Misol : 30°, 7° 10'', 25° 10' 30''. O'leham sonları o'nlik kasrlarda qo'yilishi mumkin. O'leham sonları oddiy kasrda qo'yishga ruxsat berilmaydi. Dyuymda berilgan o'leham sonlarini kasrda qo'yish mumkin. Buyumning har bir o'lehami bir marta qo'yiladi. Chizmada buyumning umumiy o'lehamlarini uni tayyorlash uchun yetarli bo'lishi kerak.

### **O'leham va chiqarish chiziqlari.**


O'leham chizig'i tutash ingichka chiziq bilan chiziladi va u strelka bilan chegaralanadi. Strelka buyumning elementlarini o'lehash chegarasini ko'rsatadi. Strelkani kattaligi qo'llanilgan asosiy tutash kontur chiziqni -- S ning qalinligiga bog'liq holda tanlanadi va hamma tasvirda bir xil chiziladi. Strelkani shakli va elementlarini nisbati 6-chizmada ko'rsatilgan.

O'leham chizig'ini chiqarish chiziqlari orasidan va o'q, markaziy chiziqlari orasidan o'tkazish 7-chizmada ko'rsatilgan.


To'g'ri chiziqli kesma o'lehami shu kesmaga parallel bo'lgan o'leham chizig'i bilan ko'rsatiladi. Chiqarish chiziqlari o'leham chiziqlariga perpendikulyar o'tkaziladi. (7-chizma).



6-chizma




7-chizma



8-chizma

Chiqarish va o'leham chiziqlar kesishmasligi kerak. O'leham chiziqlarini Chizmani o'qishni qiyinlashtirmasligi uchun iloji boricha, chizma konturidan tashqariga chiqarish talab qilinadi. Aylana yoyi o'lehamini ko'rsatish uchun o'leham chizig'i aylana yoyiga konsentrik (parallel) ravishda o'tkaziladi. O'leham chizig'ini (yoyini) markaziy burchak uchida bo'ladi. Chiqarish chiziqlari burchak besektrisasiga parallel chiziladi, o'leham soni ustiga ⓧ belgi qo'yiladi. (8-chizma).




9-chizma

Chiqarish chiziqlari o'leham strelkasidan 1...5 mm (1...3) chiqib turishi kerak. (7-chizma). O'zaro parallel chiziqlari orasidagi masofa kamida (minimum) 7 mm bo'lishi talab qilinadi. O'leham chizig'i bilan kontur chiziq orasidagi masofa tasviming o'lehami va Chizmani murakkabligiga qarab 10 mm bo'lishi kerak. (7-chizma). DS bo'yicha chiqarish chiziqlari ko'rindigan kontur chiziqdan chiziladi. Agar bunga imkon bo'lmasa chiqarish va o'leham chiziqlarini ko'rinnmaydigan kontur chiziqlardan o'tkazish mumkin. Kontur, o'q markaziy chiqarish chiziqlarini va ular davomidan o'leham chiziqlari sifatida foydalanish mumkin emas.


O'leham va chiqarish chiziqlarini kesishga nuxsat berilmaydi. Radius o'lehami ko'rsatilgan o'leham chizig'ini yoyining markaziga yo'naltiriladi, yoga qadalib turuvchi bitta strelka bilan chegaralanadi. (8-chizma). O'leham chizig'ini quyidagi holda uzib va bir tomonidan strelka bilan ko'rsatish mumkin. Simmetrik buyumning ko'rinishi yoki

qirqimi uning simmetrik o'qigacha yoki uzib berilgan bo'lsa: bu holda o'leham chizig'ini buyumning o'leham chizig'idan bir oz o'tkazib chizib qo'yiladi. (9-chizma). Agar aylanani to'liq yoki qismi chizilgan bo'llishidan qat'iy nazar, uning o'leham chizig'i aylana markazidan biroz o'tkazib uzib ko'rsatiladi. Buyumning chizmasini bir qismi uzib ko'rsatilsa, buyumning shu qismi o'leham chizig'ini uzmasdan to'liq ko'rsatiladi. (10-chizma).




10-chizma

Chizmada aylana to'liq yoki qisman chizilishidan qat'iy nazar, uning diametri o'lehami aylan markazidan bir oz o'tkazib ko'rsatilishi mumkin. (9-chizma). Buyumning o'lehami soni o'leham chizig'ining ortasiga unga tekizmasdan yoziladi. Agar o'leham chizig'i uzunligi o'leham chizig'ining strelkasini chizish uchun yetarli bo'lmasa, u holda o'leham chizig'ini chiqarish chizig'ini orqasiga davom yetirish kerak va strelka chiqarish chizig'ini tashqi tomoniga qo'yilishi mumkin. (11-chizma, a). Strelkaning qo'yish uchun o'leham chizig'ida yetarli joy bo'lмаган hollarda o'lehamlами bir-biridan ajratish uchun ko'rindigan nuqta yoki  $45^{\circ}$  ostida o'tkazilgan shtrix bilan belgilab qo'yiladi. (11-chizma, b,v). 12-chizmaga o'xshash hollarda chiqarish chiziqlari o'leham chizig'iga og'ma o'tkaziladi va u o'lehanayotgan kesma bilan parallelogramm hosil qilishi kerak.



11-chizma




12-chizma

### O'leham sonlari.

O'leham sonlarini iloji boricha o'leham chizig'i o'rtafiga yozish talab qilinadi. O'leham sonining balandligi h = 3,5 mm dan kam bo'lmasligi kerak. Bir-biridan kichik masofada bir qancha parallel yoki konsentrik

(bir joyga to'plangan yoki jamlangan) o'leham chiziqlarini o'leham sonlari shaxmat tartibida qo'yiladi. (13-chizma).




13-chizma

Chiziqli o'lehamlarning o'leham chiziqlari har xil qiyalikda chizilgan bo'lsa u holda o'leham sonlari 14-chizma a da ko'satilgandek yoziladi.


Burehak o'lehamlari 14-chizma b da ko'satilgandek qo'yiladi. Bunda agar o'leham chiziq gorizontal chiziqdandan yuqorida bo'lsa, o'leham soni o'leham chizig'i ustiga, o'leham chizig'i gorizontal chiziqdandan pastda joylashgan bo'lsa, u holda

o'leham chiziqni bukilgan joyiga yoziladi. Shtrixlab ajratilgan joyiga o'leham chizig'i ni yozish maslahat berilmaydi. O'leham soni o'leham chizig'i ga parallel ravishda uni ustiga yoziladi. Kichik burehakni o'leham sonlarini agar uni yozish uchun o'leham chizig'ida joy yetishmasa, uni chizmaning istalgan joyida chiqarish chizig'i nuqtasiga


qo'yish mumkin. O'lcham soni bo'limmaydi yoki chizmaning chizig'i bilan kesishmaydi. (15-chizma).





14-chizma



b)




15-chizma



16-chizma

O'lcham sonini qo'yish uchun kontur chizig'ini uzilmaydi va o'lcham sonlarini o'q va markaziy chiziqlarini o'zaro kesishgan joyiga qo'yilmaydi, o'lcham qo'yilgan joyda markaziy chiziqlar uzib qo'yiladi va o'lcham sonlari yozilgan joy chizmada shtrixlanmaydi. (16-chizma a, b).




17-chizma

Agar o'lcham chizig'i ustida o'lcham sonini yozish uchun joy kam bo'lsa u holda o'lcham sonini uning davomiga asosiy yozuvga parallel vaziyatda o'tkazilgan chiqarish chizig'ini tokchasiga yoziladi. (17-chizma).




## Sharflı belgilar va o'lcham chiziqlari us tidagi yozuvlar.

Radius o'lcham sonlarida har doim bosh R harfi yoziladi va uning balandligi o'lcham sonining balandligiga teng bo'ldi. Markaziy chiziqlar kesishgan nuqtasi yoyning markazi bo'ldi. Bir markazdan bir qancha radius o'lchami chiziqlari o'tkazilganda har qanday radius o'lcham chizig'i bilan to'g'ri chiziqda joylashmaydi. (18-chizma, a).


Aylana yoyi markazi holatini aniqlovchi o'lchamlarini




ko'rsatish talab qilinmasa, u holda radiusning o'lcham chizig'ini markazgacha davom ettirmasdan chizish mumkin. (19-chizma). Agar radius o'lchami katta bo'lgan hollarda markaz aylana yoyiga yaqinlashtirib radius o'lchami chizig'ini  $90^\circ$  ga teng bo'lgan siniq chiziq bilan chiziladi. (18-chizma, b). Hamma hollarda aylananing diametri o'lcham soni oldiga qo'yilgan  $\phi$  belgisi bilan belgilanadi. (20-chizma, a, b, v, g). Bunda  $\phi$  belgi balandligi aylana o'lchami sonining balandligiga, belgi diametri o'lcham sonining balandligini




21-chizma



22-chizma



20-chizma



23-chizma


7/10 ga, vertikal chiziqning og'maligi  $60^{\circ}$  ga teng bo'ladi. (20-chizma, b).

Aylana to'la yoki qisman chizilgan bo'llishidan qat'iy nazar uning o'lcham chizig'ini aylana markazidan biroz o'tkazib, uzib ko'satish mumkin. (21-chizma, a,b). Aylananing ichiga uning diametri soni yozilayotganda uni aylana markazidan biroz siljitim qo'yiladi. (20-chizma, a). Sferani belgilash uchun diametri yoki radius o'lcham sonlarining oldiga  $\phi$  yoki R belgisi qo'yiladi. Masalan: R 12,  $\phi$  16. (22-chizma, a).

Agar chizmada sferani boshqa sirtlardan ajratish qiyin bo'lsa u holda sferani o'lcham soni oldiga "Sfera" so'zi qo'shib yoziladi yoki O belgi qo'yiladi. Masalan: "Sfera R 40 yoki Sfera  $\phi$  20".

"OR 12", (22-chizma, b). Kvadrat yoki kvadrat shaklli tekisliklarning o'lehamlari 23-chizma a, b, v larda ko'rsatilgandek qo'yiladi. O va belgilarini o'lehami chizmadagi o'leham sonlarining balandligiga teng.


**Konusli (fas ka).** Konus o'qiga parallel joylashgan chiqarish chizig'i tokchasiidan yoki konus o'qini ustida ko'rsatiladi. (24-chizma, b). Bunda konuslikni ifodalovchi o'leham soni oldiga uchi konus uchi tomoniga qaratilgan " $\triangle$ " belgi qo'yiladi. Chiziqning qiyalik belgisi gorizontal joylashgan chiqarish chizig'inining tokchasiga qo'yiladi.




24-chizma

**Qiyalik (nishab).** Qiyalikning o'leham soni oldiga uchi qiyalik tomonga yo'nalgan " $\angle$ " belgi qo'yiladi. (24-chizma, a).

Ayrim detallarda faska kesiladi – bu har-xil burchakkarda kesilgan kichik qiyaliklar  $45^{\circ}$  da kesilgan faska yozuv bilan belgilanadi, bunda birinchi son faskani balandligi millimetrdan ikkinchi son uning qanday burchakda kesilganligini ko'rsatiladi. Misol:  $2 \times 45^{\circ}$  (25-chizma, a). Boshqa burchakkarda kesilgan faskalar o'lehami umumiy qoida asosida ya'ni ikki chiziqlik o'leham yoki bitta chiziqlik va bitta burchakli o'lehamlar bilan qo'yiladi. (25-chizma, b,v).



25-chizma



26-chizma

Teshiklar aylana bo'ylab, bir-biridan baravar uzoqlikda joylashgan bo'lsa, u holda ulamining markazlari orasidagi o'lchamlar qo'yilmaydi, faqat teshiklar soni va o'lchami ko'rsatiladi. (26-chizma,a). Bir xil diametrali teshiklar o'lchamlarini qo'yishda ularidan bittasini chizib, uning o'lchami qo'yiladi qolganlari markaziy chiziqlar bilan belgilanadi. (26-chizma, b,v).


### 1.7. Geometrik chizishlar.

Chizmachilik qurilmalari yordamida geometrik masalalarni tekislikda grafik usulida yechish chizma chizish deyiladi. Bu


chizmalami chizishda quyidagi qurilishlar qo'llaniladi. O'zaro parallel va perpendikulyar chiziqlar o'tkazish, kesmani va aylanani teng bo'laklarga bo'lish, to'g'ri burchaklami chizish, kattaligi jihatdan teng shakllar va boshqa geometrik chizishlaming ko'pini chizishni o'rta maktabda geometriya fanida o'tilgan. Quyida ulardan ayrimlarini bayon qilamiz.

### Aylana yoyini radiusi va markazlarini aniqlash.

27-chizma a dagi yoya ikkita ixtiyoriy holda AV va VS ni uni o'rtasidan unga perpendikulyar vaziyatda to'g'ri chiziq kesmasini o'tkaziladi. O'tkazilgan ikki perpendikulyar kesgan nuqtani O yoyning markazi, markazdan yoyning istalgan nuqtasigacha bo'lgan masofa uning radiusi bo'ladi.



a



b







27-chizma

### To'g'ri chiziq kesmasini teng bo'laklarga bo'lish.

To'g'ri chiziq kesmasi AV ni n teng bo'laklarga bo'lish uchun A nuqta orqali AV to'g'ri chiziqliga ixtiyoriy burchakda AS yordamchisi to'g'ri chiziq o'tkazamiz. Bu to'g'ri chiziqlni A uchidan n o'zaro teng kesmani qo'yamiz. Oxirgi D nuqtani V nuqta bilan birlashtiramiz. Bo'lingan nuqtalar orqali VD ga parallel chiziqlar o'tkazamiza. Natijada AV to'g'ri chiziq kesmasi teng bo'laklarga bo'lindi. (27 chizma, b).

### Aylanani teng bo'laklarga bo'lish.

Aylanani 4,8,3,6,12,9 teng bo'laklarga va uning ichiga to'g'ri ko'pburchaklami chizish 28-chizmada ko'satilgan. 28-chizma v da uehburchakni 2-3 tomoni yarmi 2-A, aylana ichiga chizilgan to'g'ri yetti burchakni tomoni bo'ladi. 28-chizma e da AV kesma to'g'ri to'qqiz burchakni tomoni bo'ladi.



28-chizma


### Aylanani 5 va 10 bo'laklarga bo'lis h.

**Birinchi usul** (29-chizma, a). Aylana radiusi  $O_1O_1$  ni teng ikkiga bo'lamiz va uni o'rtasi  $O_2$  nuqtani belgilaymiz, bu nuqtadan  $R_2 = O_2$  5 radius bilan yoy chizamiz, hosil bo'lgan  $5A$  kesma aylanani ichiga chizilgan to'g'ri beshburchak tomoniga teng,  $AO$  kesma esa to'g'ri ongburchak tomoniga teng bo'ladi.


**Ikkinchi usul** (29-chizma, b). Aylana radiusini ikkiga bo'lib,  $O_1$  nuqtani belgilaymiz va uning vertikal diametrini oxiri  $O_2$  bilan tutashtiramiz.

$O_1$  nuqtadan  $O_1S = O_1O$  kesmani o'lchab qo'yamiz.  $O_2S$  kesma to'g'ri ongburchakning tomoni bo'ladi.  $O_2S$  radius bilan  $O_2S$  yoyini


o'tkazamiz va bu yoy aylanani uch va to'rt nuqtalarida kesadi. Hosil bo'lgan 3-4 xorda to'g'ri beshburchakni tomoni bo'ladi.




a)



a)



29-chizma



30-chizma


### Aylanani n teng bo'laklarga bo'lish h.

**Birinchi usul.** Aylananing bir diametrini misol uchun vertikal diametrini teng n (7) bo'lakka bo'lamiz. (30-chizma, a). Vertikal diametrini oxiridan VII - 7 radius bilan yoy chizamiz. Bu yoy aylananining gorizontal diametrini a va b nuqtalarida kesadi. Bu nuqtalar - aylananining vertikal diametrini juft nuqtalari (yoki toq) bilan tutashtiramiz va uni berilgan aylana bilan kesishguncha davom ettiramiz, bu chiziqlar aylana bilan kesishib, uni 7 teng bo'laklarga bo'ladi. (30-chizma,a).

**Ikkinchi usul.** Bu usul ancha qulay va soddadir.

(30-chizma, b). Aylananing bir diametrini misol uchun gorizontal diametrini teng n (7) bo'lakka bo'lamiz. Aylananing gorizontal va vertikal nuqtalari dovomiga n ni bir bo'lagiga teng bo'lgan kesimani qo'yib 8 va 9 nuqtalami hosil qilamiz. Bu nuqtalami o'zaro tutashtirib

K nuqtani aniqlaymiz va uni 3 nuqta bilan tutashtiramiz. K - 3 kesma aylana ichiga chizilgan to'g'ri yetti burchakni tomoniga teng. (30-chizma, b). Aylanani n bo'lakka bo'lishda har doim K nuqta 3 nuqta bilan tutashtiriladi.



31-chizma

**Uchinchchi usul.** (31-chizma). Aylananing o'zaro perpendikulyar  $\Delta V$  va  $SD$  diametrlerini o'tkazamiz va bu diametrlardan bittasini ya'ni  $SD$  diaimetreni teng ikkiga bo'lib,  $OS$  radiusni hosil qilamiz. S nuqtadan berilgan aylan radiusi bilan yoy chizamiz. Bu yoy aylanani  $E$  va 1 nuqtalarida kesadi, aniqlangan  $A$  va  $E$  nuqtalami o'zaro to'g'ri chiziq bilan tutashtiramiz. Hosil bo'lgan  $E$  to'g'ri chiziq  $OS$  radius bilan F nuqtadan kesishadi. F nugta

$OS$  radiusni va  $E$ -t to'g'ri chiziq kesmasini teng ikkiga bo'ladi.  $E$ -t kesmani yarmi  $E$ -F = F-1 berilgan aylanani teng yettiga bo'ladi. Bir nuqtadan 1-F radius bilan yoy chizamiz bu yoy aylanani 2 va 7 nuqtalarda kesadi. So'ngra 2 va 7 nuqtalardan ham  $R$  radius bilan yoy chizib 3 va 6 nuqtalami aniqlaymiz, shu usul bilan boshqa nuqtalami aniqlaymiz. Aniqlangan 2,3,4,... nuqtalami ketma-ket birlashtirib mutazam yetti burchakni hosil qilamiz.

### Vatarlar jadvali yordamida aylanalar ni teng bo'laklarga bo'lish h.

Aylanani teng bo'laklarga bo'luchchi vataming uzunligini, shu aylanani diametri va uni nechta teng bo'laklarga bo'luchchi son bilan bog'liqligi 3-jadvalda keltirilgan.

Misol: diametri 70 millimetrl bo'lgan 11 ta teng bo'laklarga bo'lish va aylan ichiga 11 burchakni chizish talab qilinadi. Jadvaldan ma'lumki

11 burchakning tomonining uzunligi  $0,28173 \times 70 = 19,7211 \approx 19,7$  mm ga teng. Aylananing istalgan nuqtasidan radiusi 19,7 mm ga teng bo'lgan yoylamasi belgilab chiqamiz va aylana ichiga 11 burchakni chizamiz.


**1.8. Qiyalik (qiyalikni chizish)** – to'g'ri chiziqni gorizontal yoki frontal chiziqqa nisbatan og'maligini qiyalik yordamida ko'rsatish

3-jadval


Xorda jadvali

Aylanalarini bo'llish soni	Xorda uzunligi	Aylanalarini bo'llish soni	Xorda uzunligi
3	$0,86603 \times d$	15	$0,20791 \times d$
4	$0,70711 \times d$	16	$0,19509 \times d$
5	$0,58779 \times d$	17	$0,18375 \times d$
6	$0,50000 \times d$	18	$0,17365 \times d$
7	$0,43388 \times d$	19	$0,16460 \times d$
8	$0,38268 \times d$	20	$0,15643 \times d$
9	$0,34202 \times d$	21	$0,14904 \times d$
10	$0,30902 \times d$	22	$0,14232 \times d$
11	$0,28173 \times d$	23	$0,13617 \times d$
12	$0,25882 \times d$	24	$0,13053 \times d$
13	$0,23932 \times d$	25	$0,12533 \times d$
14	$0,22252 \times d$		

mumkin. Bir to'g'ri chiziqni ikkinchi to'g'ri chiziqqa nisbatan og'maligini ko'rsatadigan qiymat qiyalik deyiladi. AV kesmani AS



32-chizma



33-chizma


kesmaga nisbatan qiyaligi i to'g'ri burchakli uchiburehak AVS ning katetlari uzunligi nisbati bilan aniqlanadi.

Ya'ni  $i = \frac{VS}{AS} = \operatorname{tg}\alpha$  (32-chizma). Demak AS kesmaga nisbatga berilgan qiymatda  $\Delta V$  to'g'ri chiziq kesmasini chizish to'g'ri burchakli  $\Delta$  AVS gipotenuzasini chizish bo'lib, bunda katetlar uzunligining nisbati ya'ni  $VS/AS$  tenglik qiyalikka teng bo'ladi.

Rekslar, shvellerlar, tavrli to'sinlar, shponkalar, ko'p quyma buyumlarda qiyalik bo'ladi. Buyumlarda qiyalikni qo'llanishi ulardan foydalanishda eng yuqori mustahkamlikni ta'minlaydi va uning tayyorlashni yengillashtiradi, metall tejaladi. 18№ shveller profilini chizishda standartdan olingan o'lcham ( $h = 180\text{mm}$ ,  $b = 70\text{mm}$ ,  $d = 5,1\text{mm}$ ) bo'yicha asosiy shakl chiziladi. (33-chizma).

So'ngra E nuqta holatini  $\frac{d-d}{2} = \frac{70-5,1}{2} \approx 32,5\text{mm}$  va

$t = 7,8$  o'lcham bo'yicha aniqlanadi.  $E$  nuqta orqali  $1 : 10$  qiyalidagi to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Buni oldindan o'tkazilgan VS chiziqliqa  $1:10$  (AS  $100\text{mm}$ , VS  $10\text{mm}$ ) qiyalikda parallel o'tkazish anchea qulay bo'ladi. DS 2370-68 muvofiq chizmalarda qiyalikni aniqlovchi o'lcham soni oldiga " $\angle$ " belgi qo'yiladi lekin uning o'tkir burchagi qiyalik tomoniga qaratilgan bo'lishi zarur. Konus yasovchilarini uning o'qiga og'maligi konuslik yordamida ko'rsatilishi mumkin.



34-chizma

**1.9. Konuslik (konuslikni chizish).** To'g'ri doirali konus asosini diametri  $d$  ni konus balandligi  $h$  ga nisbatli konuslik deyiladi.  $K = \frac{d}{h}$ . Kesik konusda uning ikki asosi (yuqori va pastki) diametrlari ayirmasining asoslar orasidagi masofagacha bo'lgan nisbatga teng. (34-chizma).

$$K = \frac{D-d}{e} = 2\operatorname{tg}\alpha. \quad \text{Chizmada}$$

konuslik oddiy kasr o'nligi kasr yoki foizlarda ifodalaniladi. Misol: agar  $D=30$  mm,  $d=22$  mm,  $l=40$  mm bo'lsa,

$$K = \frac{30 - 22}{40} = \frac{1}{5} = 1:5$$

yoki 0,2 yoki 20% bo'ladi.

Chizmalarda konuslikni

ifodalovchi o'leham soni oldiga " $\triangle$ " belgisi qo'yiladi. Bunda belgining o'tkir burchagi konusning uchi to: **35-chizma** tilgan bo'lishi zarur. Misol: konussimon teshikning balandligi  $l=80$  mm, konuslik  $K=1:4$ , katta asosning diametri  $D=26$  mm. Konusning kichik asosini diametrini d aniqlash talab qilinadi. Konuslik tenglammasi dan uning kichik asosining diametri d quyidagicha aniqlanadi. (35-chizma).

$$K = \frac{D - d}{e}; \quad Kl = D - d, \quad d = D - Kl; \quad d = 26 - 0,25 \cdot 80 = 6$$


Kesik konusning kichik asosining diametri  $d=6$  mm ga teng.

## 1.10. Tutashmalar.


Chizmada ko'p buyumlaming sirti biridan ikkinchisiga silliq tutashgan chiziqlar bilan tasvirlanadi. Silliq o'tishi buyumning konstruksiyasini xislatlari, uni tayyorlash texnologiyasi, mashina tarkibida, qanday vazifa bajarishini estetik talablar va boshqalar bilan aniqlanadi. Chizmada bir chiziqnin ikkinchi chiziqqqa silliq o'tishi tutashma deyildi. Tutashmalarni quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Ikki aylana yoyining to'g'ri chiziq bilan.
2. Ikki to'g'ri chiziqnin aylana yoyi bilan.
3. Aylana yoyini to'g'ri chiziq orqali ikkinchi aylana yoyi bilan.
4. Aylanning ikki yoyini uchinchi yoy bilan.

Tutashma hosil qilish uchun quyidagi elementlar kerak: tutashma nuqtasi, tutashma yoyining markazi va uning radiusi. Tutashmalarni chizish uchta asosiy nazariyaga asoslangan.



- To'g'ri chiziq aylanaga urinma bo'ladi**, agar to'g'ri chiziq urinish nuqtasidan o'tkazilgan radiusga perpendikulyar bo'lsa. (36-chizma, a). Berilgan A nuqtadan aylanaga urinma to'g'ri chiziq o'tkazish uchun to'g'ri burchak OKA chiziladi.(36-chizma, b). Uni  $O_1$  dan o'tkazilgan OA diametriga (36-chizma, b) suyangan qo'shimcha aylananing ichki burchagi sifatida aniqlanadi.
- Ikki aylana urinma bo'lishi mumkin**. Agar urinish nuqtasi K ulaming markazi  $O_1$  va  $O_2$  ni birlashtinuvchi to'g'ri chiziqdagi joylashgan bo'lsa. (36-chizma, v). Aylanalaming urinma bo'lishi tashqi (36-chizma, v) va ichki (36-chizma, g) bo'lishi mumkin.
- Ikki bir xil radiusdagi aylanaga urinma bo'ligan**  
yoyning markazi O, aylanalamig markazi  $O_1$  va  $O_2$  birlashtinuvchi



36-chizma

to'g'ri chiziqni o'rtafiga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziqdagi bo'ladi. Ikki aylanaga tutashma bo'lgan yoy tashqi (36-chizma, d) va ichki bo'lishi mumkin (36-chizma, e).


**Ikki to'g'ri chiziqni radiusi berilgan yoy bilan tutashirish.**

O'tkir va o'tmas burchak bilan o'zaro joylashgan ikki to'g'ri chiziqni tutashirish quyidagi tartibda bajariladi. Tutashmalar markazi

O ni aniqlaymiz. Buning uchun berilgan R ga teng masofada burchakni tomonlariga parallel yordamchi to'g'ri chiziq o'tkazamiz.

Buning uchun O markazidan burchak tomonlariga perpendikulyar o'tkazib K va K<sub>1</sub> nuqtalarini aniqlaymiz va aniqlangan nuqtalami R radius bilan O markazidan tutashтирмиз.

(37-chizma, a,b). To'g'ri burchakni tutashтирувчи yоynи markazini aniqlashida sirkuldan foydalanish ancha qulay. (37-chizma, v). Tutashmaning bitta tutashish nuqtasi K berilgan to'g'ri chiziqni bittasida yotsa u holda, tutashish markazi O tutashish markazi R va ikkinchi tutashish nuqtasi K<sub>1</sub> ni ikkinchi to'g'ri chiziqdа aniqlanadi. Buning uchun birinchi nazariya holatidan foydalanamiz. Bunda K nuqtadan perpendikulyar o'tkaziladi va burchak bissektrisasi aniqlanadi.




37-chizma

Perpendikulyar bilan bissektrisa kesishган nuqta O tutashma markazi bo'ladi. O nuqtadan burchakni ikkinchi tomoniga o'tkazilgan perpendikulyar K<sub>1</sub> nuqta aniqlanadi. K va K<sub>1</sub> nuqtalarini OK radius bilan tutashтирилди. (37-chizma, g,d).

### Parallel to'g'ri chiziqlarni tutashmaları.

Avval ikkita parallel to'g'ri chiziqlardan birida tutashish nuqtasi K ni berilgan holini ko'ramiz. (38-chizma, a). Ikkinci chiziqdandan tutashish nuqtasi  $K_1$  aniqlash uchun K nuqtadan berilgan parallel to'g'ri chiziqlarga perpendikulyar chiziq o'tkazamiz. Tutashayotgan yoyning markazi va radiusini K  $K_1$  kesmani ikkiga bo'lib aniqlangan. O markazidan K va  $K_1$  nuqtalarini birlashtiruvechi yoy o'tkazamiz.



38-chizma

Tutashish nuqtasi bitta perpendikulyarda joylashgan o'zaro parallel ikkita to'g'ri chiziqlarni tutashтириш.

Tutashmalami bir xil radiusdagi yoqlar bilan bajariladi. (38-chizma, b). Parallel to'g'ri chiziqlar orasidagi masofa  $\frac{1}{4}$  teng bo'lishi shart. K  $K_1$  kesmani teng ikkiga bo'lib tutashayotgan yoqlami tutashish nuqtasi  $K_2$  aniqlanadi. Tutashayotgan yoqlami O va  $O_1$  markazi K  $K_2$  va  $K_1$   $K_2$  kesmalarini har birini o'rtasidan bo'ladi. O va  $O_1$  markazdan tutashish yoqlarini R radiusda o'tkazamiz.

## **Tutas hish nuqtasi har xil perpendikulyarda joylas hган o'zaro parallel to'g'ri chiziqlarni tutash tirish.**


Agar tutashuvchi yoylar bir xil radiusda bo'lsa u holda urinish nuqtasi  $K_2$  ni  $K$   $K_1$  to'g'ri chiziq kesmasini ikkiga bo'lib aniqlanadi. Tutashuvechi yoyning radiusi va ulaming markazini aniqlash uchun  $K$  va  $K_1$  nuqtadan berilgan chiziqlarga perpendikulyar o'tkaziladi. Aylana yoyining markazidan uning vatariga o'tkazilgan perpendikulyarlarini o'rjasidan bo'ladi. Shuning uchun  $K$   $K_2$  va  $K_1$   $K_2$  (vatarlami) kesmalaming o'rjasidan ularga perpendikulyar o'tkazamiz. O va  $O_1$  markazidan tutashuvechi yoylами  $K$   $K_2$  va  $K_1$  nuqtalar orqali o'tkaziladi. (38-chizma, v,g,d).

## **Aylana yovini to'g'ri chiziq bilan radiusi berilgan yoy yordamida tutash tirish.**

To'g'ri chiziqni aylana yoyi bilan tutashirishda ichki va tashqi hollari mavjud.

**Tashqi urinma.** (39-chizma, a). Tutashmalar markazi  $O$  aniqlanadi. Tutashmaga  $R$  radiusga teng masofada berilgan to'g'ri chiziqqa parallel to'g'ri chiziq o'tkazamiz. Berilgan aylananing markazi  $O_1$  dan  $R+R_1$  yordamchi yoy chiziladi. Birinchi nazariyadan foydalanib tutashish nuqtasi  $K$  ni aniqlaymiz.  $K_1$  tutashish nuqtasini ikkinchi nazariyani qo'llab topamiz.  $K$  va  $K_1$  nuqtalami  $O_1$  markazdan  $R$  radius bilan tutashiramiz.

**Ichki urinma.** To'g'ri chiziq aylanani kesib o'tishi yoki uni tashqaridan o'tishi mumkin. 39- b Chizma da  $R_1$  radiusli aylanani uning kesib o'tuvchi to'g'ri chiziq bilan  $R$  radiusli yoy bilan tutashirish ko'satilgan. Buning uchun tutashma yoyining radiusi  $R$  ga teng masofada yordamchi to'g'ri chiziqni berilgan to'g'ri chiziqqa parallel vaziyatda o'tkazamiz.  $O_1$  markazdan  $R_1 - R$  yordamchi aylana yoyini chizamiz.




39-chizma

O'tkazilgan aylana yoyi o'tkazilgan yordamchi to'g'ri chiziq bilan kesishib O nuqtani hosil qiladi. Tutashish nuqtasi K ni birinchi nazariya, ikkinchi tutashish nuqtasi K ni ikkinchi nazariya orqali aniqlaymiz. 39- chizma, v, da aylana yoyini kesmaydigan to'g'ri chiziq bilan aylanani tutashish ko'satilgan. Bu tutashmani chizish oldingi tutashmaga o'xshash bo'lib yordamchi aylananing radiusi tutashma radiusdan berilgan aylanuning radiusi ayirmasiga teng bo'ladi. ya'ni  $R - R_1$ .

### **Ikkita aylana yoyini to'g'ri chiziq bilan tutashdirish.**

Bu ichki va tashqi urimmalami berilgan aylana yoqlari chizishdan iboratdir. (40-chizma, a,b). Aylana yoqlariga tashqi tutash chiziq'i chizish uchun birinchi nazariya holatidan foydalananamiz. Buning uchun O markazdan yordamchi aylanani berilgan

aylanalarning radiuslar ayirmasiga ( $R_1 - R$ ) teng radiusda chizamiz.  $O_1$  markazdan yordamchi aylanaga urinma chiziq o'tkazamiz.  $O$  va  $K_0$  nuqtalar orqali  $R$  radiusli aylanani  $K$  nuqtadan kesib o'tuvchi to'g'ri chiziq o'tkazamiz.  $K$  nuqta tutashish nuqtasi bo'ladi.  $R_1$  radiusli aylanadagi  $K_1$  tutashish nuqtasini  $O_1$   $K_1$  chiziqni OK chiziqa parallel chiziq o'tkazamiz.  $K$  va  $K_1$  nuqtalarini to'g'ri chiziq kesamasi bilan tutashtirib urinma chiziqni hosil qilamiz. Aylanalarga ichki urinadigan to'g'ri chizqini o'tkazish yuqorida keltirilgan misolga o'xshash bo'ladi, lekin bunda yordamchi aylananing radiusi berilgan aylananlaming radiusi yig'indisiga teng bo'ladi. ( $R = R_1 + 40$ -chizma,b).



#### 40-chizma


##### Ikkita aylana yoyini uchinchini yoy bilan tutashdirish.

Bu holda ichki va tashqi tutashmalar bo'lishi mumkin. Tutashdirilayotgan yoyning radiusi  $R$  va tutashayotgan yoylarning radiusi  $R_1$  va  $R_2$  lar berilganda tutashmaning markazi va tutashish markazi aniqlanadi.

**Tashqi urinma.** (41-chizma,a). Avval tutashma yoyining markazi aniqlanadi. Buning uchun  $O_1$  va  $O_2$  markazdan  $R - R_1$  va  $R - R_2$  radiusda tegishlicha yordamchi yoyslar o'tkazamiz.  $OO_1$  va  $OO_2$  markaziy chiziqlardan foydalaniib,  $K$  va  $K_1$  tutashish nuqtalarini ikkinchi nazanya holatidan foydalaniib aniqlaymiz. Tutashdiriluvchi yoyning  $R$  radius bilan  $O$  markazdan o'tkazamiz. (41-chizma,a).

**Ichki tutashma.** (41-chizma, b). Tutashdiriluvchi yoyning markazi  $O$  ni  $R - R_1$  va  $R - R_2$  radiuslar bilan  $O_1$  va  $O_2$  markazlardan

o'tkazilgan yoylarning kesishish nuqtasi bo'ladi. Ikkinci nazariya holatini qo'llab markaziy chiziqlarni davom ettirib, tutashish nuqtasini K va K<sub>1</sub> aniqlaymiz. Radiuslami yig'indisi yoki ayirmasini aniqlash



#### 41-chizma


uchun yordamchi to'g'ri chiziqdan foydalanamiz. Bu to'g'ri chiziqqa sirkul yordamida tegishli radiuslami o'lehab qo'yamiz.

#### Berilgan R radiusli yoy bilan ichki va tashqi tutashmlarini birga chizish.


(42-chizma, a,b). Bu holda tutashma markazidan bitta aylananing markazigacha bo'lgan masofa radiuslar yig'indisi  $R+R_1$  ga teng (tashqi tutashma), boshqa aylana markazigacha bo'lgan masofa tutashma radiusi bilan shu aylana radiusi ayirmasiga teng (ichki tutashma). Bular chizish bilan aniqlanadi.

#### 1.11. Ovallar.

Kulachoklar, flaneslar, qopqoqlar va boshqalami tashqi ko'rinishi (konturi) ovallardan tashkil topgan bo'ladi. Har-xil radiusli aylana yoylari bilan tutashgan yopiq va ravon egri chiziqlardir. U ikkitayanch aylanadan iborat bo'lib, ular o'zaro ichki tutashma bilan birlashtirilganlar. Ovalning tayanch aylanalaming radiusi har-xil bo'lsa ovoid deyiladi. Ovoid bitta simmetrik o'qqa ega.




a)



b)

42-chizma



**Berilgan AV va SD o'qlar bo'yicha oval chizish.**(43-chizma). A va S nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan tutashtriramiz. Kichik o'qni (SD) davomiga O<sub>1</sub> markazdan sirkul yordamida katta o'q uzunligining (AV) yarmisini ( $\Delta O$ ) o'lchab qo'yamiz. AS kesmaga S nuqtadan ovalning yarim o'qlari ayirmasi  $A_1$  S ni qo'yib,  $A_2$  nuqtani aniqlaymiz  $\Delta A_2$  kesmaning o'rtasidan unga perpendikulyar o'tkazamiz. Bu perpendikulyar oval o'qlarni O<sub>1</sub> va O<sub>3</sub> nuqtada kesadi va oval yoylaming markazi bo'ladi. Sirkul yordamida O<sub>1</sub> va O<sub>3</sub> markazlarga simmetrik O<sub>2</sub> va



43-chizma

O<sub>4</sub> markazlamiz. O<sub>3</sub> va O<sub>4</sub> nuqtalaridan O<sub>1</sub> va O<sub>2</sub> nuqtalar orqali to'g'ri chiziq o'tkazamiz. O<sub>1</sub> va O<sub>2</sub> markazlaridan oval yoyini R<sub>1</sub> radiusda ( $R_1 \cdot O_1 A$ ) o'tkazib tutashish nuqtalari K<sub>1</sub>, K<sub>2</sub>, K<sub>3</sub>, K<sub>4</sub> nuqtalarni aniqlaymiz. O<sub>3</sub> va O<sub>4</sub> markazdan R<sub>2</sub> ( $O_3 K_1$ ) radiusda yoy o'tkazib, berilgan o'qlar bo'yicha ovalni hosil qilamiz.

**Ovoidni uning berilgan kengligi bo'yicha chizish.** Ovoidning kengligi uning katta tayanch aylanasining diametrining uzunligiga teng. Bu ovoidning asosi bo'ladi. 44-chizma, a da  $OO_1 = R$ , R asosi aylananining radiusi bo'lgan ovoidni chizish ko'satilgan. Cho'zilgan ovalni chizish uchun (44- b chizma) O markazidan yordamchi yoyni  $R_1 = OO_1 > R$  radiusda o'tkazib. AV o'qni davomida  $O_2$  va  $O_3$  markazlarini belgilaymiz. Tutashish nuqtasi  $K_1$  va  $K_2$   $O_1O_2$  va  $O_2O_3$  markaziylarini chiziqlami  $O_2$ ,  $O_3$  markazdan  $R_2$  radius bilan kesishish nuqtasi bo'ladi. Bunday chiziqlar yordamida  $R_3 = O_1K_1$  yoki  $O_1K_2$  yoy bilan ovoid yoyi tugallanadi. Agar  $OO_1 < R$  bo'lsa, o'tmas ovoid hosil bo'ladi. (44- v chizma).




### 1.12. Lekalo yorda mida chiziladigan egri chiziqlar.

Avvaldan belgilangan tekis egri chiziqlini lekalo yordamida tutashtirilsa, bunday tekis egri chiziqlar lekaloli chiziq deyiladi. (45-chizma). Lekaloli egri chiziqlar qonuniy va qonunsiz bo'ladi. Qonuniy lekalo tekis egri chiziqlarga ulami shaklini tenglamma bilan aniqlash mumkin bo'lgan tekis egri chiziqlar, qonunsiz tekis egri chiziqlarga grafik bilan

berilgan tekis egri chiziqlar kiradi. Ellips, parabola, giperbola, sikloida, episikloida, giposikloida, evolventa, aylana, Arximed spirali va boshqalar qonuniy tekis lekalolik egri chiziqdır.

**Ellips.** Tekislikdagi har bir nuqtasidan katta o'qidan joylashgan va fokslar ( $F_1$  va  $F_2$ ) deb ataladigan ikki doimiy nuqtasi gacha bo'lgan masofalami yig'indisi o'zgarmas kattalik bo'lgan va bu kattalik lekalo bilan chiziladigan tekis egri chiziqnı katta o'qini qiymatiga teng bo'lgan egri chiziq ellips deyiladi. Tekislik konus yoki silindring o'qini ma'lum burchak ostida kesib o'tsa, bu holda kesimda ellips hosil bo'ladi.  $F_1 F_2 = 2c$  masofa ellipsning fokslari orasidagi masofa. Ellips o'qlarini kesishgan nuqtasi O uning markazi deyiladi. A,V,S,D nuqtalar ellipsning o'qlar bilan kesishgan nuqtasi bo'ladi. Ellipsni A va V nuqtasini birlashtirgan to'g'ri chiziq uning katta o'qi S va D nuqtalarini birlashtirgan to'g'ri chiziq uning kichik o'qi deyiladi. Katta o'qning uzunligi  $AV=2a$ , kichik o'qning uzunligi  $SD=2b$ . Ellips fokslarini tekis egri chiziq nuqtalari bilan birlashtinuvechi chiziqlari uning vektor-radiuslari bo'ladi. Vektor radiuslar yig'indisi har doim ellipsning katta o'qini uzunligiga teng, ya'ni  $R_1 + R_2 = AV$  ga.

Ellipsning markazidan o'tuvchi va uni ikki nuqtasini birlashtirgan to'g'ri chiziq kesmasi ellipsning diametri deyiladi. Fokslar ellipsning kichik o'qidagi S va D nuqtalar uning katta o'qini yamiga teng masofada joylashadi. Demak, ellips o'qlarining o'lehami ma'lum



46-chizma

bo'lsa, u holda uning yoyini radiusini yordamida ellips foksni aniqlash mumkin.

$$R = \frac{AB}{2} = AO = \alpha. \quad (46\text{-chizma, a}).$$


F<sub>1</sub>, K<sub>1</sub>, F<sub>2</sub> vektor-radius

burchakni bissektrisasi ellips normali "h" bo'ladi. Ellipsga urinma t-normalga perpendikulyar joylashgan. (46-chizma, a). 46-chizma, b da ellipsni hosil bo'lishi ko'satilgan. Qog'ozga chizilgan to'g'ri chiziqda ellipsni F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> fokslarini belgilanadi. So'ngra ip olib, uning uchi halqa qilib bog'lanadi. Bunda ipning uzunligi halqalar bilan ellipsning katta o'qi AV ga teng bo'lishi kerak. Halqalar to'g'nochiga kiydiriladi va fokslarga mahkamlanadi. Qalamning ochilgan tomoni bilan ipni tarang tortib, ellips chiziladi.


**Ellipsni ikki o'qi bo'yicha vektorlar-radiuslar usul bilan chizish.** (47-chizma, a). O'zaro perpendikulyar to'g'ri chiziqqa ellipsning AV

$$\text{va } SD \text{ o'qlarini belgilaymiz. D nuqtani markaz qilib } R = \frac{AB}{2} \text{ radiusda}$$


ellipsning F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> fokslarini aniqlaymiz. F<sub>1</sub> foksdan o'ng tomonga uzunligi F<sub>1</sub> foksdan uzoqlashgan sari kattalashib boradigan 1,2,3 nuqtalami belgilaymiz. F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> fokslarni markaz qilib radiusi A1 kesmaga teng yoyni o'tkazamiz  $R_1 = A1$ . Ya'ni F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> nuqtalardan  $R_1 = V1$  radiusdan oldingi o'tkazilgan yoy bilan I,I<sub>1</sub>,I<sub>2</sub>,I<sub>3</sub> ellipsga tegishli nuqtalarda kesishadigan yoy o'tkazamiz. Huddi shuningdek A2 va V2 radius bilan yoy o'tkazib ellipsga tegishlik II,II<sub>1</sub>,II<sub>2</sub> nuqtalar va boshqa nuqtalami ham yuqorida bayon qilingan usul orqali aniqlab ulami lekalo yordamida ketma-ket tutashtirib ellipsni hosil qilamiz.



a)



b)



47-chizma

Ellipsning ikki o'qi bo'yicha yordamchi aylanalar yordamida chiziш. (47-chizma, b). Ellipsni kichik va katta o'qlarini oxirgi nuqtasidan o'tuvechi (ellips kichik va katta o'qlarini diametri qilib) va O markazdan yordamchi aylanalar chizamiz. So'ngira katta aylanani ixtiyoriy teng bo'laklarga bo'lamiz. Bizning misolda aylana o'nikki bo'lakka bo'lingan. Bo'lingan 1.....12 nuqtalar orqali kichik va katta aylana diametrlarini o'tkazamiz. Diametrlarning kichik aylana bilan kesishgan nuqtalarini belgilaymiz. Katta aylanani diametrini oxiridan frontal to'g'ri chiziq, kichik aylanani diametridan esa gorizontal to'g'ri chiziqlar o'tkazamiz va ulami kesishgan nuqtalarini I,II,III,IV..... lami belgilaymiz. Bu nuqtalar ellipsga tegishli bo'ladi. Aniqlangan nuqtalami ketma-ket tutashdirib ellips hosil qilamiz.

### **Ellips ni ikki o'qi bo'yicha tashqariga chizilgan to'g'ri to'rtburchak us ulida aniqlash.**



47-chizma b da ko'rsatilgan ellipsni kichik va katta o'qlarini ya'ni AV va SD uchlaridan to'g'ri burchakli to'rtburchakni tomonlarini o'tkazamiz. So'ngira ellipsning yarim o'qi AO ni teng bo'laklarga bo'lamiz (masalan to'rtta teng bo'lakka). To'g'ri to'rtburchakni tomonini yanni AK ni ham to'rtta bo'lakka bo'lamiz. Ellipsning kichik o'qini S va D nuqtalarini bo'laklarini bir nomlilarini bilan tutashtiramiz. Ellipsning kichik o'qidagi S nuqtani to'g'ri to'rt burchakni I nuqtasi bilan, D nuqtani esa AO to'g'ri chiziqni I nuqtasi bilan tutashtiramiz. Natijada S1 chiziq bilan D1 chiziq o'zaro kesishib ellipsga tegishli I nuqtani hosil qiladi. Huddi shu usul bilan 2-3 nuqtalami va ellipsni qolgan o'qlarini aniqlab ularni lekalo yordamida o'zaro tutashtirsa ellipsni aniqlagan bo'lamiz.

**Parabola.** To'g'ri doirali konusni yasovchilaridan biriga parallel tekislik kessa kesimda parabola hosil bo'ladi. Parabolaga tegishli ixtiyoriy nutadan uning foksigacha bo'lgan masofa va shu nuqtadan parabolaning direktrisasigacha bo'lgan masofa o'zaro teng ya'ni MF-MK ga. (48-chizma, a). F nuqta parabolaning foksi deyiladi, SD to'g'ri chiziq direktrisa, S nuqta uning uchi yoki koordinatlar boshi. AV to'g'ri chiziq parabolaning o'qi. Parabolaning foksi F dan uning direktrisasi SD gacha bo'lgan masofa parabola parametri deyiladi va P bilan belgilanadi. Parabolaning uchi S uning foksi F bilan direktrisasi orasida bir xil masofa bo'ladi. ya'ni FS-SA ga. Parabolaning istalgan nuqtasidan masalan: M nuqtani uning foksi F bilan tutashtiruvchi to'g'ri chiziq parabolaning vektor-radiusi deyiladi. Bunda MF-MK bo'ladi. Parabolaga urinma to'g'ri chiziq MN, IMK burchakni bissektrisasi orqali o'tadi.

### **Parabolani berilgan foksi F va direktasisi SD bo'yicha vektor-radius us ulida chizish. (48-chizma, b).**

Parabolani o'qi AV ni uni foksi F orqali SD direktrisasiga perpendikulyar vaziyatda o'tkazamiz. AF parametrlarini ikkiga bo'lib, parabolani uchi S ni aniqlaymiz. Parabolani o'qidan uchi S ni o'ng tomonida bir qancha ixtiyoriy nuqtalar 1,2,3..... lami aniqlaymiz va

bu nuqtalar orqali direktrisaga parallel yordamchi to'g'ri chiziqlar o'tkazamiz.



#### 48-chizma


Parabolaga tegishli nuqtalarni aniqlash uchun sirkul bilan A1, A2, A3 masofalarini o'lehab, F nuqtani markaz qilib o'tkazilgan to'g'ri chiziqlarga tegishlicha belgilarni qo'yamiz. Masalan: parabolaga tegishli III nuqtani aniqlash uchun uchinchi nuqtadan o'tuvchi yordamchi to'g'ri chiziqning yuqori va pastki tomonlariga belgi qo'yamiz. Shu usulda aniqlangan nuqtalarni lekalo yordamida silliq tutashtirsak, parabola tekisligi hosil bo'ladi.

**Parabolani berilgan uchi S, parabolaga tegishli nuqta M va AV o'qi bo'yicha yordamchi to'g'ri to'trburechak usuli yordamida chizish.**

(49-chizma, a). MVSN to'g'ri burechakli to'trburechak chiziladi va uni SN va MN tomonini ixtiyoriy lekin teng qiymatdagi kesmalarga bolinadi. Bolinagan nuqtalarni chizmada ko'satilganidek nqamlaymiz.

Parabolani S uchini to'g'ri to'rtburchakni NM tomoni raqamlarini yordamchi to'g'ri chiziqlar bilan birlashtiramiz. To'g'ri to'rtburchakning SN tomonini bo'lingan raqamlaridan AV ga parallel chiziqlar chizamiz. Bir xil raqamlik nuqtalarda kesishgan nuqtalar parabolaga tegishli bo'ladi. Parabolaning foksi va direktrisasini grafik usulda chizish mumkin. Buning uchun parabolada ixtiyoriy K nuqta tanlab olinadi. S uchidan chap tomonga parabolani K nuqtasidan to'g'ri to'rtburchakning SN tomonigacha bo'lgan masofa I ni qo'yamiz. A va K nuqtadan o'tuvchi AK to'g'ri chiziq kesmasi parabolaga urinma bo'ladi. AK urinma to'g'ri to'rtburchakni SN tomoni bilan kesishgan nuqtasi E dan AK ga perpendikulyar SE chiziqni o'tkazamiz.

K nuqtada parabolani o'qi SV ga parallel o'tkazilgan to'g'ri chiziq AK ga perpendikulyar o'tkazilgan FS chiziqini parabolaning direktrisasiiga tegishli bo'lган S nuqtada kesadi. S nuqtadan parabolaning o'qiga o'tkazilgan perpendikulyar direktasisi bo'ladi.



49-chizma


AK ga perpendikulyar SE chiziqni parabolani o'qi bilan kesishgan nuqtasi F parabola foksin aniqlaydi.

### Parabolanning bir qismini chizish

Parabola chizish uchun A va S nutada unga urinma bo'lgan berilgan AVS burchakni VA va VS tomonlarini bir xil sonlik teng bo'laklarga misol uchun besh bo'lakka bo'lamiz.(49-chizma b)

Nuqtalarning bo'linish tartib raqamini uchburchakning bir uchidan AV tomon bo'yicha oshib, (1,2,...,5) SV tomon bo'yicha kamayib (5,4,...,1) borish bilan belgilaymiz, bo'lingan nuqtalami bir nomli kesmalar bilan tegishlicha tutashtiramiz. Lekalo yordamida bu nuqtalarga o'tkazilgan urinma parabola bo'ladi. Berilgan burchak o'tkir yoki o'tmas bo'lishi mumkin.

**Giperbola.** (50-chizma). Agar tekislik xususiy holda konus o'qiga parallel vaziyatda kessa, kesimda giperbola hosil bo'ladi. Giperbolaning har bir nuqtasidan haqiqiy o'qida joylashgan ikki nuqtasiga qadar bo'lgan masofaning ayirmasi o'zgarmas miqdor va




50-chizma


giperbolaning uchlari orasidagi masofaga teng bo'ladi. Giperbola ikkita simmetrik tarmoqdan tashqan topgan bo'llib ikkita o'zano perpendikulyar simmetrik o'qlarga ega ya'ni  $A_1 \perp A_2 \perp VS$ .  $A_1 A_2$  to'g'ri chiziq kesmasi giperbolaning haqiqiy o'qi, VS to'g'ri chiziq kesmasi esa mavhum o'qi bo'ladi.  $A_1 A_2$  va VS o'qlami kesishgan nuqtasi O giperbolaning markazini aniqlaydi. F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> nuqtalari

giperbolaning fokslari,  $F_1$   $F_2$  kesma fokslar orasidagi masofa.  $MF_1$  va  $MF_2$  vektor-radiuslar,  $F_1 M F_2$  burchakning bissektrisasi giperbolaga M nuqtada urinma bo'ladi. (M-nuqta giperbolada ixtiyoriy olingan). Giperbolaning normali M nuqtada unga o'tkazilgan urinmaga perpendikulyar, giperbola markazi O nuqta orqali o'tuvchi mf va tk to'g'ri chiziqlar giperbolaning asimptotalarini deyiladi. Bu to'g'ri chiziqlar giperbola tarmoqlariga cheksizlikda urinishlari mumkin. Giperbolaning asimptotasini chizish uchun  $A_1$  va  $A_2$  nuqtalardan uning mavhum o'qiga parallel chizilgan chiziqlarni  $F_1$   $F_2$  kesmaning yarmisini radius qilib O markazdan o'tkazilgan aylana bilan kesishgan I,II,III,JV nuqtalarini belgilaymiz. Giperbolaning asimptotasini I; 0, III va II, 0, IV nuqtalardan o'tadi.

### Giperbolani berilgan uchi va foks masofasi $F_1$ , $F_2$ bilan vektor-radiuslar usulida chizish. (51-chizma).



52-chizma



51-chizma

O'qning berilgan qiymatini va fokslar masofasini O markazga simmetrik qo'yib, haqiqiy o'qni o'tkazamiz va giperbolani uchi hamda fokslar  $F_1$  va  $F_2$  lami holatini aniqlaymiz. Bir-biri orasidagi masofa asta-sekin ixtiyoriy kattalashib boruvchi 1,2,3 ..... nuqtalarni  $F_1$


fokslardan chap tomonga belgilaymiz.  $F_1$  va  $F_2$  fokslari markaz qilib radiusi giperbolani uchidan belgilangan nuqtalargacha bo'lgan masofaga teng qilib yoy chizamiz.  $F_1$  dan  $R_1 = A_1 3$  radiusda  $F_2$  dan  $R_2 = A_2 3$  radiusda o'tkazilgan yoyslar o'zaro kesishgan giperbolaga tegishli nuqtalarni aniqlanadi. Aniqlangan nuqtalarni ketma-ket lekalo yordamida silliq tutashtirib giperbola hosil qilamiz.

**Giperbola fokslari orasidagi masofa  $FF_1$  va uchlari orasidagi masofa  $AA_1$  berilgan. Berilganlar asosida giperbola va uning asimtotalarini chizilsin.** 52-chizmada ko'satilgan usul yordamida giperbolani asimptotalarini chizamiz. Ular mn va se to'g'ri chiziq bo'ladi. Giperbolaning mavxumi o'qida O nuqtadan boshlab yuqoriga 1,2,3..... pastga  $l_1$ ,  $2_1$ ,  $3_1$ ,..... o'zaro teng nuqtalarni belgilaymiz va ular orqali haqiqiy o'qqa parallel to'g'ri chiziqlar o'tkazamiz.(52-chizma). Bu to'g'ri chiziqlarning asimptotalar bilan keshigan  $a_1$ ,  $r_1$ ..... va  $a_1$ ,  $\eta_1$ .... nuqtalarini aniqlaymiz va ular orqali giperbolaning mavhum o'qiga parallel to'g'ri chiziqlar chizamiz. Bu to'g'ri chiziqlarga  $a_1$ ,  $r_1$ ..... va  $a_1$ ,  $\eta_1$ .... nuqtalardan boshlab berilgan

$$as = pq = a_1 s_1 = \frac{A_1}{2}$$

kesmalarni o'lchab qo'yamiz va bu kesmalarni

s.q..... va  $s_1$ ,  $q_1$ .... uchlari ni 1,2.... va  $l_1$ ,  $2_1$ .... nuqtalar bilan birlashtiramiz. Bunda hosil bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchaklarni gipotenuzalari  $ls$ ,  $2q$ .... va  $ls_1$ ,  $2q_1$ , .... bilan 1,2..... va  $l_1$ ,  $2_1$ .... nuqtalardan yarim aylanalar chizamiz. Bu yarim aylanalar  $la$ ,  $2r$ .... va  $l_1 a_1$ ,  $2_1 \eta$ .... to'g'ri chiziqlar bilan kesishib I, II, .... va  $I_1$ ,  $II_1$ .... nuqtalarni hosil qiladi. Bu aniqlangan nuqtalarni ketma-ket tegishlicha lekalo yordamida birlashtirib giperbolani hosil qilamiz.




53-chizma

**Sikloida.** Aylananing yo'naltiruvchi to'g'ri chiziq bo'ylab siring'almasdan bir marta to'liq yumalab chiqishida, aylanaga tegishli biror nuqta hosil qilgan tekis ravon egri chiziq sikloida deyiladi. (53-chizma).

Bunda  $S_1$  aylana sikloidani hosil qiluvchi,  $MN$  to'g'ri chiziq kesmasi yo'naltiriuvchi chiziq bo'ladi.  $EF$  to'g'ri chiziq sikloidaga  $K$  nuqtada urinma bo'ladi. Urinmani  $K$  nuqta va  $S_1$  aylana vertikal diametrini pastki nuqtasi orqali o'tgan to'g'ri chiziq  $GH$  sikloidaning normali deyiladi. Normal  $HG$  urinma  $EF$  ga perpendikulyar bo'ladi. (53-chizma).

**Sikloidaning berilgan aylana diametri bo'yicha chizish.** (54-chizma). Yo'naltiriuvchi to'g'ri chiziq  $\Delta A_{12}$  va utsnga urinma bo'lgan yasovchi aylanani  $R$  radiusda chizamiz.  $\Delta A_{120}$  kesmani va  $R$  radiusli aylanani ixtiyoriy teng bo'laklarga bo'lamiz misol uchun 12 ga.  $\Delta A_{120}$  kesmani bo'laklardan vertikal to'g'ri chiziqlarni O markazlardan  $\Delta A_{120}$  to'g'ri chiziqqa parallel chiziq bilan tegishlicha kesishguncha o'tkazamiz. Keshigan  $O_1, O_2, O_3, \dots, O_{12}$  nuqtalar sirpanmasdan



54-chizma

yumalayotgan markaz bo'ladi.

$R$  radiusli aylanani bo'laklaridan  $\Delta A_{120}$  to'g'ri chiziqqa parallel chiziqlar chizamiz. Bu chiziqlar  $O_1, O_2, O_3, \dots, O_{12}$  markazlardan o'tkazilgan aylananing tegishli yoylari bilan kesishib sikloidani nuqtalarini aniqlaydi.

Masalan:  $A_2$  nuqta  $O_2$  markazdan o'tkazilgan aylana yoyini yasovchi aylanadagi 2 nuqtadan o'tkazilgan yordachi to'g'ri chiziq bilan kesishish natijasida hosil bo'ladi. Bu nuqta sikloidaga tegishli nuqta bo'ladi. Huddi shu usulda sikloidaning qolgan nuqtalarini aniqlab, ulami lekalo bilan tutashtirib sikloidani aniqlaymiz. Sikloida yoyining uzunligi  $1:4d$  ga sikloida va  $\Delta A_{120}$  to'g'ri chiziq bilan


chegaralangan yuza  $\frac{3}{4}\pi d^2$  ga teng.

**Epitikloida.** Aylana qo'zg'almas ikkinchi aylananing ustida surilmasdan yuma lab siljisa u holda bu harakatlanuvchi aylananing, qo'zg'almas aylanadagi urinish nuqtasini shakli sikloidaga o'xshash tekis ravon egri chiziq eni sikloida hosil bo'ladi. Epitsikloida niyo'naltiruvchisi aylana yoyidan iborat bo'lgan sikloidaning xususiy holi deb qarash mumkin.

Bunda harakatlanuvchi aylana yasovchi, qo'zg'almas aylana yo'naltiruchi bo'ladi. Epitsikloida shakli hosil qiluvchi va yo'naltiruvchi aylanalar radiuslar R va r ning nisbatiga bog'liq. Agar r

R bo'lsa tekis egri chiziq, kordioida deyiladi. (55-chizma).  $\frac{r}{R} = m$

modul deb ataladi. Agar modul ratsional son bo'lsa egri chiziq yopiq bo'ladi, m = 1.




55-chizma

Epitsikloida chizish uchun O markazdan yo'naltiruvchi yoyni R radiusda hosil qiluvchi aylanani  $r$  radiusini unga urimma vaziyatda o'tkazamiz. (56-chizma). Yo'naltiruvchi yoyning uzunligini markaziy

burchagi  $\alpha = \frac{r}{R} \cdot 360^\circ$  orqali aniqlanadi. Hosil qiluvchi aylana va

yo'naltiruvchi yoyni bir xil sonli qiymati bo'lgan teng yoylarga bo'lamiz. 12 bo'lakka bo'lish ancha qulay bo'ladi. Qiymati jihatdan  $\alpha$  burchakni 12 ta teng burchakga bo'lamiz va radial to'g'ri chiziqlar o'tkazamiz. yo'naltiruvchi yoyni nuqtalarini aniqlaymiz. Markaziy yoy radikal o'tkazilgan to'g'ri chiziqlami  $O_1, O_2, \dots, O_{12}$  nuqtalar kesadi.




Bu nuqtalar yumalayotgan aylanalamni markazi bo'ladi. Yo'naltinivechi aylananing 1, 2, ..., 12 bo'laklaridan  $O_0$  markaz qilib yordamchi yoylar o'tkaziladi.  $A_1, A_2, \dots, A_{11}$  nuqtalar yordamchi yoylamni  $O_1, O_2, \dots, O_{11}$  markazlardan o'tkazilgan hosil qiluvchi aylana yoylari bilan kesishgan nuqtalaridir. Bu nuqtalar epitsikloidaga tegishli

nuqtalar bo'ladi, nuqtalami lekalo orqali silliq tutashtirib epitsikloidani hosil qilamiz..


**Gipotsikloida** –  $r$  radiusli aylanadagi biror nuqtanining  $R$  radiusli ( $R > r$ ) aylanalar ichida sirpanmasdan yumalab harakat qilish natijasida hosil bo'lgan tekis egri chiziq. Gipotsikloidani shakli ikki aylananing radiuslari munosabatiga bog'liq. Radius  $r$ ,  $O$  dan  $R$  gacha o'zgarishi mumkin. (57-chizma).  $R$  teng 0 bo'lsa yumalayotgan aylana nuqtaga aylanadi va aylana chizadi. Gipotsikloidani chizish eposikloidani chizishiga o'shash. (56-chizma).

**Evolventa.** To'g'ri chiziq qo'zg'almas aylana bo'yicha




57-chizma

surilmasdan yumalasa u holda bu to'g'ri chiziqning har bir nuqtasi ochiq va ravon aylana evolventasini chizadi. (58-chizma).



58-chizma



59-chizma

Silindrga o'ralgan ipni yozilganda (tortilganda) uning nuqtalari ham evolventa chizadi.  $R$  radiusli aylana evolventasini chizish uchun

aylanani bir qaneha teng bo'laklar bo'linadi. Masalan: 12 bo'lakka. Aylananing bo'lingan nuqtalarini bir tomoniga unga urinmalar o'tkaziladi. Oxirgi urinmaga aylananing uzunligi  $2\pi R$  ga teng bo'lgan evolventani qadami qo'yiladi va hosil bo'lgan to'g'ri chiziq kesmasi 12 teng bo'laklarga bo'linadi. Urinmalami birinchisiga bitta yoy uzunligi  $A_1$  o'lchab qo'yamiz, ikkinchisiga ikkita yoy uzunligi  $A_1+A_2$  ni o'lchab qo'yamiz va hokazo. Demak, o'ng ikkinchi urinmaga o'n ikkita yoy uzunligi qo'yamiz va  $A_1, A_2, A_3, \dots, A_{12}$  nuqtalami aniqlaymiz. Bu nuqtalami lekalo yordamida silliq birlashtirsak aylana evolventi hosil bo'ladi.

**Arximed spiralni.** O markaz atrofida aylana uchii radius-vektor bo'ylab, shu radius vektor yotgan tekislikda harakatlanuvchi nuqta tracktoriyasidan iborat bo'lgan tekis egri chiziq Arximed spiralni deyiladi. O nuqta polyus nuqta, harakatlanadigan chiziq (chiziqni bo'yib bo'ylab) polyar o'q deyiladi. Spiralni biror nuqtasidan O markazgacha bo'lgan masofa radius-vektor, polyar o'qni  $\alpha$  burchakga burgan burchak-polyar burchagi bo'ladi. Arximed spiralni chizish uchun oxirgi nuqtaning radius vektorini o'lchami va polyar burchak berilgan bo'lishi kerak. 59-chizmada Arximed spiralini chizish ko'satilgan. Bunda radius vektor  $R$  nuqtaning oxirgi holatida  $R \cdot OA_8$  ga, polyar burchak  $\alpha = 360^\circ$  ga, polyar o'q soat strelkasi bo'ylab aylanadi.  $R$  radiusli aylanani ixtiyoriy teng bo'laklarga bo'linadi (misol uchun sakkiz) va bo'laklardagi nuqtalardan polyar o'qlar o'tkaziladi. Radius-vektor  $OA_8$  ni ham  $R$  radiusli aylana necha bo'laklarga bo'lingan bo'lsa shuncha bo'laklarga bo'lamiz.  $OA_8$  radius-vektordagi bir nuqtadan O markazdan O1 radius-vektor bilan  $A_1$  nuqtada kesishguncha yoy chizamiz.  $A_1$  nuqta Arximed spiraliga tegishli bo'ladi. Huddi shuningdek,  $OA_8$  radius-vektordagi 2,3,4 ... 8 nuqtalardan O markazdan O2, O3, O4..... radius-vektorlar bilan kesishguncha yoylar o'tkazib  $A_2, A_3, \dots, A_8$  nuqtalami aniqlaymiz. Aniqlangan  $A_1, A_2, A_3, \dots, A_8$  nuqtalami o'zaro tutashtirib Arximed spiralini hosil qilamiz. Arximed spiralni texnologik jarayonlami avtomatlashtirishda qo'llaniladi, kulachoklarda, tokarlilik stanogini patronida va tikish mashinasida qo'llaniladi.

### **Takrorlash uchun savollar.**


- 1.Chizma chizish uchun qanday chiziqlar qo'llaniladi, ulami shakli va qalinligi qanday?
- 2.Chizma chizish uchun qanday formatlar qo'llaniladi?
- 3.Chizma chizish uchun standart bilan qanday masshtablar berilgan?
- 4.Chizma shriftlami o'lehami qanday aniqlanadi va shriftlarga standatrilar bilan qanday o'leham belgilangan?
- 5.Chizmaga o'leham qo'yishni qanday qoidalari bor?
- 6.O'leham qo'yishda qanday shartli belgi va yozuvlar qo'llanaladi?
- 7.Aylanalamisi  $3,6,12,7,9,4,8,5$  va  $10$  teng bo'laklarga qanday bo'llinadi?
- 8.Qiyalik nima va u qanday chiziladi?
- 9.Konuslik nima va u qanday chiziladi?
- 10.Qanday egri chiziq ellips deyiladi va uni qanday usul bilan chiziladi?
- 11.Qanday egri chiziq parabola deyiladi va u qanday usul bilan chiziladi?
- 12.Giperbolqa qanday egri chiziq va u qanday usul bilan chiziladi?.
- 13.Qanday egri chiziq sikloida, eposikloida va giposikloida deyiladi va ular qanday chiziladi?
- 14.Arhimed spirali qanday egri chiziq va u qanday chiziladi?
- 15.Aylananing evolventasi qanday egri chiziq va u qanday chiziq?

### **II bob. Chizmalarda tasvirlar.**

#### **2.1. Asosiy, qo'shimcha va mahalliy ko'rinishlar.**

Buyumilaming Chizmalardagi tasvirini to'g'ri burchak tasvirlash usuli bilan hosil qilinadi. Kubni olti qirrasini asosiy tasvir tekisliklari deb qabul qilinadi. Buyum hayolan kubning ichiga joylashtiriladi va kubni tomonlarini ichki yuzasiga tasvirlanadi. Tasvirlochchi numing yo'naliishi kuzatuvchidan kubning tomonlariga yo'nalgan bo'ladi. (60-chizma, a).


Kubning orqa yog'ini frontal tasvirlar tekisligi deb qabul qilinadi, qolgan boshqalari kubning qirralari atrofidan aylantirilib frontal tekislikni davomlari bilan joylashtiriladi.



#### 60-chizma


Bunda oltita tasvimi o'z ichiga olgan oltita chizma hosil bo'ladi, ya'n'i ikkita frontal, ikkita gorizontal va ikkita profil. Tasvirlami bunday joylashishi Yevropa (E) joylashuv usuli bo'ladi. Bu ko'rinishlami joylashishi 60-chizma b da ko'satilgan. AQSH,

Angliya, Gollandiya davlatlariida chizma bajarish "amerika" usulida qabul qilingan". Bu A (Amerika) harfi bilan belgilanadi. Tasvirlami bu tizinda bajarganda tasvir tekisliklari shaffoq deb tuchuniladi va kuzatuvchi bilan tasvirlanayogan buyum orasida joylashadi. Bunda tasvirlovchi to'g'ri chiziq kub ichida joylashgan buyumdan uning nuqtalari orqali o'tib kuzatuvchi tomon yo'nalgan bo'ladi. ular kub yoqlari bilan kesishib nuqtalarini tasvirini hosil qiladi. (61-chizma). Keyin kub yoqlari bir tekislikka keltiriladi.



61-chizma

Natijada, chapdan va o'ngdan, ustidan ko'rinishi bilan ostidan ko'rinish o'z joylarini almashtiradilar. Bosh ko'rinish bilan orqadan ko'rinish o'z o'rinalarini saqlab qoladi. (61-chizma). Chizma qanday tizimda bajarilganligi bilish uchun standartlar bo'yicha halqaro tashkilot ISO alohida belgini tavsiya etadi.




#### 62-chizma

Bu belgi 62-chizmada kesik konus tasviri ko'rinisha berilgan. Chizma qanday tizimda bajarilganligini bildiruvchi belgi asosiy yozuvni ustiga chizib qo'yiladi. Agar chizma yevropa tizimida bajarilgan bo'lsa, u holda tizim belgisi qo'yilmasa ham bo'ladi. Tasvimi murakkabligiga qarab O'zDSt: 2.305-97 ga muvofiq chizmalar ko'rinish, qirqim va kesimlarga ajratiladi.

**Ko'rinishi.** Bu buyum sirtini kuzatuvchiga ko'riniib turgan qismini tekislikdagi tasviri. Chizmalarda tasvirlar sonini kamayitirish uchun buyumning kuzatuvchiga ko'rinnmaydigan qismini shtrix chiziq bilan ko'rsatish mumkin. Chizmachilikda ko'rinishlar assoiy, qo'shimcha va mahalliy bo'ladilar.


**Asosiy ko'rinish.** Bu buyumning oltita asosiy tasvirlar tekisligiga tasvirlab olingen ko'rinishlari. Ulami quyidagi nomlari belgilangan: (60-chizma, b) oldindan ko'rinish, ustidan ko'rinish, chap tomonidan ko'rinish, o'ng tomonidan ko'rinish, ostidan ko'rinish va orqadan tomonidan ko'rinish. Buyumning tekislikdagi frontal tasviri bosh ko'rinish deyiladi. Bosh ko'rinishga buyumning shakli va o'lehamlar to'g'risida to'laroq tasavvur (tuchuncha) beradigan qilib tanlab olinadi. Agar asosiy ko'rinishlar tasvirlar bog'lanishida tasvirlangan bo'lsa u holda ulaming nomlari yozilmaydi. Chizma formatidan to'liq foydalanish uchun ko'rinishlami tasviriy bog'lanishsiz joylashtirish mumkin. (63-chizma). Bu hollarda ko'rinishni chizmada A ko'rinish yozuviga bilan belgilanadi. Buyumning

bu bilan bog'langan tasviriga kuzatuvchini nigohini ko'rsatuvchi strelka qo'yiladi va strelkaga ko'rinish belgilangan bosma lotin harfi yoziladi.





63-chizma



Strelka va undagi yozuv o'lchami 64-chizma da ko'rsatilganga muvofiq bajariladi. Asosiy ko'rinishlar tasviriy bog'lanish bilan chizilgan bo'lsa lekin ular boshqa tasvir bilan ajratilgan bo'lsalar u holda ko'rinish yozuv bilan belgilanadi. (65-chizma). Ko'rinishni yozuvining o'lchami o'lcham sonlar o'lchamidan katta bo'lishi kerak.



64-chizma





65-chizma



66-chizma

**Qo'shimcha ko'rinish.** Chizmada buyumning hamma konstruktiv qismlarini asosiy tekisliklarda tasvirlash imkoniyati bo'lmaydi. Bunday hollarda qo'shimcha tasvirlash kerak bo'lgan qismiga perpendikulyar yo'nalishda qarab (formatni) biror alohida joyda unig tasviri chiziladi. 66-chizma a da qiya qismi bor buyum ko'satilgan. Buyumning bu qismidagi silindrik teshik tasviri ustidan ko'rinishda va chap tomonidan ko'rinishda o'zgarib tasvirlangan. Buyumning o'zgannagan haqiqiy tasvirini hosil qilish uchun buyumni qiya qismini shu qiyaligiga parallel bo'lgan R tekisligiga tasvirlanadi (66-chizma, b) so'ngra bu tekislik asosiy chizmalar tekisligiga joylashtiriladi. Agar qo'shimcha ko'rinish asosiy ko'rinish bilan tasviri y bog'lanishda bajarilgan bo'ssa u holda unga hech qanday yozuv belgisiga yozilmaydi.




**67-chizma**

(66-chizma, a; 67-chizma, a). Aks holda qo'shimcha ko'rinish "A" ko'rinish tipidagi yozuv bilan belgilanadi.

Buyum qo'shimcha ko'rinishni tasviriy qarash yo'nalishini ko'rsatuvchi strelka va tegishli harf bilan belgilanadi. (67-chizma, b).

Chizmada qo'shimcha ko'rinishning burib tasvirlash mumkin. Lekin bu buyum uchun bosh tasvirda qabul qilingan holat saqlanishi kerak. Bunda "ko'rinish" degan yozuvning o'ng tomoniga burligan so'zi qo'shib, masalan, "A ko'rinish burligan" yozuv qo'yiladi yoki qo'shimcha ko'rinishning bildiruvchi harsdan oldin shartli grafik belgi O qo'yiladi. Zarur bo'lgan hollarda necha gradus burchakga burliganligi ko'rsatiladi. (67-chizma, v).

**Mahalliy ko'rinishlar.** Buyumning alohida chegaralangan joyini yuzasini tekislikga tasvirlash mahalliy ko'rinish deyiladi. Mahalliy ko'rinish berilgan ko'rinishlarda buyumning qandaydir qismini shaklini ko'rsatishni imkonи bo'limganda holda qo'llaniladi. Mahalliy ko'rinish chizma formatini bo'sh joyiga asosiy ko'rinish bilan tasviriy bog'lanmagan holda chiziladi. (B ko'rinish, 65-chizma, b) yoki asosiy tasvir bilan tasviriy bog'lanish saqlangan holda (68-chizma, A ko'rinish, 69-chizma). Mahalliy ko'rinish chizmada qo'shimcha ko'rinishga o'xshagan tegishli strelka va yozuv bilan belgilanadi. Bunday ko'rinish to'lqinsimon uzish chizig'i bilan chegaralanadi yoki chegaralammasligi mumkin.




68-chizma

69-chizma


Ko'rinishlarda yozuvlar tasvimi ustiga asosiy yozuvga parallel vaziyatda joylashtiriladi. Chizmalarda tasvirlar sonini kam bo'lishga va buyum elementlarini yaqqolligi ta'minlanishiga mumkin qadar harakat qilish kerak. Buning uchun qirqim, kesim va shartliklardan hamda soddalashtirishlardan foydalaniladi.

**2.2. Kesimlar** 70-chizmada richagning chizmasi berilgan. Bosh ko'rinish va ustidan ko'rinish richagni hamma elementlari haqida to'liq tuchuncha bermaydi. Uning uchinchi ko'rinishi ham richagni shakli haqida kerakli ma'lumotni bermaydi, chunki unda ko'p ko'rinnmaydigan, chizmani xiralashtiradigan kontur chiziqlar hosil bo'ladi, bunday buyumlar shaklini bilish uchun kesim qo'llaniladi.

**Kesim.** O'DSt 2.305-97 ga muvofiq buyumning bitta yoki bir necha tekislik bilan sikran kesib hosil qilingan tasvir. Kesuvchi tekislikda qanday tasvir hosil bo'lgan bo'sha, kesimda ham shu tasvir ko'rsatiladi. Kesim quyidagiicha chiziladi: buyumning kerakli joyidan hayolan tekislik bilan kesiladi. (71-chizma, a). Kesuvchi tekislikda hosil bo'lgan tasivr tasvir tekisligiga parallel joylashtiriladi. (71-chizma, b) formatning bo'sh joyiga qirqim chiziladi.(71-chizma, v). Kesimlar ko'rinishdan chetga chiqarib yoki ko'rinishning o'zida ko'rsatilgan bo'ladi.




70-chizma



71-chizma


**Tasvirdan chetga chiqarilgan kesimlar.** 72-chizma, a+b da tasvimi konturdan tashqariga olib chiqilgan qirqim ko'satilgan. Chetga chiqarib tasvirlangan kesim konturi asosiy tutash chiziq bilan chiziladi. Kesimi o'zgannaydigan uzun buyumning profil kesimida 72-chizma v, g dagidek ko'satilishi mumkin. Ya'n'i buyumning o'ttarog'i



72-chizma

to'lqinsimon ingichka chiziq bilan ikkiga ajratiladi va ulami orasiga kesim joylashtiriladi.


**Ko'rinishni o'zida tasvirlangan kesim.** Bu kesim kesuvchi tekislik o'tgan joyiga chiziladi. Ko'rinishni o'zida tasvirlangan kesim konturi ingichka tutash chiziq bilan chiziladi. (72-chizma, d, ye). Kesimni chetga chiqarib chizish afzalroq. Chunki chizmani ustida bajarilgan kesim ko'rinishni to'smaydi va Chizmani o'qishni qiyinlashtirmaydi. Kesim kesuvchi tekisliklami izini yo'naliishlariga nisbatan simmetrik (72-chizma, b,v, d) yoki nosimmetrik (72-chizma, a,g,e) bo'lishi mumkin. Umumiy holda kesuvchi tekislikni holati chizmada kesim chiziq'i bilan ko'rsatiladi. Buning uchun orasi oechilgan boshlanishiga va oxiriga kuzatuvchining nigohi ko'rsatilgan strelka qo'yilgan shtrix chiziq qo'llaniladi. Chiziq va strelkalar 73-chizmada ko'rsatilgan o'lehamlarga muvosiq bajariladi.




73-chizma

Bunda S chizmadagi kontur chiziqning qalinligi kesim chiziq'ining boshlanishi va oxiriga bir xil bosma harf qo'yiladi. Kesim chiziq'iga yoziladigan harflar berilgan chizmadagi o'leham sonlarini o'lehamiga qaraganda 1-2 marta katta bo'lishi kerak. Kesimlami harf bilan belgilash alfavit tartibida bo'lishi kerak va ular qaytarilishi mumkin emas. Kesim ustiga A-A yozuv yoziladi. Quyidagi hollarda kesim chiziq'i o'tkazilmaydi va kesimga harfli yozuv yozilmaydi:  
 a) agar kesim chizmaning ustida bajarilgan bo'lsa. (72-chizma, d).  
 b) agar tashqariga chiqarilgan kesimning simmetriya o'qi kesuvchi tekislikning izini davomi bo'lsin. (72-chizma, b).  
 v) agar kesim buyum tasvirini uzilgan joyida ko'rsatilgan bo'lsa. (72-chizma, v).

Buyumning tasvirini uzulgan joyida (72-chizma, g) yoki tasviming ustida (72-chizma, ye) bajarilgan nosimmetrik kesim uchun kesim chizig'i strelka bilan o'tkaziladi, lekin harf bilan belgilanmaydi. Bundan boshqa hamma hollarda simmetrik va nosimmetrik kesimlarga strelka qo'yilgan kesim chizig'i va harfli belgi qo'yilishi zarur. Agar kesuvechi tekislik tselindrik teshik yoki chuqurehani chegaralovchi aylanish sirtining o'qi orqali o'tsa u holda teshik yoki chuqurehani konturi to'la ko'rsatiladi. (74-chizma).




74-chizma




75-chizma

Kesimni chizish va joylashtirish bo'yicha strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalishga to'g'ri kelish kerak. Kesimni formatni xohlagan joyiga chizish va uni chizmani o'qish uchun qulay bo'lgan burchakga burish




76-chizma




mumkin. Bunda kesimni bildiruvchi yozuvdan kegin O shartli grafik belgi qo'yiladi. (75-chizma). Bitta buyumga tegishli bo'lgan bir necha

bir xildagi kesimlar uchun kesim chizig'i bir xil harf bilan belgilanadi va bitta kesim chizib ko'rsatiladi. (76-chizma). Agar kesuvchi tekislik har xil burchak ostida yo'nalgan bolsa, unda burulish belgisi O qo'yilmaydi. (77-chizma).




77-chizma



78-chizma

Kesuvchi tekislikni shunday tanlanishi kerakki bunda normal (odatdagidek) ko'ndalang kesim hosil bo'lishi kerak. Shuning uchun murakkab shakldagi buyumning kesimni ikkita kesim bilan tutashtiriladi. (78-chizma). Kesuvchi tekislik sifatida tekislikga yoyilgan silindrik sirtni qabul qilish mumkin. (79-chizma). Kesimda kesim natijasida aniqlangan teshik, chuqurcha, tirqish va boshqa buyumning konstruktiv elementlarini ko'rsatish mumkin.




chizmada bitta yoki bir necha tekislik bilan fikran kesib ko'rsatilgan

### 2.3. Qirqimlar.

Agar buyumning ichki shakli murakkab bo'lsa, uni ko'rinishlarida shtrix chiziq bilan ko'rsatiladi. Bunda chizma yaqqolligini yo'qotadi. Buning uchun buyumning ichki kuzatuvchiga ko'rinnmaydigan sirtlarini tekislikda tasvirlash uchun qirqim qo'llaniladi. Buyumni ichki ko'rinishini

tasvir qirqim deyiladi. Bunda buyumning kuzatuvchi bilan kesuvchi tekislikkacha bo'lgan qismi xayolan olib tashlanadi. Qirqim shartli tasvir bo'lib unda buyumning tekislik bilan kesilgan joyi (kesimi) va tekislik orqasidagi kuzatuvchiga ko'rinaradigan qismi ko'rsatiladi. 80-chizmada kesim bilan qirqimni farqi ko'rsatilgan.



**80-chizma**

Qirqimni bir qancha alomatlari bilan xillarga ajratish qabul qilingan:


1. Kesuvchi tekislik soniga qarab oddiy va murakkab qirqimlarga bo'lindi.
2. Kesuvchi tekislikni gorizontal tasvir tekisligiga nisbatdan holatiga qarab frontal, gorizontal, profil va qiya qirqimlar bo'ladi.
3. Kesuvchi tekislikni buyumning bosh o'lchamlariga (gabarit) nisbatan joylashishiga qarab bo'ylama va ko'ndalang kesilgan qirqimlar bo'ladi.
4. Qirqim mukammal bajarilishiga qarab to'liq va mahalliy bo'ladi.

Qirqimlar O'zDSt: 2.305-97 ga muvofiq bajariladi.

**Oddiy qirqimlar.** Bitta tekislik yordamida bajarilgan qirqim oddiy qirqimi bo'ladi. Oddiy qirqim frontal, gorizontal, profil, ko'ndalang, bo'ylama, qiya va mahalliy qirqimlarga bo'lindi.


**Frontal qirqim.** - Frontal qirqim frontal kesuvchi tekislik bilan hosil qilinadi. Agar kesuvchi tekislik frontal tasvir tekisligiga

parallel bolsa, hosil bo'lgan qirqim frontal qirqim deyiladi. (81-chizma, A-A qirqim). Agar kesuvchi tekislik profil tasvir tekisligiga parallel bolsa, u holda qirqim profil qirqim bo'ladi. (81-chizma, B-B qirqim)



**81-chizma**

**Gorizontal qirqim.** - Gorizontal qirqim gorizontal kesuvchi tekislik bilan hosil qilinadi. (82-chizma).



**82-chizma**


Frontal, gorizontal, profil qirqimlar odatda ko'rinishi bilan birga joylashtiriladi: tegishlicha oldidan va orqadan, chapdan va o'ngdan, ustidan va ostidan. Bunda buyumning xayolan kesish faqat berilgan qirqimga tegishlik bo'ladi va u boshqa tasvirlarga hech qanday o'zgarish kiritmaydi. 81-chizmada bosh ko'rinishda hamda chapdan ko'rinishda bajarilgan qirqim ustidan ko'rinishga ta'sir qilmaydi.

**Bo'ylama qirqim.** - Bo'ylama qirqim hosil qilish uchun kesuvchi tekislik buyum uzunligi yoki balandligi bo'yicha yo'nalgan bo'lishi kerak.


**Ko'ndalang qirqim.** - Agar kesuvchi tekislik buyumni uzunligi yoki blandligiga perpendikulyar yo'nalgan bo'lsa, bunday qirqim ko'ndalang qirqim deyiladi.

**Qiya qirqim.** - Buyumning gorizontal tasvir tekisligiga nisbatan og'ma vaziyatdagi tekislik bilan kesishda hosil bo'lgan qirqim qiya qirqim deyiladi. (83-chizma). Bu qirqimni qirqim chizig'ida ko'rsatilgan strelka yo'nalishi bo'yicha chiziladi va formatda joylashtiriladi. (84-chizma). Qiya qirqimni formatni istalgan joyiga joylashtirish mumkin. (84-chizma, a), shu bilan birga uni burish

mumkin va qirqim yozuv yoniga O shartli grafik belgi qo'yiladi. (84-chizma,b).




83-chizma




84-chizma

**Mahalliy qirqim.** – Buyumning biror bir kichik chegaralangan qismini ichki sirtini shaklini aniqlash uchun berilgan qirqim mahalliy qirqim deyiladi. (85-chizma). Mahalliy qirqim to'lqinsimon tutash chiziq bilan chegaralanishi kerak. Bu chiziq tasvimi biror chizig'i bilan (o'q va boshqa chiziqlar) qo'shilib qolmasligi zarur.



85-chizma

**Murakkab qirqim.** – Agar qirqim hosil qilishda ikkita va undan ortiq tekisliklidan soydalanilsa qirqim murakkab bo’ladi.



#### 86-chizma

Murakkab qirqim pog'onaliq va siniq qirqimlarga bo'lindi.

**Pog'onali qirqim.** Pog'onali qirqimda qirqimni buyumlami bir nechta parallel kesuvchi tekisliklar bilan kesib hosil qilinadi.



86-chizmada pog'onalik qirqimga misol keltirilgan. Bunda qirqim  $P_1$ ,  $P_2$ ,  $P_3$  o'zaro parallel tekisliklar bilan bajarilgan. Har bir tekislik o'zini o'tkan joyini ichki sirtini shaklini ko'rsatadi. Uchta tekislik bilan hosil qilingan kesim bitta chizma tekisligiga joylashtiriladi. Bunda kesimlar orasida chegara ko'rsatilmaydi.

**Siniq qirqim.** – Siniq qirqim buyumni o'zaro kesishuvchi tekislik bilan kesishganda hosil bo'ladi. (87-chizma). Bunday qirqimni chizmada tasvirlash uchun tekisliklar bir tekislikka joylashguncha shartli ravishda buriladi. Bunda burish, yo'nalishi qarashi yo'nalishiga mos bo'lmasligi mumkin. Agar burilgan tekisliklar asosiy tasvirlar tekisligidan biriga parallel bo'lib qolsa, siniq qirqim o'sha tekislikdagi tegishli ko'rinish o'mida tasvirlanadi. (88-chizma). Kesuvchi tekislik aylanayotganda buyumning tekislik orqasida elementni qo'zg'atmaydi: ulami tegishli tasvir tekisligiga qanday tasvirlansalar shu holda tasvirlanadi. (89-chizma). Buyumning kesuvchi tekislik orqasida B turtib chiqqan element burilishida qatnashmaydi.


**Ko'rinishning bir qismini qirqimning bir qismi bilan birga tasvirlanishi.** Tasvirlami sonini kamaytirish uchun ko'rinishni bir qismi bilan qirqimni tegishlik qismini birga tasvirlash mumkin. Bunday birlashtirish buyumning eng kam tasvirida uning ichki va tashqi shaklidan mukammal ma'lumotga ega bo'llishga imkon beradi. O'zDSt: 2.305-97 , standarti quyidagi qirqimni bir qismi bilan ko'rinish bir qismini birga tasvirlanishiga imkon beradi.

1. Agar ko'rinish va qirqim simmetrik buyumning bir qismi bo'lsa, u holda yarim ko'rinish bilan yarim qirqim birga tasvirlanadi.
2. Ko'rinish bilan qirqimni chegarasi tutash ingichka to'lqin chiziq bo'ladi.
3. Ko'rinish bir qismi bilan qirqimni bir qismi ingichka shtrixpunktir chiziq bilan chegaralangan bo'lsa va simmetrik tekisligi izi bilan to'g'ri kelsa, bunda simmetriya tekislik buyumning hammasini simmetrik o'qi bo'lmaydi. Ya'ni buyumning tarkibidagi aylanish sirtini o'qi bo'ladi. Yuqorida uchta holni ko'rib chiqamiz.


1. Yarim ko'rinish bilan yarim qirqim birlashtirilganda ulardan har bir simmetrik shakl bo'lib, ulami bo'luvchi chiziq simmetriya o'qi bo'ladi.



87-chizma




88-chizma




89-chizma

Qirqim bu hollarda buyumning simmetriya o'qidan o'ng tomonda (90-chizma) yoki past tomonda (91-chizma) joylashadi.

2.Qirqimning bir qismi birlashtirilganda simmetriya o'qiga




**90-chizma**



**91-chizma**

ulaming qandaydir chizig'i tasviri to'g'ri kelsa, ko'rinish qirqimdan tutash to'lqinsimon chiziq bilan ajratiladi. bunda qirraning tasviri saqlanadi. 92-chizmada ichki qirasi bo'lgan simmetrik buyumning ko'rinishi bilan qirqim birga tasvirlanganda to'lqinsimon chiziqni qanday o'tkazish ko'satilgan. (92-chizma, a). 92-chizma, b da tashqi qirasi. 92-chizma, v da ichki va tashqi qirrasi bo'lgan buyumning ko'rinishi bilan qirqimni birga tasvirlanganda to'lqinsimon chiziqni qanday o'tishi ko'satilgan.(93- chizma). Nos immetrik buyumni tasvirlaganda ko'rinishning bir qismi qirqimning bir qismidan hamma vaqt to'lqin chiziq bilan ajratiladi. (94-chizma).








93-chizma


3. Kesuvchi tekisilikning izi buyumning simmetriya o'qidan o'tmasdan uning faqat bir qismining simmetriya o'qidan o'tgan holida, qirqim va ko'rinishni shtrixpunktir chiziq bilan ajratish 95-chizmadagi buyumning chap tomonidan ko'rinishida ko'satilgan.

**Qirqimni belgilash.** Oddiy qirqim hamma hollarda buyumning simmetrik tekisligi to'g'ri kelmagan tekislik bilan bajarilganda va murakkab qirqimda kesuvchi tekislikning holati chizmada kesim chizig'i bilan ko'satiladi.


Oddiy qirqimda faqat orasi ochiq chiziqning boshlanishi va oxirgi shtrixlari ko'satiladi. (81,82,83- va boshqa chizmalarga qarang). Murakkab qirqimda shtrixlar kesim chizig'ini bukilgan joyidan ham o'tkaziladi. Bu bilan hamma kesuvchi tekisliklar chegarasi ko'satiladi. (86,87-chizmalarga qarang).



94-chizma




A-A




95-chizma

Boshlang'ich va oxirgi shtrixlar tegishli tasvirlar konturini hamda chizimani, qandaydir boshqa chiziqlami kesmasligi kerak. Chizmada bir qancha murakkab qirqimlarga kesim chizig'i ko'rsatilgan bo'lsa, u holda ulaming bir biridan ajratish uchun kesim chizig'ining bukilgan joyiga ham harf qo'yiladi. (96-chizma).




96-chizma




97-chizma

Hamma hollanda qirqimni belgilovchi harflar kesim chizig'ini og'maligidan qat'iy nazar asosiy yozuvvg parallel yoziladi. Qirqimni belgilovchi harf kesim chizig'i va strelka hosil qilgan burchakni tashqarisiga yoziladi. Agar kesuvchi tekislik buyumning simmetrik tekisligiga to'lliq to'g'ri kelsa tegishli tasvirlarda bitta qog'ozda joylashgan bo'lmasa, tasviriy bog'langan va boshqa tasvirlar bilan ajratilmagan bo'lsa, unda kesuvchi tekislikni holati ko'rsatilmaydi va qirqim yozuv bilan belgilanmaydi. (90,91-chizma). Bitta tekislik bilan ikkita qirqim bajarlinda kuzatuvchining yo'naliшини ko'rsatuvchi strelka bitta qirqim chizig'iga qo'yiladi (97-chizma) va qirqim boshqa-boshqa harflar bilan belgilanadi.


**Kesimni shtrixlash.** Qirqimga kiruvchi yoki ahamiyatga ega bo'lgan kesim buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini grafik ko'rsatishga berishi uchun shtrix chiziqlar bilan ajratiladi. Materiallar kesimda shartli grafik belgilash va ulami Chizmada belgilangan qoidalar O'zDSt: 2.306-68 bilan belgilanadi. Rangli, qora metall va ulaming qotishmalari kesimda ingichka o'zaro parallel to'g'ri chiziqlar bilan belgilanadi. Shtrix to'g'ri chiziqlami qalinligi  $\frac{S}{3}$  dan  $\frac{S}{2}$  gacha bo'lib, chizmaning konturilariga  $45^{\circ}$  burchak ostida chiziladi. (98-chizma, a).




*a*



98-chizma




*a*



99-chizma


Agar shtrix chiziq bunda kontur chizig'ini yo'nalishiga to'g'ri kelib qolsa u holda shtrix chiziqning og'ish burchagi  $30^\circ$  yoki  $60^\circ$  burchak ostida bo'ladi. (98-chizma, b). Shtrix chiziq'i chap yoki o'ng tomonga og'ma ravishda chiziladi. Shtrix buyumning hamma kesimida yoki qirqimida bir tomonga yo'nalgan bo'llishi kerak. Shtrix chiziqlar orasidagi masofa berilgan buyumning hamma kesimlari uchun bir xil bo'llishi kerak. Masofani shtrixlanadigan yuzani katta kichikligiga

qarab 1mm dan 10mm gacha olish mumkin. Katta yuzadagi kesimlarda faqat kontur chizig'i yonida tekis engsiz (tor) tasvir ko'rinishida bajariladi. (99-chizma, a). Tor va uzun kesimli yuzalarda agar ulami eni chizmada 2mm dan 4mm gacha bo'lsa teshikni chap va o'ng tomonida qolgan qismi katta bo'lmasan qismi bilan bir qancha joyda shtrixlanadi. (99-chizma, b). Buyumning sirtidagi qoving'alariga (mustaxkamlit qirrasi) bo'ylama qirqim beriladi, lekin bunday hollarda qirqligan joy shtrixlanmaydi. (100-chizma).



**Qiya kesim va qirqim.** Buyum chizmalarini chizishda uning ichki shakllarini aniqlash uchun uning qiya kesim va qirqimlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Bunda kesuvchi tekisliklar tasvir tekisliklarining hech qaysisiga parallel bo'lmaydi. Lekin ulaming biriga perpendikulyar bo'lishi mumkin. Buyumning tasvir tekisliklariga nisbatan qiya vaziyatda tekislik bilan kesganda qiya kesim va qirqim hosil bo'ladi. Buyumning tekislik kesib o'tgan joyini o'zi chizmada tasvirlansa qiya kesimi, kesim bilan birga kesimni orqa tomonidagi qismlari ham qoshilib tasvirlansa qiya qirqim hosil bo'ladi. Bunda kesuvchi tekislikda hosil bo'lgan kesim tasvirlari tekisligiga o'zgarib tasvirlanadi. Bunday kesimning haqiqiy kattaligini


chizishda chizmalami o'zgartirish usulidan foydalaniladi. 101-chizmada A-A ko'rinish qiya kesimiga V-V ko'rinish qiya qirqimga misol bo'ladi. Qiya kesim yuzasi o'zining haqiqiy kattaligida tasvirlanadi va uni chizish uchun A-A tekislik kesib o'tgan detallni frontal ko'rinishi  $l_1$ ,  $2_1$ ,  $3_1$ ,  $4_1$  nuqtalarini belgilaymiz. Bu nuqtalar kesuvchi tekislikni buyumni tashkil qilgan geometrik elementlar bilan kesishgan nuqtasi. Bu nuqtalami ustidan va yonidan ko'rinishlarini aniqlab qiya kesim tasvirini hosil qilamiz. Qiya kesimni haqiqiy kattaligini aniqlash uchun  $l_2$  .....  $4_2$  nuqtalaridan tekislik izi A-A ga perpendikulyar yordamchi chiziqlar o'tkazamiz. A-A ga parallel vaziyatda o'q chizig'i I ni o'tkazamiz va unda 1,2,3,4 nuqtalami o'mini belgilaymiz. Buning uchun frontal tasvirda  $2_2$  nuqtadan A-A kesim tasviriga perpendikulyar chiziq chizamiz va bu chizilgan chiziq i o'qi bilan kesishib 1 nuqtani hosil qiladi. Bu nuqtani ikki tomoniga gorizontal tasvirdan 1-1 masofani o'lchab qo'yib 1,1,1 nuqtalami aniqlaymiz va ulami o'zaro tutashtirib 111 chiziqnini hosil qilamiz. Natijada qiya kesimiga tegishli bo'lgan chiziqnini aniqlaymiz. Huddi shu usul bilan qiya kesimning qolgan 2,3,4 nuqtalarini ham aniqlab, ulami tutashtirib, berilgan buyumning A-A tekislik bilan kesilganda qiya kesmini hosil qilamiz (101-chizma,a). V-V qirqimdag'i kesim yuzasi ham A-A ga o'hshab aniqlanadi. Bu kesimni qiya qirqimga aylantirish uchun V-V tekislik orasidagi buyum qismalarini ko'rinaligan kontur chiziqlari kesim yuzasini haqiqiy kattalikka qo'shib chiqiladi. Buning uchun V-V tekisligiga nisbatan perpendikulyar vaziyatda qaraganda buyum konturining tashqi nuqtalari  $A_2$ ,  $V_2$ ,  $D_2$ ,  $E_2$  va ichki kontur nuqtalari  $F_2$ ,  $G_2$  ko'rinaladi. Shuning uchun bu nuqtalardan V-V ga perpendikulyar yordamchi chiziqlar o'tkazamiz va bu chiziqlarga buyumning yon ko'rinishidan mos holda kerakli nuqtalar olib o'tiladi. Natijada qiya qirqimga tegishli nuqtalar hosil bo'ladi. Bu nuqtalami o'zaro tutashtirib V-V tekislik bilan kesilganda hosil bo'lgan qirqimni aniqlaymiz.(101-chizma,b).



#### 2.4. Tekis qirqim va o'tish chizig'i.

Tekis qirqim - texnikada tafbiq qilinadigan ayrim buyumlaming ba'zi qismi ishlataladigan joyini talabiga binoan qirqlig'an bo'ladi. Tekis qirqim yuzasi shtrixlanmaydi. Aylanash sirtlarini aylanish o'qiga parallel tekislik bilan kesishishidan tekis

qirqim hosil bo'ladi. Ba'zi mashinalmi detallari masalan: shatun, krivoship, podshibnikning qopqog'i, qopqoqlar va boshqalar tekis qirqimga ega. Chizmada tekis qirqim nuqtalar orqali aniqlanadi va lekalo yordamida nuqtalami tutashtiriladi. Tekis qirqimni chizishda buyumning shaklini taxlil qilishdan boshlanadi, ya'ni buyum qanday oddiy geometrik shakklardan tashkil qilinganligi aniqlanadi. So'ngra tekis qirqimga tegishli nuqtalami ketma-ket aniqlanadi, bunda chiziqni bir qismi hosil bo'ladi. Bunda aylanish sirtini o'qiga perpendikulyar bo'lgan kesuvchi yordamchi tekislikdan foydalaniladi. 102-chizmada shatunning kallagi misolida tekis qirqimni aniqlashi ko'rsatilgan. Kallakning tashqi shakli sferik, silindrik, tor, konus sirtidan hamda R va Q tekisliklardan tashkil topgan.




102-chizma

Bunda har bir sirt uzun, tekis qirqim kesimiga ega va bir qism ikkinchi qisimga aylanaga tegishli bo'lgan nuqtadan o'tadi. Bu aylanada sirtlar bir-biriga urinma bo'ladilar. Tekis qirqimning profil tasviri tekisligini  $R_w$  va  $Q_w$  izlari bilan ustma-ust joylashadi. Frontal tasvirga tekis qirqim o'zgamasdan bitta chiziqqa tasvirlanadi. Chunki R va Q tekisliklar sirt o'qiga nisbatan simmetrik joylashgan. Buyumni tashkil qilgan aylanish sirtlarini tegishlichcha qismalarini  $a'$ ,  $b'$ ,  $c'$  va  $d'$  tutash nuqtalami bosh ko'rinishda ocherk chizig'ida aniqlaymiz. Sfera aylanish sirtini R va Q tekisliklar  $R_1$  radiusli aylana bilan kesadi.  $R_1$  radius profil tasvirdan aniqlanadi. 1' nuqtadan aylana yoyi 1'2' kesma

o'tadi. Bu kesma silindr sirtining tekis qirqimini tasviri bo'ldi. Tasvimi 2'3'4' qismi tor sirtining tekis qirqimi, 4'6' - konus sirtini tekis qirqimini tasviri. 3' nuqtani aniqlash uchun  $R_2$  radiuslik aylanananing profil tasvirini 3" dan aniqlaymiz. 4' nuqtani ham huddi shunday aniqlanadi. 5" nuqta profil tasvir yordamida qo'shimcha chiziqlarsiz topiladi. Giperbolaning uchi 6' nuqtani, uning profil tasviri yordamida aniqlanadi. Bunda giperbolaning uchi yotgan aylanadan foydalilanadi (chiziq strelka bilan ko'rsatilgan). 7' va 8' oraliq nuqtalami aylana sirtini aylana sirti bo'yicha kesuvchi yordamchi tegishligha tekisliklar yordamida aniqlanadi. Aniqlangan nuqtalami ketma-ket lekalo yordamida birlashtirib berilgan buyumni R va Q tekis bilan kesimda hosil bo'lgan tekis qirqimni aniqlaymiz.

**O'tish chizig'i.** Mashina va apparatlarda qo'llaniladigan ko'p buyumlar shakli sirtlami kesishishi natijasida hosil bo'ldi. Chizmada ulaming o'zaro kesishish chizig'i asosiy tutash chiziq bilan tasvirlanadi. (103-chizma, a).




103-chizma

Quyish, shtampovka (urib), presslash bilan tayyorlangan buyumlarda, keskin bilinadigan kesishish chizig'i yo'q, sirtlar biridan ikkinchisiga silliq o'tadi. Bir sirdan ikkinchi sirtga silliq o'tishi, tutash sirt bilan bajariladi. (103-chizma, b). O'zDSI: 2.303-97 ga muvofiq chizmada bir sirtni ikkinchi sirtga silliq o'tishi ingichka tutash chiziq bilan ko'rsatiladi. Bunda ingichka tutash chiziq buyumning kontur

chizig'iga olib borilmaydi (chizilmaydi). Sirtlarning o'zaro kesim chizig'ini kesuvchi yordamchi tekisliklar, kesuvchi sfera usullarida yoki imkonni boricha birga qo'llab aniqlanadi. Sirtlami kesishgan chizig'ini aniqlash uchun qanday usulni qo'llash kerakligini bilish uchun buyum qanday sirtlar yig'indisidan tashkil topkanligi aniqlash kerak. Sirtlami kesishish chizig'ini tayanch nuqtalarini aniqlashdan boshlanadi. Bu nuqtalarni aniqlash uchun hech qanday usul qo'llanilmaydi. Sirtlami tegishlichcha gorizontal, frontal tasvirlarini o'zaro kesishgan nuqtalari tayanch nuqtalar bo'ladi. Tayanch nuqtalari har bir tasvirda ko'rindigan va ko'rinnmaydigan egri chiziqning chetki nuqtasi sirtlami kesishgan chizig'i aniqlash uchun misollar ko'rib chiqamiz.

104-chizmada shakli sferik, konus va silindr sirtlardan tashkil topgan podshibnik qopqog'i ko'rsatilgan.




104-chizma

Chizmada sferik sirtni uchta konus ko'tarilish sirti (bobishka) va teshik silindr sirtni yarim silindr bilan kesish ko'rsatilgan. Sirtlami kesish chizig'ini aniqlashda yordamchi kesuvchi tekislik usulidan foydalilanildi. Yordamchi kesuvchi tekisliklar o'tkazilganda ular berilgan sirtlami to'g'ri chiziq yoki aylan bo'yicha kesishishi kerak. Markaziy konus ko'tarilish sirti sfera sirti bilan aylana bo'yicha kesishadi. Uning tasvir qo'shimcha usulsiz aniqlanadi. Bu aylana bosh

ko'inishida va chap tomonidan ko'inishda to'g'ri chiziq kesmasi, ustidan ko'inishida aylana ko'inishda tasvirlanadi. Bosh ko'inishda tayanch nuqtalar 1' va 2' orasidagi masofa shu aylananing diametri bilan aniqlanadi. Chap va o'ng tomonda konus ko'tarilish sirtlarini sfera sirti bilan kesishgan chizig'ini aniqlash uchun gorizontal tasvir tekisligiga parallel bo'lган yordamchi tekisliklardan foydlanamiz. Avval bosh ko'inishda tayanch nuqtalar 3' va 4' belgilaymiz. Bu nuqtalami qo'shimcha usul qo'llamasdan aniqlaymiz. Bu sirt yasovchilar kesishgan nuqta bo'ladi. So'ngra tasvirlami bog'lovchi chiziq yordamida ustidan ko'inishda 3,4 chap tomondan ko'inishda 3'',4'' nuqtalar aniqlanadi. Egri chiziqning ko'rinar ko'rinmas qismini ajratadigan 5' nuqtani chap tomonida ko'inishida konusni o'qi orqali o'tuvchi profil tekislik yordamida topiladi. Tekislik konus sirtini yasovchilar orqalik kesadi. Bu chap tomonidagi ko'inishida ocherk chizig'i bilan ko'satilgan. Sfera sirtini R radiusli aylana bo'yicha kesadi. Chap tomonidan ko'inishida ulami kesishgan chizig'ida 5'' nuqtani belgilaymiz va tasvirlami bog'lovchi chiziq yordamida bosh ko'inishda 5'' ustidan ko'inishda 5 nuqtalami tasvirini aniqlaymiz. Shu usul yordamida 5 nuqtaga simmetrik bo'lgan 6 nuqtani tasvirini bosh ko'inishda topamiz. Oraliq nuqtalarini gorizontal tasvir tekisligi parallel bo'lgan Q tekisligi yordamida aniqlaymiz. (7,8, 7' = 8' ga 7'' nuqtalariga qarang). O'rta silindrni yarim silindr bilan kesishgan chizig'ini tasviri ustidan ko'inishida aylana tasviri bilan bosh ko'inishda yarim aylananing bir qismi bo'lgan yoy bilan ustma-ust joylashadi. Bu chiziqni profil tasvirinii qismi uzun emas. Shuning uchun bu chiziqni profil tasvirini aniqlash uchun, shu tasvimi yuqori va pastki nuqtalarini aniqlash yetarlidir. Eng yuqori nuqtasi 9'' silindrлами hosil qiluvchi ocherklami kesishgan nuqta, eng pastki nuqta. 10'' frontal tasvirdagi 10' nuqta bilan tasvirlari bog'lovchi chiziq yordamida aniqlanadi. Frontal tasvirda yarim silindr bilan o'ng teshik kesishgan chiziqqa tegishlik ikki nuqtaning gorizontal va frontal tasviri ma'lum, bular 11,11',12,12' nuqtalar. Kesishgan chiziqni profil tasvirini aniqlash uchun eng yuqori 11'' va eng pastki 12'' nuqtalar, ulami frontal va gorizontal tasvirlari

orqali aniqlaymiz. Har qanday oraliq nuqtaning profil tasiri yuqorida bayon qilingandek aniqlanadi. Ajralmaydigan podshipnik chizmasida (105-chizma) sirtlamni o'tish chizig'ini yordamchi kesuvechi sfera usulini, yordamchi kesuvechi tekislik usuli bilan birga aniqlash ko'rsatilgan.




105-chizma

Aylanish sirtlarining aylanish o'qlari o'zaro kesishsa va kesish nuqtasini ikki tasviri tasvir o'qiga perpendikulyar bo'lgan bitta bog'lovchi chiziqdagi yotsa, u holda yordamchi kesuvechi sfera usulini qo'llash mumkin. Kesuvechi sfera usulida aylanish sirtalrini o'qlari tasvir tekisliklaridan biriga parallel bo'lish kerak. Konus sirtalrini o'tish chizig'i tasirini aniqlashni ulaming tayanch nuqtalarini aniqlashdan boshlash kerak. Yuqori va pastki nuqtalar 1' va 2'larga hech qanday qo'shimcha usul qo'llamasdan aniqlanadi. Bu nuqtalar sirtlamni ocherk yasovchilaming kesishgan nuqtasini frontal tasviri bo'ladi. Nuqtalaming gorizontal 1,2 va profil tasviri 1'', 2'' lami

ustidan ko'rinishda profil tasvirda simmetrik o'qlarida bog'lovchi chiziqlar yordamida aniqlanadi. O'tish chizig'ini ko'rinar va ko'rinmas qisimlarini ajratish uchun kichik konus o'qi orqali gorizontal tasvir tekisligiga parallel  $P(P_\phi)$  tekisligi o'tkazamiz.  $P \perp \Phi$ ,  $P \parallel G$ . Bu tekislik konus sirtini yasovchilar orqalik ustidan ko'rinishda ocherklari, katta konusning R radiusli aylana bilan kesadi. Konusning ocherk yasovchilarining aylanaga gorizontal tasviri bilan kesishgan nuqtasi 3 va 4 o'tish chizig'ini ko'rinish chegarasi bo'ladi.  $3 \approx 4$  nuqtalami frontal tasvir 3' va 4' lami tasvirlami bog'lovchi chiziq yordamida aniqlanadi. O'tish chizig'iga tegishli oraliq nuqtalami markazi konus o'qlari kesishgan nuqta bo'lgan sfera usulida topiladi. Katta konus sirtiga aylana bo'ylab urinma bo'lgan eng kichik sfera S<sub>1</sub>, bosh ko'rinishda a'b' ko'rinishda tasivlanadi va kichik konusni c'd' kesma bo'ylab tasvirlangan aylanani kesadi. Kichik sfera S<sub>1</sub> ni kichik va katta konus bilan kesishgan chiziqlarini o'zaro kesishgan nuqtasi 5' = 6'. 5' va 6' nuqtalami gorizontal tasviri 5 va 6 ni sfera S<sub>1</sub> ni katta konus bilan kesishgan aylananing gorizontal tasvirida aniqlaymiz. Oraliq nuqtalaming frontal tasviri 7' = 8' va gorizontal tasviri 7,8 lami ham ikki sirtni aylana bo'yicha kesuvchi sfera S<sub>2</sub> yordamida topamiz. O'tish chizig'ining profil tasvirini berilgan (aniqlangan) gorizontal va frontal tasvirlar yordamida aniqlaymiz. Ichki sirtlar konus va silindring o'tish chizig'ini tayanch nuqtalarini orqali aniqlash mumkin.

Ayrim hollarda aylana sirtlarining o'tish chizig'ini aniqlash uchun ekssentrik sfera usuli qo'llaniladi. Bu usulni mohiyati konus va tor sirtlaridan tashkil topgan qopqoqning o'tishi chizig'ini aniqlash misolda ko'rsatilgan (106-chizma). Alovida usul qo'llamasdan tayanch nuqtalar ( $1'2'$  va  $1,2$ ) tasvirini belgilaymiz. So'ngra oraliq nuqtalami aniqlaymiz. Buning uchun yarim halqa sirtini o'qi oraliqidan frontal tasvirlovchi  $P(P_\phi)$  tekislik o'tkazamiz. U yarim halqani yasovchi aylanalamisi kesadi. Bu bosh ko'rinishda a'b' kesma bilan ko'rsatilgan. Yarim aylanani yordamchi kesuvchi sfera bilan yarim halqani kesishgan chizig'i deb qabul qilamiz. Frontal tasvirdan b dan P

tekisligi frontal izi  $P_\phi$  o'tkazilgan perpendikulyar konus o'qini  $0'$  nuqtada kesadi.



106 -chizma

Bu nuqta yordamchi kesuvchi sferaning frontal tasviri  $0'$  bo'ladi.  $0'$  nuqtadan yordamchi kesuvchi sfera aylanasi ocherkini, konusni ocherk yasovchilari bilan  $c'$  va  $d'$  nuqtada kesishgucha o'tkazamiz. Frontal tasvirda  $c'd'$  kesma yordamchi kesuvchi sfera bilan aylana konus sirtini kesishgan chizig'i ya'ni aylananing frontal tasviri bo'ladi.  $a'b'$  va  $c'd'$  kesimlar o'zaro kesishib konus sirti bilan yarim halqa sirtini o'tish chizig'iga tegishli  $3' = 4'$  nuqtalami hosil qiladi. Shu usulda boshqa nuqtalami frontal tasvirini aniqlaymiz. O'tish chizig'i horizontal tasvirini konus sirti bilan yordamchi kesuvchi sfera sirtini kesishdan hosil bo'lgan aylanani horizontal tasviri yordamida topamiz. O'tish chizig'ini profil tasviri uning horizontal va frontal tasvirlari yordamida aniqlanganadi. Aniqlangan nuqtalami tegishli tasvirlarda

ketma-ket lekalo yordamida silliq tutashtirib berilgan buyumning o'tish chizig'ini hosil qilamiz.

### **Takrolash uchun savollar.**

1. Ko'rinish deb nimaga aytildi?
2. Asosiy ko'rinishlar qanday joylashtiriladi?
3. Qanday ko'rinish qo'shimcha ko'rinish deyiladi?
4. Ular qanday belgilanadi?
5. Qanday ko'rinish mahalliy ko'rinish deyiladi?
6. Ular qanday belgilanadi?
7. Kesimni qanday xillari mavjud?
8. Ular qanday belgilanadi?
9. Qanday qirqimlar mavjud?
10. Ular qanday belgilanadi?
11. O'tish chizig'i deb nimaga aytildi?
12. Ular qanday chiziladi?
13. O'tish chizig'i qanday usullar bilan chiziladi?

### **III bob. Yaqqol tasvir.**


Yaqqol tasvir va texnik rasm chizish uchun amaliy yo'l – aksionometrik nazariy va prespektiv tasvirlashga asoslangan. Yaqqol tasvir katta amaliy ahamiyatga ega. U faoliyatning har xil sohalarda keng qo'llaniladi. Yaqqol tasvimi zarurligi buyumning chizmasini o'qishda va uni murakkab konstruktiv shaklini tasavvur qilishda paydo bo'ladi. U bilan buyumning alohida qismini konstruktiv tuzilishini, texnologik jarayonning ishlashini, yig'ish va montaj qilishni tuchuniladi. Ko'p hollarda yaqqol tasvir muallifni texnik g'oyalalarini bildirish va ifodalashda yangi buyumni loyihalash va konstruktirash masalalarini yechishda soydlaniladi. Yaqqol tasvir bo'yicha buyumning shakli va uni bir qismi haqida to'g'ri tasavvur qilish bu tasavvumi qanchalik yaqqolikni talabini bajarishga bog'liq. Buyum har doim o'zining odad bo'lib qolgan holatida tasvirlanadi. Ya'ni, kuzatuvehiga eng ko'p ma'lumot beradigan holatda. Buyuming alohida qismi uning boshqa qismini to'sib qolmasligi kerak.

**3.1. Aksionometrik tasvirlar.** -- Buyumilami tayyorlashda shu buyumning ish chizmasidan foydalaniladi. Ishchi chizmaning asosiy kamchiligi shuki, unda buyumning ko'rinishlari alohida-alohida tasvirlanadi. Bu buyumning chizmasini o'qishni qiyinlashtiradi. Amalda buyumning ish chizmasi bilan birga uning yaqqol tasviri ham beriladi. Yaqqol tasvir bilan berilgan ish chizmalari bilan tez va oson o'qiladi. Ixtiro qilinayotgan mashina konstruksiyasi chizmalarini chizishda (aksionometriya) yaqqol tasvir muhim ahamiyatga ega. Aksionometrik tasvir chizish asosida koordinatalar usuli yotadi. Chizmачilik amaliyotida ko'p aksionometrik tasvirlar orasida eng yaxshi yaqqollik bilan ajraladigan buyumning shakliga eng kam o'zgarish beradigan juda oddiy va chizish uchun qulay bo'lgan aksionometrik tasvirlar qo'llaniladi. O'z DSt 2.317-97 standart quyidagi beshta aksionometriyani qo'llashni tavsija etadi.

1. To'g'ri burchakli izometrik,
2. To'g'ri burchakli dimetrik,
3. Qiyshiq burchakli frontal izometrik,
4. Qiyshiq burchakli gorizontal izometrik,
5. Qiyshiq burchakli frontal dimetrik.


**3.2. To'g'ri burchakli izometrik tasvir.** To'g'ri burchakli izometrik tasvirda aksionometrik o'qlar bo'yicha uchta haqiqiy koefitsientlar bir xil o'zgaradi va u 0,82 ga teng. O'z DSt 2.317-69 bo'yicha texnik chizmalami to'g'ri burchakli izometrik tasvirda bajarilganda keltirilgan o'zgarish koefitsientini o'qlar bo'yicha 1 ga teng qilib olinadi. Bunda tasvir  $\frac{1}{0,82} = 1,22$  marta kattalashgan

bo'ladi. Lekin tasviming kattaligi yaqqolikga ta'sir qilmaydi. Ammo matematik hisoblashni qisqartirish hisobiga tasvimi bajarish vaqt kamayadi. To'g'ri burchakli izometrik tasvirlashda o'qlar orasidagi burchak  $120^\circ$  teng bo'ladi. (107-chizma, a). O'qlami chizishni 3 ta usuli bor: sirkul yordamida. (107-chizma, b). Chizg'ich va uchburchak yordamida. (107-chizma, v). To'g'ri burchakli uchburchak katetlarini nisbati (5:3) yordamida (107-chizma, g).




107-chizma

Tasvir tekisligida yotgan yoki unga parallel bo'lgan tekis shakllarni to'g'ri burchakli izometrik tasvirini chizishni ko'rib chiqamiz. Har qanday tekis shakl ikkita o'lehamga ega, shuning uchun aksionometrik tasvir chizayotganda uni ikkita koordinata o'qi bilan chizishni maslahat beriladi. Agar tekis shakl simmetrik bo'sa u holda uning simmetriya o'qini koordinata o'qiga parallel joylashtirildi. 108-chizmada har xil tekis shakllarning chizmasi berilgan. Ularning shakli va simmetriya o'qlarini hisobga olgan holda koordinata o'qlarini tasvirini chizamiz har bir shaklning aksionometrik tasvirini chizish uchun avval aksionometriya o'q o'tkaziladi. So'ngra chizmadan uning xarakterli nuqtalarini koordinat usulida ko'chiriladi. Demak uchburchakni tasvirlash uchun chizmadan pastki chap uchini abstsissasi OA<sub>1</sub> o'lehanadi. (108-chizma, a) va u aksionometriya o'qi X ga qo'yiladi.




108-chizma

Natijada A nuqtali aksionometrik tasvir hosil bo'ladi. (109-chizma,a).




109-chizma

Shunga o'xshash ikkita boshqa nuqtalar  $V_1$  va  $S_1$  ni ham aksionometrik tasvirlarini chizamiz. Agar  $D_1$  nuqta (109-chizma, j) X yoki Z o'qiga tegishli bo'lmasa, unda uni aksionometrik tasviri D ni aniqlash uchun ikkita koordinatalardan foydalananimiz, ya'ni  $X_1$  va  $Z_1$ . Tekis shaklni ya egi chiziqni ocherknii aksionometrik tasvirini ketma-ket nuqtalari orqali chiziladi, ulami avval chizmada belgilanadi. So'ngra, koordinatalar yordamida aksionometrik tasvirga ko'chiriladi. (109-chizma, Z, E nuqtaga qarang) va E nuqta (108-chizma, z) Koordinata tekisligida yotgan yoki koordinata tekisligiga parallel bo'lgan aylananing to'g'ri burchakli aksionometrik tasviri aniq o'lcham va holatiga ega bo'lgan ellips bo'lib tasvirlanadi. (110-chizma). Ellipsning katta o'qi har doim o'sha aksionometrik o'qqa perpendikulyar ya'ni koordinata o'qini ifodalaydigan tasvir, aylanani tasvirlaydigan tekislikga perpendikulyar, uning kichik o'qi esa parallel.



110-chizma

To'g'ri burchakli izometrik tasvirda keltirilgan koefitsientdan foydalaniulganda ellipsni katta o'qi,  $1,22 D$  ga teng kichik o'q esa  $0,7 D$  ga teng bo'ladi,  $D$  tasvirlanayotgan diametri. Bu tasvirda ellipsni aylana ichiga chizilgan kvadrant yordamida 8 nuqta belgilab chizish qulay. 111-chizma, a da  $D$  diametrlik aylanani ichiga A,V,S,E kvadrant chizilgan. Kvadrantni simmetrik o'qidan foydalaniib aylanani aksionometrik tasvirini chizish uchun koordinata tekisligi XOY da yotgan X va Y ortogonal (to'g'ri burchakli) o'qni belgilaymiz. Aksionometrik o'q X, Y va kvadrantni aksionometrik tasvimi ifodalovchi A,V,S,E rombni chizamiz. (111-chizma, b). Rombni A,V,S,D balandliklari ellipsni katta va kichik o'qlarini uchi va oxiri X va Y aksionometrik o'qlarga O nuqtadan boshlab ikki tomonga berilgan aylanani radiusni o'lchab qo'yib yana ellipsni to'rtta nuqtasini aniqlaymiz. Hamma nuqtalami lekalo yordamida silliq qilib tutashtiramiz. Huddi shuningdek boshqa koordinata tekisligi XOZ (111-chizma, v) va XOY (111-chizma, g) yotgan aylanalmi izometrik tasviri chiziladi. Ko'p hollarda chizmachilik amaliyotida aylananing aksionometriyasi sifatida oval chiziladi. Oval chizish 112-chizmada ko'rsatilgan.



111-chizma


112-chizma

Avväl grafik usuli bilan berilgan aylanani diametri  $D$  yordamida ovalning kichik ( $SE=0,71 D$ ) va katta ( $AV=1,22 D$ ) o'qlarini aniqlaymiz. (112-chizma, a). Kegin ovalni o'qlarini ellips o'qlarining holatiga mos joylashtiramiz va oval chizamiz. (112-chizma, b). Buning uchun ikkita koontsentrik aylana o'tkazamiz. Bunda aylananing diametri ovalning o'qlariga teng,  $D = AV$ , d $\cdot$  SE. (112-chizma, a).  $O_1$ ,  $O_2$ ,  $O_3$  va  $O_4$  markazda egri chiziq ocherklari chiziladi.


**3.3. To'g'ri burchakli dimetrik tasvir.** To'g'ri burchakli dimetrik tasvirda keltirilgan o'zgarish koefitsientlar X va Z o'qlari bo'yicha lga Y o'qi bo'yicha 0,5 ga teng. X va Y o'qlari orasida burchak  $97^{\circ} 10'$ , Y o'qi esa XOZ burchak bissektrisasi bo'ylab yo'nalgan va Z o'qiga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq bilan  $41^{\circ} 25'$  ni tashkil qiladi. (113-chizma). Bu holda haqiqiy o'zgarish koefitsienti X va Z o'qlar bo'yicha 0,94 ga Y o'qi bo'yicha 0,47 ga teng keltirilgan o'zgarish koefitsienti qo'llanganda, tasvir

$\frac{1}{0,97} = 1,06$  marta kattalashadi. Bu kattalashgan tasvimi yaqqolligini

kamaytirmaydi. Aksionometrik o'qni to'g'ri burchakli uchburehakni katetlarini 1:8 va 7:8 nisbatdan foydalanib chizish mumkin (113-chizma) yoki sirkul yordamida radiuslar 2:3 nisbatda bo'lgan yoy o'tkaziladi. (114-chizma).




113-chizma




114-chizma

To'g'ri burchakli dimmetrik tasvirda buyumning tasvirini izometrik tasvirdagidek chiziladi. Bunda o'zgarish koefitsienti Y o'qi bo'yicha 0,5ga teng bo'ladi. Koordinata tekisligida yotgan yoki unga parallel bo'lgan tekisligida yotgan aylana to'g'ri burchaklik dimetrik tasviri ellips bo'ladi. Ellipsni katta o'qi o'sha aksionometrik o'qqa perpendikulyar ya'nı koordinat o'qini tasviri bo'ladi. Bu aylana tasvirlangan tasvir tekisligiga perpendikulyar. (115-chizma). Kichik o'q unga parallel. Dimetrik tasvirda gorizontal va profil tasvir tekisliklar aylanalamasi dimetrlar teng bo'lsa ellipslar teng (bir xil) Chu diametrli aylanani tasviri bo'lgan va frontal tasvir tekisligida joylashgan ellips u bilan faqat katta o'qi bo'yiga teng bo'ladi. Ellipsni katta ( $1,06 D$ ) va kichik ( $0,95 D ; 0,35 D$ ) o'qlarini yonalish va qiymatini aniqlab 8 ta nuqta va shuningdek tegishli aksionometrik o'qlarga (X va Z o'qlari bo'yicha  $D$ , Y o'qi bo'yicha  $D/2$ ) parallel joylashgan tutash diametrlari bo'yicha chiziladi. 116-chizma, a da profil tasvir tekisligida joylashgan D diametrik aylana chizamiz. Ulardan ikkitasi O nuqtada o'zaro urinma bo'ladi.




115-chizma



116-chizma

O nuqta aylananining markazi bo'ladi. O nuqta orqali markazlar chizig'iga perpendikulyar to'g'ri chiziq va Z o'qiga parallel AV to'g'ri chiziq o'tkazamiz. O<sub>1</sub> va O<sub>2</sub> markazlami A va V nuqtalar bilan tutashdirib O<sub>3</sub> va O<sub>4</sub> markazlami aniqlaymiz. O<sub>1</sub>, O<sub>2</sub>, O<sub>3</sub> va O<sub>4</sub> nuqtalar oval yoyning markazi bo'ladi. O'rta aylanadagi unga simmetrik A, V nuqtalar yoyning tutashish nuqtasi bo'ladi. Huddi shuningdek gorizontal tasvir tekisligiga tegishlik aylananining tasviriga taxminan to'g'ri keladigan oval chiziladi. 116-chizma, b da frontal tasvir




b)

tekisligida joylashgan D diametrali aylana to'g'ri burchakli dimetrik tasviriga to'g'ri keladigan taxminiy oval chizish ko'satilgan. Tomonlari X va Z o'qiga parallel, burchak  $97^\circ 10'$  li, D diametrali aylanaga urinma romb chiziladi. Rombning pastki chap tomonidan burchakdan  $R = \frac{l}{2}$  (l-romb tomoni uzunligi) radiusda yoy o'tkazib

uning diagonalida O markazni belgilaymiz, so'ngra oval yoyining uchta boshqa markazlar  $O_2, O_3, O_4$  ni aniqlaymiz. Ular markaziy chiziqlarida yoylamining tutash nuqtasi aniqlanadi.

**Qiysiq burchakli frontal izometrik tasvir.** Qiysiq burchakli frontal izometrik tasvirda X va Y aksionometrik o'qlar orasidagi burchak  $90^\circ$  ni tashkil qiladi. Y o'qi Z o'qiga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq bilan  $\alpha = 45^\circ$  burchak hosil qiladi.

(117-chizma, a).



117-chizma

X burchak  $30^\circ$  va  $60^\circ$  bo'llishi mumkin. Haqiqiy o'zgarish koeffitsienti X,Y,Z o'qlari bo'yicha bir xil va 1 ga teng frontal tasvir tekisligida yotgan tekis shakllar o'zgarmasdan tasvirlanadi.

**Qiysiq burchakli gorizontal izometrik tasvir.** Qiysiq burchakli gorizontal izometrik tasvirda aksionometrik o'qlar X va Y orasidaga burchak  $90^\circ$  ga teng. Y o'qi Z o'qqa perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq bilan  $\alpha = 30^\circ$  ga teng bo'ladi. (117-chizma, b).  $\alpha$  burchak  $45^\circ$  yoki  $60^\circ$  teng bo'llishi mumkin. Haqiqiy o'zgarish koeffitsienti uchta o'q bo'yicha bir xil va 1 ga teng. Gorizontal tasvir tekisligida yotgan tekis shakllar (aylana ham) o'zgarmasdan tasvirlanadi.


**Qiyshiq burchakli frontal dimetrik tasvir.** Qiyshiq burchakli frontal dimetrik tasvirda aksionometrik o'qlar frontal izometrik tasvirdagidek joylashadi. Lekin Y o'qi bo'yicha qisqarish koefitsienti 0,5 ga teng (117-chizma, v). Frontal tasvir tekislikda yotgan tekis shakllar (aylan ham) o'zgarmasdan tasvirlanadi. Gorizontal va profil tasvir tekislikda joylashgan tekis shakllami o'chami Y o'qi bo'yicha ikki marta qisqarib tasvirlanadi.

**3.4. Buyumning va yig'ma birlikni aksionometrik tasvirini bajarish. Aksionometrik tasvirni tanlash.** Buyumning aksionometrik tasvirini chizishda uning ko'rinishni to'g'ri tanlash zarur. Aksionometrik tasvimi ko'rinishini tasvirlanayotgan ob'ektini formasini murakkabligi va o'ziga xosligi bilan aniqlanadi. Buyumning tasviri eng yaxshi yaqqolligini va manodorligi ta'minlash uchun uning hamma elementlari yetarli ko'rinishga ega bo'lishi kerak. To'g'ri burchakli izometrik tasvirda buyum uchta bosh yo'nalishda oldidan, yonidan va ustidan bir xil aks etiladi. Shuning uchun uni buyumning yaxshi ko'rindigan uchta bosh yo'nalishlarida qo'llaniladi. Bu tizimda kub to'g'ri to'rtburchakli prizma va piramida shakllariga ega bo'lgan geometrik jismlar va buyumni tasvirlash maqsadga muvosiq emas. Chunki buyumning qirrasi va yoqlari bitta chiziqqa qo'shilib qoladi va shu bilan tasvining yaqqolligi kamayadi. To'g'ri burchakli diametrik tasvir eng ko'p yaqqolik olishga imkoniyat yaratadi, shuning uchun undan ko'proq foydalilaniladi. Qiyshiq burchakli frontal tasvir murakkab egri chiziqli aylana, tutashma, lekalotlik egri chiziq va boshqalar buyumning tabiy shaklini saqlashda qo'llaniladi. Ular frontal tasvir tekisligiga parallel tekislikda joylashadilar.

Mashinasozlik buyumlari zichlagich, fasonli shayba, flanes kabilami tasvirlashda qo'llaniladi. Bunda buyumning qalinligi (uzunligi) katta bo'lsa u holda frontal dimmetrik tasvir qo'llaniladi. Agar buyumning qalinligi katta bo'lmasa u holda frontal izometrik tasvir qo'llaniladi. Gorizontal tasvir tekisligida qiyshiq burchakli gorizontal izometrik tasvir joylashagan shaklini haqiqiy tashqi ko'rinishini ko'rsatish uchun. Undan qurilish inshootalarini yaqqolligini chizish uchun foydalilaniladi (uy-joy, kvartiralami qurish, maydonlami rejalashtirish, sanoat qurilish komplekslarini namoyish

qilish). Aylanish sirtalar mavjud bo'lgan buyumning (silindr, konus, shar, tor) qiyishiq burchakli izometrik tasvirda tasvirlanadi. Ulami shakli o'zgarib qabul qilinishini hisobga olish kerak. Shuning uchun aylanish sirti bo'lgan buyumlar faqat to'g'riburchakli aksionometrik tasvirda chiziladi, bunda ular juda yaqqol ko'rindilar.

Shaming tasvirini chizish uchun qiyishiq burchakli aksionometrik tasvirdan foydalanish mumkin emas., chunki u ellips shaklida tasvirlanadi. Bu chizishni qiyinlashtiradi va uning haqiqiy ko'rinishini qabul qilishga yordam bermaydi. 118-chizmada taqqoslash uchun kubni yoqlari ichiga chizilgan aylanani to'g'ri burchakli va qiyishiq burchakli aksionometrik tasvir ko'rsatilgan.




118-chizma

Ular yaqqol tasvir haqida mukammal umumiyligini yuritishga imkon beradi va ulami ichidan buyumning shakliga tegishlilikini tanlash mumkin.

**Oddiy geometrik shakllarni aksionometrik tasvirni chizish.** Buyumlar oddiy geometrik jismlarni yig'indisidan tashkil topgandir. Texnik buyumlarni aksionometrik tasvirini chizish uchun avval oddiy geometrik jismlarni aksionometrik tasvirini chizishni o'rganish kerak.

Ularning joylashish va shakldan maqsadga muvofiq eng ko'p bog'lanishga amal qilish talab qilinadi.


Bunda eng oddiy va ratsional chizish usulini qo'llash va ortiqcha chiziqlar bo'lmasligi kerak. Buyumning aksionometrik tasvirini chizish odatda uning asosiy geometrik shakllari pastki yoki yuqori asoslaridan boshlash kerak. So'ngra uning balandligini (vertikal joylashganda) yoki uzunligicha (gorizontal joylashganda) qo'yiladi. 119-chizmada ikkita piramidaning to'g'ri burchakli aksionometriyasi tasvirlangan.




119-chizma

Oldin ulaming asoslari (ko'pburchaklar) tasvirlangan (oltiburchak-to'g'ri burchakli izometrik tasvirda, to'rburchak-to'g'ri burchakli dimetriya tasvirda). X va Y o'qlami kesishgan nuqtasi O dan Z o'qi bo'ylab piramidalami balandligi qo'yiladi. Piramidaning uchlari, asosini uchlari bilan to'g'ri chiziq kesmalari yon qirralarini tasviri orqalik tutashtiramiz. Konusni aksionometrik tasvirini chizganda avval uning asosini tasvir ellips chiziladi. So'ngra O nuqtadan Z o'qi bo'ylab uning balandligi qo'yiladi. (120-chizma). Konus balandligi tasviridan ellipsiga urinma o'tkaziladi. Ya'ni konusni ocherk yasovchilarini kesik konusning aksionometrik tasvirini chizganda avval berilgan balandlikka ellips chiziladi-konusning yuqori va pastki asoslari, so'ngra bularga ikkita urinma to'g'ri chiziq, ya'ni ocherk yasovchilarini o'tkaziladi (120-chizma). Bunda ellipsning katta o'qi uchlari urinma to'g'ri chiziqning urinish nuqtasi bilan mos kelmasligi kerak.


120-chizma



Prizmaning aksionometrik tasvirini chizishni uch uning yuqori asosidan boshlash maqsadga muvofiq. (121-chizma). Keyin uni yon qirralari tasvirlanadi. Buning uchun prizmani yuqori asosini uchidan to'g'ri chiziq (vertikal yoki gorizontal) o'tkaziladi, ya'n'i qirralarini tasivri va ularga prizmaning berilgan balandligi qo'yiladi. Oxirgi nuqtalarini to'g'ri chiziq kesmasi bilan tutashtirib prizma ikkita asosining tasviri hosil qilinadi.



121-chizma




122-chizma

Silindrning aksionometrik tasvirini chizishni uning ellips bo'lib tasvirlanishini yuqori asosidan boshlash kerak. So'ngra tsilinrdning ocherk asoslarini ellipsga urinma aosida o'tkaziladi, unga silindrning balandigi qo'yiladi va uning pastki asosini ko'rindigan qismini chiziladi. (122-chizma). Ellipsning katta o'qini uchlari ocherk yasovchilarini ellips bilan urinish nuqtalari bo'ladi. Shar va tor shakllarini aksionometrik tasvirilarini chizish bir muncha murakkabroq. Bu sirtlami ocherk chiziqlari kerakli yaqqollikini va tasvimi qaytaruvchanligini bermaydi.


Shuning uchun bunday sirtlami aksionometrik tasvimi chizishda qo'shimcha buyumning ekvatorini, parallelini va meridianasini ham tasviri chiziladi. Bu buyumning yaqqolligini

kuchaytiadi. (123-chizma). Shaming aksionometrik tasviri chizilganda yaqqollikni kuchaytirish uchun koordinata tekisliklariga parallel qirqim bajariladi.

Uning  $\frac{1}{8}$  qismi kesib olinadi. (124-chizma).




123-chizma



124-chizma

### 3.5. Buyumni va yig'ma birlik aksionometrik tasvirini chizish usullari.

Buyumning aksionometrik tasvirini chizish shundan iboratki, bunda buyumni tashkit qilgan geometrik shakllarni tasvirini ketma-ket chiziladi va sirtlaming o'zaro kesish chizig'i aniqlanadi.




125-chizma

Ma'lumki buyumni aksionometrik tasviri uning chizmasi asosida bajariladi. Buyumning aksionometrik tasviri va uning chizmasini mashtabi har xil bo'lishi mumkin. Aksionometrik tasvir bo'yicha buyum chizmasini (tasvirlarini) hosil qilish mumkin. Buyumning aksionometrik tasvirini yoniga, aksionometrik o'qni joylashish sxemasi

chiziladi, o'qlar orasidagi burchak ko'satiladi va o'qlar bo'yicha qisqarish ko'effitsientalri yoziladi. Bu aksionometrik tasvir bo'yicha buyumning tasvirini chizishga imkoniyat beradi, buyumning o'lehamlarini aksionometrik o'qlaridan o'lehab aniqlash mumkin. Ayrim hollarda "o'qitish maqsadida" buyumning aksionometrik tasvirida uning o'lehamlari qo'yiladi. O'DSt 2.317-97 bo'yicha aksionometrik tasvirga o'leham qo'yilganda chiqarish chiziqlarini aksionometrik o'qlarga (tegishlichcha) parallel o'leham chizig'ini o'lehanayotgan kesmaga parallel o'tkaziladi. (125-chizma). Chizmachilik amaliyotida buyumning soddalashgan aksionometrik tasvirini chizishni bir qancha usullari ishlab chqilgan. Buning shaklidan kelib chiqan holda har bir konkret holda, maqsadga muvofiq (oqilona) usul tanalanadi. Bunda buyumning alohida elementlarini ko'rinar - ko'rinasligini hisobga olinishi kerak. Bu usulning ba'zilari bilan tanishib chiqamiz.

**Birinchi usul.** Bu yuqorida bayon qilingan geometrik jismanni tasvirini chizishga to'g'ri keladi. Bunda avval buyumning ko'rindigan yon yog'i tasviri chiziladi, so'ngra unga buyumning boshqa elementlarini aksionometrik tasvirini qo'shib chiziladi. Natijada buyumning to'g'ri burchakli izometrik tasviri hosil bo'ladi. Bu usulni

126-chizma, a da keltirilgan buyum asosida ko'rib chiqamiz. Buyumning shaklini uning chizmasiga qarab tasavvur qilamiz.




126-chizma

Simmetriya tekisligini hisobga olgan holda koordinata o'qlarini tasvirini belgilaymiz. Aksionometrik tasvir ko'rinishini tanlanadi, bizning misolda to'g'ri burchakli izometriya tanlangan.


Bu buyumning eng yaxshi yaqqolligini ta'minlaydi. Chizma formatida gabariti yaxshi ko'rinishini, to'g'ri kompozitsiyali joylashishi kerakligini hisobga olgan holda aksionometriya o'qlari chiziladi. (126-chizma, b). Bosh ko'rinish bo'yicha oldingi yoqini aksionometrik tasviri chiziladi. Oldin yoqning uchlardan "Y" o'qiga parallel to'g'ri chiziqlar chiziladi va unga buyumning qalinligini ustidan ko'rinishidan o'lchab qo'yiladi. (126-chizma, v). Belgilangan nuqtalami birlashtirib buyumning yon yog'i va ustki sirti tashqi ko'rinishini aniqlaymiz. Buyumning ustki qismi o'yiqlarini chizamiz. (126-chizma, g).

Chizilganning to'g'riligini tekshirib, aksionometrik tasvimi ko'rindigan kontumni qoraytirib chiqamiz.


**Ikkinechi usul.** Bu usul qandaydir oddiy geometrik jismni sirtiga buyumni yoki uning elementlarini hayolan chizish. 127-chizmada tayanch buyumni misolida chizish ko'rsatilgan. Avval buyumni shakli tahlil qilinadi. so'ngra goboritli parallelepipedning




a)



V)



b)




g)

127-chizma

aksionometrik tasvimi ingichka chiziq bilan chiziladi. Buning uchun aksionometrik o'q o'tkaziladi va parallelepipedning yuqori asosini va pastki asosini ko'rindigan qismi tasvirlanadi. (127-chizma, b).

So'ngra buyumning alohida qismidagi goboritli parallelepipedning yuqori tayanchini va pastki asosi belgilanadi. (127-chizma,a,b,v). Buyumning mayda qismlari: silindrik, prizmatik o'qlari, mustahkamlilik qinalari tasvirini chizib aksionometrik tasvir tugatiladi. (127-chizma, g).

**Uchinchchi usul.** Bu usul agar buyum bir qancha aylanish sirlamini yig'indisidan tashkil topgan bo'lsa qo'llaniladi. Shatunni kallagini aksionometrik tasvirda chizishda bu usul qo'llanilgan. (128-chizma). Bu buyumning chizmasi 102-chizmada berilgan. Avval




128-chizma

aksionometrik o'qlar chiziladi va bu o'qlarga aylanish sirtlarini o'zarot uringan aylanalamani markazi belgilandi. Keyin bu aylanalamani tasvirlari - ellipslar chiziladi. Agar aylanish sirtini qismi yetarli darajada katta bo'lsa u holda (tor, misolida) bu sirtni tasvirlovchi oraliq ellipslari chiziladi. Buyumning qalinligiga "Y" o'qiga qo'yib kesim tekisligini o'rta chizig'ini belgilaymiz, koordinatalar usulida kesim chizig'ini nuqtalarini tasvirini chizamiz.

Tekis kesimni shaklini hisobga olgan holda uning ocherk chiziqlarini o'tkazib buyumning tasvirini qoraytirib chiqamiz.

Ko'p mashinasozlik buyumlari murakkab ichki shaklga ega. Buyumning ichki shaklini yoki yig'ma birikmani ichki tuzilishni aniqlash uchun aksionometrik tasvirda qirqim qo'llaniladi. Uni buyumni va yig'ma birikmani koordinata o'qiga parallel tekislik bilan kesish yo'li bilan hosil qilinadi va buyumning o'qlari orasidagi qismi shartli ravishda olib tashlanadi. Kesim tasvimi yaqqolligini kuchaytiradi va buyumning kesilgan shaklini aniqlash uchun shtrixlanadi. Shtrix chiziq kvadratni tegishli koordinata tekisligida

yotgan va tomonlari aksionometrik o'qi parallel bo'lgan diagonallaridan birining tasviriga parallel o'tkaziladi. (129-chizma).




$$K_x = K_z = 1 \quad K_y = 0,5$$

129-chizma

Spitsalar, maxoviklar (chambarak), shkivlar, tishli g'ildirak, mustaxkamlıq qırması, yupqa devorlar va boshqa shunga o'xshash elementları bo'lgan buyumning aksionometrik tasvirida kesuvchi tekislik elecmetnlaming bo'yisi bo'ylab o'tsa u holda hosil bo'lgan qırqim shtrixlanadi.

**To'rtinchi usul.** Bu usul aksionometrik tasvirda buyumning ichki sirlarini shaklini aniqlashda qo'llaniladi. Bunda kesim buyumning yoki yig'ma birlikning aksionometrik tasvirini chizish uchun qo'llaniladi. Bu usulni qo'llash 130-chizma, a dagi buyuning aksionometrik tasvirini chizishda ko'rsatilgan. Buyumning shakli tahlil qilngandan so'ng va aksionometrik tasvir ko'rinishi tanlagandan keyin uni chizish quyidagi ketma-ketlikda bajariladi.


- 1) Aksionometrik o'q va ingichka chiziq bilan XOZ, ZOY tekisligida chizmadan olingan kesim shaklining tashqi ko'rinishi (konturi) chiziladi. (130-chizma, b).
- 2) Ellipsami marazini holatini belgilanadi-ya ni buyumni konturiga kirgan aylananing tasviri-ellips ni tasviri yoki ulaming bir qismini chiziladi. (130-chizma, v,g).
- 3) Hamma to'g'ri chizqli ocherklami o'tkaziladi. (130-chizma, d).
- 4) Kesim shtrixlanadi va tutash asosiy chiziqlar bilan tasvimi qoraytirib chiqiladi. (130-chizma, e).



#### 130-chizma

Yig'ma birikmani aksionometrik tasvirida agar kesuvchi tekislik o'qlar, vallar, shpindellar, shtoklar, mustahkamlovchi buyumlami (vintlar, boltlar, shpilkalar) o'qi bo'ylab kesuvchi tekislik o'tsa u holda buyum kesilmagan holda ko'rsatiladi. Tishli g'ildirak, chervyak, tishlik reyka va shunga o'hshash yig'ma birikmalar tartibiga kiruvchi buyumlar aksionometrik tasvirida shartliklar qo'llab O'zDSt:2.402-68 bo'yicha, rezbani O'zDSt:2.311-68 muvosiq ko'rsatilgan.



Aksionometrik tasvirda rezbani profili tegishli joyda to'liq yoki qisman ko'satish mumkin. Yig'ma birikmani aksionometrik tasviri birikmani yig'ish tasviridan bajariladi. (131-chizma).



131-chizma

Bunda tasvir birikmaning korpusidan boshlab chiziladi va unga kichik buyumlami aksionometrik tasviri qo'shiladi. Yig'ma birikmani aksionometrik tasvirini chizishda 4- usul maqsadga muvosiq bo'ladi. Qirqim bajarilgan yig'ma birikmani aksionometrik tasvirini chizishni "Avval kesim chiziladi va ellipslami markazlari belgilanadi. (132-chizma, a). So'ngra ellipslar chiziladi (132-chizma, b) ocherk to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. (132-chizma, v). Probkali ventel" misolida 132-chizmada ko'satilgan.

Bundan keyin kesim shtrixlanadi va tasvir to'liq qoraytirib chiqiladi. (132-chizma, g). Ahamiyat bering yig'uv birikamani aksionometrik tasvirda propka, bolt, gayka va shaybalar qirqilmasdan ko'satiladi.



132-chizma

### **Takrorlas h uchun savollar**

1. Aksionometrik tasvir deb nimaga aytildi?
2. Texnik Chizmachilikda qanday aksionometrik tasvirlar qo'llaniladi?
3. Qiyshiq burchakli aksionometrik tasvirda o'qlar omsidagi burchak va o'zgarish koeffitsienti qanday?
4. To'g'ri burchakli aksionometrik tasvirda o'qlar orasidagi burchak va o'zgarish koeffitsienti qanday?
5. Aylananing aksionometrik tasvirini to'g'ri burchakli aksionometrik tasvirda qanday usulda chiziladi?
6. Geometrik shakkimi aksionometrik tasvirini chizishda qanday usul qo'llaniladi?
7. Buyumning aksionometrik tasvirini qanday usulda chiziladi?
8. Yig'ma birikmani aksionometrik tasviri qanday ketma-ketlikda bajariladi?

### **IV bob. Chizmalar.**

**4.1. Chizma-konstrukturlik hujjati.** Chizma texnik ma'lumotlami uzatish vositali bo'lib xizmat qiladi. U mashinalami ishlashi va tuzilishini tushintiradi, buyum va mexanizmlar o'zaro bog'lanishini ko'satadi, har bir buyumning shaklini ma'lum qiladi, u shakliga xarakteristika beradi va undan boshqa ma'lumotlami bilish mumkin. Chizmada buyumning materialini va bu materialini holati yoki qattiqligi issiqlik ishlov berish, qoplama va boshqalami ko'satish mumkin. Chizmaga asosan alohida buyum tayyorlanadi va birikma yig'iladi-mashinalar, stanoklar, asboblar. Qo'shimcha hujjat sifatida eskizlardan foydalaniлади. Улар бир мarta qo'llanadigan chizmalardur. Chizma va eskizlar yagona qoida bilan chizma chizish ishlarini unimdorligini oshirishga har xil soddalashtirishlar va shartliklar qo'llanilgan holda bajariladi.

**4.2. Buyum turlari va konstrukturlik hujjatlari.** Chizma loyihalashta tayyorlanadigan va buyumni tayyorlashda fodalaniladigan

katta guruh konstrukturlik hujjatlarining faqat bir ko'rinishidir. Har biri alohida hujjat, bu guruhga kiruvchi yoki hamma guruhning hujjati birgalikda aniq buyumning tarkibini va konstruksiyasini aniqlaydi (sanoat tarmoqlariga bog'lanishdan tashqari) va uni tayyorlash, foydalanish va ta'mirlash uchun hamma ma'lumotlarni saqlaydi.


**4.3. Buyumning ko'rinishlari.** – O'zDSt:2.101-97. Har qanday predmet yoki ishlab chiqarish predmetlari yig'indisi, korxonada tayyorlanish kerak bo'lgan mahsulot buyum deyiladi. Ulami qo'llanilishiga qarab asosiy va yordamchi ishlab chiqarish buyumlariga bo'linadi.

**Ishlab chiqarish asosiy buyumlariga** boshqa ishlab chiqarishni ta'minlaydigan (buyurtmachi va istemolchi) yoki savdo shoxobchalarini orqali sotiladigan (avtomobil, stanok, podshipnik, mustahkamlanadigan) buyumlar kiradi.

**Ishlab chiqarishni qo'shimcha buyumiga** korxonaning faqat o'z ehtiyojlari uchun va asosiy ishlab chiqarishga buyumlami tayyorlash uchun mo'ljallangan buyumlar (shtamplar, maxsus instrumentlar, moslamalar (asbob)). O'zDSt:2.201-97 hamma buyumlami loyihalashning murakkabligi, tayyorlashni o'ziga hos xususiyati, belgilangan vazifasiga qarab to'tcta ko'rinishga bo'linadilar: buyum, yig'ma birikma, komplekslar va komplektlar.

Ularda buyumning tarkibiy qismi bor yoki yo'qligiga bog'langan holda tasniflangan va tasniflanmaganga bo'linadi. Tasniflangan buyumga tarkibiy qismi bo'limgan pridmet kiradi. Takribiy qismi bo'lgan ikkita va undan ortiq yig'ma birikmalar komplekslar va komplektlami o'z ichiga olgan, shuning uchun ulami tasniflangan buyum deyiladi. Yig'ma birliklar, komplekslar va komplektlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismdan iborat bo'ladi.

Shuning uchun tasniflangan buyumlar qatoriga kiradi. Buyumga yangi loyihasi ishlab chiqilayotgan, konstrukturlik hujjatlari nomenklaturasiga albatta spetsifikatsiya kiradi. Spetsifik buyumning va konstrukturlik hujjatlari tarkibi 133-chizmada ko'rsatilgan.




#### 133-chizma

Spetsifikatsiyalangan buyumning har birini tarkibiy qismi pridmet. Shuningdek yig'ma birlik va komplekslar, komplektlar bo'lishi mumkin. Ulaming murakkabligidan qat'iy nazar, buyumning ko'rinishiga quyidagilar belgilangan:

**Detal.** (buyum) – yig'ish amalini qo'llamasdan bitta markali materialdan tayyorlangan buyum. Yig'ish amaliga bir bo'lak

materialdan bajarilgan mahalliy payvandlash, kavsharlash, yopishtirish, tikish va boshqalar kirmaydi. Shuningdek, unga kimyo va bezatish qoplamlari ham. Quyidagilar detallga (buyumga) misol bo'ladi: val, quyma korpus, bosma plita, plastmassa chambaraklar (armaturasiz), bir bo'lak kabel yoki sim, bolt, shipilka, gayka, xromlashtirilgan vint, bir bo'lak yupqa materialdan kavsharlab yoki payvandlab tayyorlangan quvir, bir bo'lak kartondan kleylab tayyorlangan quti. Detallning konstruksiyasini to'g'ri chunish uchun uning bajarilgan vazifasi va nomi hamda alohida elemetlarini bilish kerak.

**Element.** Bu detallning bir qismi bo'lib aniq vazifaga ega bo'ladi. Misol, flanes, qirra, o'yuq, protochka, leska, gantel, quloq bular detallning elemetlari bo'ladi. (134-chizma).



134-chizma

### Yig'ma birlik.

Buyum tarkibiy qismida ya'ni tayyorlovchi korxonada o'zaro birlashtirishi kerak bo'lgan yig'uvchi operatsiya (parchalash, kavsharlash, payvandlash, presslash, yelimlash, tikish, tahlash va boshqalar). Yig'ma birlik aniq funksiya vazifaga ega bo'lish kerak. Yig'ma birikmaga: telefon apparati, armirlangan buyum (plastmassadan metall armatura bilan tayyorlangan chambarak) misol bo'ladi.

**Kompleks** – belgilanish bo'yicha o'zaro bog'langan bir qancha tasniflangan buyum yig'ish operatsiyasi bilan tayyorlangan korxonada biriktirilmagan. Kompleksga kirgan xar bir buyum hamma kompleks uchun belgilangan bitta yoki bir qancha asosiy funksiyani bajarish uchun xizmat qiladi. Kompleksga misol: stanoklami avtomatlashtirilgan yo'lli (liniya), automat-zavod.

**Komplekt** - umumiy funksiya bilan belgilangan qo'shimcha xarakterlik bir qancha buyumlar- yig'ish operatsiyasi bilan tayyorlovchi-korxonada biriktirilmagan. Komplekt zaxira qismlari, avtomashinalar uchun asboblar, o'lchov apparatlar komplekti. Chizmachilik kursida asosan ikki xil buyum ko'rildi-detall va yig'ma birlik.

**Konstrukturlik hujjatlarining ko'rinishi** O'zDSt:2.102-68. "Ko'rinishlar va konstrukturlik hujjatlarining kompleksligi" ga muvofiq hamma sanoatning sohalari konstrukturlik hujjatga grafik va tekstli hujjatlar, ya'ni alohida yoki birligida buyumning tarkibi va tuzilishini aniqlaydi va uni tayyorlash va yangi loyiha ishlab chiqish, tekshirish, qabul qilish, ekspluatatsiya va ta'mirlash uchun kerakli hujjatlami saqlaydi.

Grafik konstrukturlik hujjati buyumning grafik tasvirini yoki uni tarkibiy qismini tuzilishi va ishlash printsipini, uning ichki va tashqi funksional, bog'lanishlarini aks ettiradi. Tekstli konstrukturlik hujjatda asosan tekst saqlaydi-butun yoki bo'laklarga ajratilgan jadval (unda grafik materiali ilyustratsiya ko'rinishda bo'lishi mumkin). Hamma konstrukturlik buyumning chizmasi va spetsifikatsiyadan tashqari yozma harflardan tashkil topgan shifr va spetsifikatsiyaga ega. Grafik konstrukturlik hujjatlar quyidagilarga bo'linadi.

**Buyumning chizmasi** – buyumning tasvirini va boshqa ma'lumotlami saqlaydigan, tayyorlash va nazorat qilish uchun kerak bo'lgan hujjat.

**Yig'ma chizma** – yig'ma birlikni tasvirini va boshqa ma'lumotlami, uni yig'ish (tayyorlash) va nazorat qilish uchun saqlanadigan kerakli hujjat. Yig'ish chizmalariga elektromontaj, gidromontaj va pnivmatik chizmalar ham kiradi.

**Umumiy ko'rinish chizmasi** - birikmaning konstruksiysi uning

tarkibiy qismini o'zaro bog'liqligi va biriktirish, ishlash printsipiga berilgan tuchunturuvchi hujjat.

**Nazorat chizma** – birikmaning geometrik shaklini va tarkibiy qismini koordinatalarini joylashishini aniqlovchi hujjat.

**Gabarit chizma** – birikmani kontur (soddalashtirilgan) tasvirini saqlovchi va uning goborit o'matish va biriktirish o'lchamlari keltirilgan hujjat.

**Montaj chizma** – birikmani kontur (soddalashtirilgan) tasvirini saqlovchi shuningdek uning o'matiladigan joyidagi zarur hujjat.

**Sxema** – birikmani yoki uning tarkibiy qismlarini va ulaming o'zaro bog'lanishini shartli ravishda tasviri ko'rsatilgan hujjat.

**Spetsifikatsiya** – tekslik hujjatni asosiy ko'rinishi - yig'ma birlikni tarkibini, kompleks yoki komplektni tarkibini aniqlaydi. U birikmani tayyorlash, konstrukturlik hujjatlarini komplektlash va birikmani ishlab chiqarishga chiqarishni rejalashtirish uchun kerak. Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari konstrukturlik hujjatlamining har xil mahkamalar, tuchuntirish xati, texnik shartlar, jadval, hisoblar, ekspluatatsiya va remont hujjatlari va boshqalar. Konstrukturlik hujjatlarini loyihalash darajasiga qarab loyiha va ish hujjatlariga bo'linadi. Loyerha hujjatlariga texnik talablar eskiz va loyihalari kiradi, ish hujjatlariga buyumlar va ulaming tarkibiy qismlarini ishlab chiqarish, nazorat qilish, ishlash va ta'mirlash uchun zarur bo'lgan ish hujjatlari kiradi.

Qo'llanish usuli va foydalanish xarakteriga qarab konstrukturlik hujjatlari quyidagi usullarga bo'linadi.

**Orginal** – istalgan materialda bajarilgan va asl nusxalar uchun mo'ljalangan hujjat.

**Asl nusxa** – ko'plab nusxa ko'chirish imkoniyatini beradigan materialdan bajarilgan va maxsus shaxslaming asl imzolari bo'lgan rasmiylashtirilgan hujjat.

**Dublikat** - asl nusxaga teng, istalgan materialda bajarilgan, undan ko'p marta nusxa olishga yaroqlik, hujjat chiqarish uchun mas'ul shaxsni imzosib bilan rasmiylashtirilgan hujjat.

**Nusxa** – asl nusxa yoki dublikat bilan bir xillikni saqlab qolish usuli bilan bajarilgan hujjat bo'lib buyumning loyihalashda, ishlab

chiqarishda ishlatalish va ta'mirlanishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Konstrukturlik hujjalari bir marta foydalanishga mo'ljallangan bo'lib uni eskiz ko'rinishda nomlari keltirilgan hujjalarni bajarishga ruxsat beriladi. (original, asl nusxa, dublikat, nusxa). Yangi loyihalani ishlab chiqarish bosqichlariga bog'liq holda hujjalarni loyihali va ishchiga bo'linadilar, ulaming har biriga tegishli bitta harf bilan belgilangan litr beriladi. Misol uchun: T-texnik loyiha hujjati, O-tajriba partiyasi hujjati, A-o'matuvchi seriya hujjati, B-qaror topgan ishlab chiqarish hujjati. O'quv chizmalariga shartli ravishda U litrini berish mumkin. O'zDSt:2.103-97 bilan yangi ishlab chiqarish loyihasi alohida bosqichlarda hujjalarni quyidagi tartibda o'matilgan.

**Texnik taklif** texnik va texnik iqtisodiy asosga ega bo'lgan buyumning hujjalarini ishdab chiqarishda maqsadga muvofiq texnik topshiriq va masalani yechishning har xil variantlari asosida konstrukturlik hujjalarning birligi.

**Eskiz loyihasi** konstrukturlik hujjalami birlashgani bo'lib, tarkibida asosiy konstruksiya masalalami xal qilish uchun va birikmani ishlash printsipi va uni tuzilish haqida umumiylar ma'lumot beradi. Eskiz loyihasi texnik loyihalashni ishlab chiqarish uchun asos bo'ladi.

**Texnik loyiha** – konstrukturlik hujjalami birlashgani bo'lib, eng so'ngi texnik yechimga ega bo'lgan va ishlab chiqilayotgan buyumni tuzilishi va ishlash printsipi haqida umumiylar tuchuncha beradi va ishechi hujjatni ishlab chiqish uchun boshlang'ich ma'lumot bo'ladi. Ishechi hujyat bevosita buyumning tayyorlash, nazorat qilish, buyumni va uni tarkibiy qismini ta'mirlash uchun mo'ljallangan. Har bir buyum ishlab chiqarish jarayonida asosiy va qo'shimcha konstrukturlik hujjalami to'liq komplekti bilan taminlangan bo'lishi kerak. Yig'ma hirikmalar, komplekslar va komplektlar uchun asosiy konstrukturlik hujjalarni spetsifikatsiya, detall uchun detallning chizmasi bo'ladi. Konstrukturlik hujjalari komplekt tarkibi spetsifikatsiyada ko'rsatiladi.

1. Chizmaga umumiylar talab. Buyumning chizmalari Davlat standartlari KXYaT O'zDSt:2.104-97, O'zDSt:2.01-97.... O'zDSt:2.316-97 va boshqalarda ko'rsatilgan qoidalarga to'liq amal

qilngan holda bjarilishi kerak. O'zDSt:2.109-97 chizmalariga asosiy talablarni belgilaydi.



2. Hamma chizmalar ulaming tartibli hisobga olshini rostional usulini hisobi bilan bajarishga amal qilish kerak. Buning uchun har chizma O'zDSt:2.301-97 bilan belgilangan alohida formatli varaq qog'ozda bajargan bo'lishi kerak. Bunda asosiy yozuv va unga qo'shimcha grafa O'zDSt:2.104-97 ga muvosiq bo'ladi. A 4 format qog'ozida asosiy yozuv uning faqat qisqa tomonining bo'yiga joylashtiriladi. (135-chizma, a), boshqa format qog'ozlarida uzun tomonida qanday bo'lsa qisqa tomonida ham shunday. (135-chizma, b,v). Chizma belgilangan qo'shimcha grafik A4 formatda va A4 formatda katta bo'lganda asosiy yozuvni format qog'ozni uzun tomonini bo'yiga joylashtirilganda (135-chizma, v), asosiy yozuvga parallel ravishda chap yuqori burchakga joylashadi. (belgilovchi yozuv asosiy yozuvga nisbatan 180° burilgan bo'ladi). A4 format qog'ozida kalta va asosiy yozuvni qog'ozni qisqa tomonining bo'yini bo'ylab joylashtirilganda qo'shimcha grafa asosiy yozuvga perpendikulyar qog'ozni o'ng yuqori burchagiga joylashtiriladi. (135-chizma).

3. Chizmada tasvirlar soni minimum bo'lishi (ko'rinish, qirqim, kesim, tashqariga olib chiqilgan element) lekin buyumning shaklini va uni hamma konstruktur elementlari to'liq ko'rsatilishi kerak (teshik, o'yiq, ariqcha, faska, qirra va boshqalar).

4. Har bir chizmani sonlik-harsli belgilanishi bo'lishi kerak (nomer). Chizmalarga belgililar (va boshqa konstruktiv hujjatlarga) O'zDSt:2.201-80 bo'yicha beriladi.

5. Chizmalardagi hamma yozuvlar imkonli boricha qisqa bo'lishi va qabul qilingan terminalarga mos bo'lishi kerak. Chizmaning asosiy yozuvidagi va spetsifikatsiyadagi buyumlami nomi bosh kelishikda va birlamchii ko'rinishida yoziladi.

Misol: "Vtulka", "Korpus". Agar nomlanish bir qancha so'zdan iborat bo'lsa, unda birinchi o'ringa ot kelajagi yoziladi. Misol: "G'ildirak tishli". Materialni markazi standartda belgilanganga mos ravishda yoziladi.



135-chizma

6. Buyumning chizmasida uning o'lchami, chekli - chetga chiqish, g'adir-budirlikni belgilash, qoplash va qaysi buyum yig'ishdan oldin mos kelishi ko'rsatilishi kerak.


7. Eski chizma ish chizmasidan hech qanday farq qilmaydi. Uni mashinasozlikdagi qo'ida va shartliklarga amal qilgan holda bajarildi. Lekin bu chizma vaqtinchalik xarakterga ega, undan faqat bir martada foydalaniлади va uni rasmiylashtirishni o'ziga hos xususiyati bilan aniqlanadi.

#### **4.4. Buyumni tasvirlashtagi shartliklar va soddalash tirishlari.**


Buyumning ish chizmasida shu buyumni tasviri chizilgan bo'ladi va u haqida har hil ma'lumotlar belgilangan qoidaga mos holda ko'rsatilgan. Chizma chizish bu ko'p mehnat, hamma qoidalami bilishni talab qiladigan ish va uning uchun aniq malaka bo'lishi kerak. Chizma chizishning oqilona tashkil qilish usullaridan biri O'zDSt:2.305-68 ga muvofiq kiritilgan shartliklar va standartlardir. Bu standart o'zidagi hamma soddalash tirishlar va qisqartirishlar qo'llashni ruxsat beradi. Lekin majbur qilmaydi, ayniqsa o'quv jarayonida. Ammo bu ma'lumotlami bilmasdan ko'p ishlab chiqarish chizmalarini o'qish imkonи bo'lmaydi.

**Tasvirlar sonini ularning o'lchami va chizma chizishni sermehnatligini kamaytirish uchun quyidagi soddalash tirishlar qo'llanadi.**

1. Agar ko'rinishi qirqim va yoki kesim simmetrik shakldan iborat bolsa u holda tasviming hammasini chizmasdan uning yarmini chizish mumkin (136-chizma, A-ko'rinish) yoki yaridan ko'prog'ini uzilish chizig'i bilan chegaralab ko'rsatish mumkin. (136-chizma).



136 - chizma



137 - chizma

2. Buyumda bir qancha bir xil joylashgan elementlar bo'lsa tasvirda faqat bitta yoki ikkita elementni ko'satish mumkin, misol bitta yoki ikkita teshikni (177-chizma,a), bitta kegay (spitsa) (137-chizma, a) qolganlari esa soddalashgan yoki shartli (markaziy va o'q chiziqlar o'lchamlari) lekin bunda hamma elementlami joylashishini aniqligi saqlangan bo'lishi kerak. Agar buyum bir xil joylashgan elementlaridan tashqari, chizmani tushunishni qiyinlashtiradigan konstruktiv xususiyatga ega bo'lgan element bo'lmasa, unda chizmada buyumning faqat bir qismni ya'nii qaytariladigan element tasvirlashga standart ruxsat beradi. (137-chizma, b). Hamma hollarda elementning soni va joylashishi haqida ko'satma berilishi kerak.


3. Dimaloq flanesda joylashgan va qirqim bajarilganda kesuvchi tekislikka tushmagan aylananing joyini (dumalatib) qirqim tekisligi bilan o'zgartirishga standart ruxsat beradi. (138-chizma).

4. Tasvir tekisligi og'ma joylashgan kegayli (spitsa) buyumda qirqim bajarilganda kesuvechi tasvir tekisligiga og'ma joylashgan tekislikga tushmagan kegayni kesuvechi tekislik o'qi bilan usta-ost joylashguncha aylantirish kerak. (137-chizma, a).


5. Chizmada tasvirlar sonini kamaytirish mumkin, agar mrankab qirqim qo'llanilsa (138-chizma).

6. Tishlik g'ildirakni gupchakidagi va shkifdag'i teshikni shuningdek shponka o'yig'ini shaklini tasvirini ko'rsatish kerak bo'lsa buyumning to'liq ikkinchi tasviri o'miga faqat teshikni yoki o'yiqni konturini ko'rsatish kifoya bo'ladi ya'ni uzuq chiziqsiz mahalliy ko'rinish bajariladi. (139-chizma, a, 140-chizma, b).

7. Ko'rinishni o'zida tasvirlagan tasvirdan foydalanish mumkin, ya'ni buyumning kuzatuvchi bilan kesuvechi tekislik orasida bo'lagini bir qismini qirqimda bevosita yo'g'onlashgan shtrix punkti chiziq



138 - chizma




139- chizma

bilan tasvirlashga ruxsat beradi. (139-chizma, b).


8. Sirtlami kesishgan chiziq'ini ishlab chiqarish talabida chizma aniq chizish kerak bo'lmasa u holda soddalashtirib ko'rsatish mumkin.

Unga katta bo'lmagan o'lchamlada egri chiziq to'g'ri chiziqni to'g'ri chiziq bilan almashtirish mumkin (140-chizma) ya'ni lekaloli egri chiziqni o'miga yoki aylana o'tkazish mumkin.


9. Kesim chizig'ini tasvirini ham soddalashtirib tasvirlash mumkin. Bunda lekalolik egri chiziqni aylana yoki to'g'ri chiziq bilan almashtirish mumkin. Misol uchun, buyumning konus qismini uning o'qiga parallel tekislik bilan kesishishidan hosil bo'lgan giperbola o'miga ikkita aylana yoyiga urinma bo'lgan to'g'ri chiziq o'tkaziladi. (142-chizma). Katta yowni egriligini buyumning sféra qismi bilan kesuvchi tekislikni kesishgan natijasi, kichik yoyining egriligini hosil bo'lgan kesik chizig'ini xarakterini hisobga olgan holda ixtiyoriy tanlanadi.




140- chizma



141- chizma




142- chizma



143- chizma

10. Bir sirtda ikkinchi sitrga silliq o'tishni ingichka tutash chiziq bilan ko'rsatish mumkin (141-chizma) yoki umuman ko'rsatilmaydi. (143-chizma). Agar chiziq o'tkazilsa u holda uni sirtni kontur chizig'igacha chizilmaydi. (143-chizma, b.v).


11. Bir xil elementlari (olti qirra, kalit uchun o'yiq va boshqalar) bo'lgan buyumning tasvirini qisqartirish uchun tekst yozib qo'yish kerak, misol, "S 14 kalit uchun" chizilgan tasvimi oldiga yoziladi. Bu buyumni ikkinchi tasvirini (144-chizma, a) chizish uchun tekst yozishga qaratganda ko'p vaqt sariflanadi. (144-chizma,b). Yupqa materialdan tayyorlangan buyum (shayba, ziehlagich) yoki prokatni (burchak, shveller) ham bitta tasvirda uning qaliligi "S 0,5" yoki




144- chizma

uzunligi "1 200" ko'rsatib bitta tasvirda chizish mumkin. (145-chizma). O'zDSt:2.305-68 quyidagi shartlarni qo'llashga ruxsat beradi.

1. Buyumning kegay (spitsa), mustahkamlik qirrası, yupqa devorecha, qulq va boshqalar qirqimda shtrixlanmasdan ko'rsatiladi. (137-138-chizmalarga qarang). Agar kesuvchi tekislik buyumning elementni o'qi yoki uzun tomoni bo'ylab yo'nalgan bo'lsa. Kesuvchi tekislik elementni uzun o'qiga perpendikulyar yo'nalgan bo'lsa, u holda kesim shtrixlanadi. (137-chizma, a ga qarang). Buyumning



145- chizma




146- chizma

bunday elementlarida teshik, o'yiq, chuqurcha bo'lsa ulami chizmada ko'rsatish uchun mahalliy qirqim qo'llaniladi. (138-chizma).


2. Uzun vol va shpindel, shatun, shtok, bolt, vint, shpilka, shtift, parchin mix, shponka va boshqalar bo'ylama qirqimda kesmasdan ko'rsatiladi. Shar har doim kesmasdan ko'rsatiladi.

3. Uzun buyumlar (yoki buyumning elementi), o'zgarmas yoki qonuniyni o'zgaruvchi ko'ndalang kesimga ega bo'lsa (val, shatun, zanjir, fasonlik prokat, chiviq (prutok) va boshqalar) ulami uzib ko'rsatishga ruxsat beriladi. (146-chizma). Uzilishga qaramasdan buyumning haqiqiy uzunligi ko'rsatiladi.

4. Buyumni tasvirlaganda konuslik yoki qiyalik ko'rinishda aniq ko'rinas (ustidan ko'rinishda 147-chizma), konuslik yoki qiyalik bo'lgan sirtga o'tganda yuma loqlashgan bo'ldi.



147-chizma



148-chizma

Bu hollarda faqat bitta ingichka tutash chiziq qiyalik elementni kichik o'lchamiga yoki konusning kichik asosiga mos chiziq o'tkazamiz. Bu chiziqni holatini aniqlash uchun ikkinchi tasvirda kontur chiziqlarni davomini kesishgan nuqtasini aniqlash kerak.

5. Agar buyumning tasivrida kvadrat teshik yoki kvadrat (liska) qism bo'lsa bu buyumlaming tekis sirtini ajratish kerak. Buning uchun kvadratning diagonalini ingichka chiziq bilan o'tkazish kerak. (139-chizma, b).

6. Agar asosiy tasvirda buyumning mayda qismini mukammal ko'rsatishni iloji bo'lsa u holda tasvirdan tashqariga olib chiqilgan elementni qo'llash kerak.

**Chetga chiqarilgan element** deb buyumning qandaydir qo'shimcha alohida tasviriga aytildi. Bunda buyumning bir qismini shakli, o'lchami va boshqa ma'lumotlar hamda tushintirishlar talab qilinadi. Chetga chiqarilgan element "asosiy" tasvirda ko'rsatilmagan


tegishli to'liq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin va ma'nosi jihatidan farq qilishi mumkin (masalan: tasvir bo'lishi mumkin ko'rinish, chetga chiqarilgan elementni-qirqimi). Agar chetga chiqarilgan element q'llanilgan bo'lsa, u holda ko'rinish tashqariga chiqarilgan joy, qirqim yoki kesim yopiq tutash ingichka chiziq-aylana, oval va boshqalar hamda rim raqami bilan belgilanadi. Rim raqamini tartib nomeri chetga chiqarilgan elemetni ko'rsatilgan chiziqni tokechasiiga yoziladi. Chiqarilgan elementda son va masshtabni quyidagicha ko'rsatiladi.

$M2:1$

(148-chizma, b). Chetga chiqarilgan elementni iloji boricha buyumning tasvirini tegishlik joyiga yaqin joylashtirish kerak.

7. O'zDSt:2.109-73 quyidagi shartlikni belgilaydi: agar bukish bilan tayyorlangan buyumning tasviri uning alohida elementlarini haqiqiy shakli va o'lchami haqida to'liq ma'lumot bermasa u holda chizmada buyumning bir qismi yoki to'liq yoyilmas berilishi kerak. Yoyilma tasvirida tayyor buyumda ko'rsatilishi iloji bo'lмаган о'lcham ko'rsatiladi. Yoyilma konturga tutash asosiy chiziq bilan tasvirlanadi. Bunda yoyilmani kontur chizig'ini qalinligi asosiy tasviridagi ko'rindigan tutash chiziqni qalinligiga teng bo'lishi kerak. Yoyilmaning tasvirini tepasiga "Yoyilma" so'zi yoziladi. (149-chizma).


Zaturiy bo'lsa yoyilmaning tasvirida bukish chizig'i ingichka



149-chizma

ikkita nuqtali shtrix punktir chiziq bilan belgilanadi va chiqarish chizig'ini tokchasiga "Bukish chizig'i" deb yoziladi.

Chizmaning yaqqolligini yo'qotmagan holda yoyilmani bir qismini buyumning ko'rini'shi bilan birga tasvirlash mumkin. Bu holda yoyilma ikki nuqtali shtrix punktir chiziq bilan tasvirlanadi va "Yoyilma" yozuvi yozilmaydi. (150-chizma).



150-chizma

#### 4.5. Rezbani shartlik belgilash va tasvirlash.

**Rezba haqida umumiy tuchuncha.** Ko'p mashinalami buyumlari (detallar) rezba yordamida biriktiriladi.

**Rezba** - bu silindrik yoki konus sirti bo'ylab tekis kontur vintsimon harakatidan hosil bo'lgan sirt. Tekis kontumi bunday harakatidan vintlari va silindirli yoki konusli sirtlar bilan chegaralangan va tegishli profili vintl turtib chiqqan joy (bo'rtiq, do'ng) hosil bo'ladi.

Silindr yoki konus turtib chiqqan joy bilan birga vint deyiladi.

Rezba kesilgan sirtning shakliga qarab rezbalari (silindrik, konuslik), rezba sterjenini sirtida joylashishiga (tashqi yoki ichki), profil shakl (uchburchak, to'g'ri burchak, trapetsiya, dumaloq va boshqalar) bajaradigan vazifasi (biriktiruvechi, mustahkamlaydigan, mustahkamlab zichlaydigan) biriktiriladigan yurgizadigan, maxsus va boshqalar, sirt vintining yo'nalishiga (o'ng va chap) va krim soniga (bir krim ko'p krim) qarab tasniflanadilar. Hamma rezbalari ikki guruhgaga bo'linadilar: standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan.


Standartlashtirilgan rezbalarning parametri (profil, qadami va diametri) standart bilan aniqlangan. Standartlashtirilmagan rezbalari yoki maxsus rezbalami parametrlari standartga to'g'ri kelmaydi.

**Rezba turlari.** Rezba turlarini uning profili aniqlaydi ya'ni rezbaning o'qi orqali o'tgan tekislikda hosil bo'lgan kontur. (151,152,153,154,155-chizmalar).


Metrik

Trapetsimon


Tirak



151 -chizma




152 -chizma




153 -chizma

Yumolaq



154 -chizma

To'g'ti burchakli




155 -chizma


O'zDSt:2.708-97 bo'yicha rezbani asosiy o'lchovlari quyidagilar: rezbani tashqi diametri d-tasavvur qilinayotgan konus yoki silindrning diametri, tashqi rezbaning uchini atrofiga tashqi chizilgan yoki ichki rezbani botgan joyi, rezbaning ichki diametri  $d_i$ -tasavvur qilinayotgan silindr yoki konusni diametri, tashqi rezbani botgan joyiga chizilgan yoki ichki rezbani uchi, silindrik rezbani qadamni P-profilni qo'shni o'ramlar orasidagi yasovchi bo'ylab rezbani o'qiga parallel yo'nalishda o'lchangan masofa, silindrik rezbaning yo'lli t-rezbani o'qi yo'nalishda o'lchangan masofa (156-chizma). Vint (gayka) o'q atrofida bir marta aylanganda rezbani yo'lliga teng masofaga siljiydi. Bir kirumlik rezbada yo'l qadamga teng bo'ladi. Ko'pyo'llik rezbalarda yo'l qadamni qirqim soniga ko'paytmasi teng ya'ni  $n = P \times n$ .

Konus rezbalar uchun hamma diametrlar asosiy tekislikga

o'matiladi. Asosiy-bu mo'ljallangan kesim tekisligi, u rezba o'qiga perpendikulyar va konusning bazasidan 1 masofada joylashadi. (157-chizma). Konus rezbaning qadami rezbaning profilning qo'shni uchlarini birlashtiruvchi kesmaning konus o'qidagi tasviri.



156 -chizma



157 -chizma

**Mustahkamlaydigan rezba** - buyumlami siljitmaydigan qilib biriktirishga mo'ljallangan. Mustaxkamlaydigan rezba sifatida metrik va dyuymlik rezbalardan foydalaniлади. Mahkamlaydigan va zichlaydigan rezba asosan buyumlami tig'iz, zich (havo kirg'izmaydigan va chiqarmaydigan) qilib biriktirishga mo'ljallangan.

**Yurgizuvchi rezbalar** - ko'p kuchlanishini va xarakatini, tokorlik stanokini, yuk ko'taruvchi qurilmani va boshqalami yurgizuvchi vintga uzatish uchun qo'llaniladi. Yurgizuvchi sifatida trapetsik, tirakt, to'g'ri burchakli va yumaloq rezbalar qo'llaniladi. Ular bir kirimlik va ko'p kirimlik bo'lishi mumkin.


### Rezbalar ni shartli belgilash.

**Metrik rezba.** Metrik rezbaning profilini teng tomonlik uchburchak bo'lib, uchidagi profil burchak  $60^\circ$  ga teng bo'ladi. (151-chizma). Metrik rezbaning profilini va asosiy o'lchamlari O'zDSt:9150-81, diametr va qadami O'zDSt:8724-81 bilan belgilangan. O'zDSt:8724-81 bilan metrik rezbaning 1 dan 600mm gacha bo'lgan diametri ikki xilga bo'llinadi: yirik qadam (1 dan 68mm diametr uchun) va mayda qadam (1 dan 600mm diametrler uchun). 6mm dan boshlab mayda qadamli rezbani har bir uchun bir qancha qadamlar mo'ljallangan.


Yirik qadamli metrik rezba M harfi bilan shartlik belgilanadi. U rezbaning profili va nominal (tashqi) diametrini millimetrida bildiradi. Misol: M 56, yirik qadamli metrik rezba, nominal diametri 56mm ga tengligini bildiradi.

Mayda qadamli metrik rezbalami shartli belgilashda qo'shimcha uning qadami ham ko'satiladi. Masalan, M56x3, rezbaning qadaini 3mm ga teng.

**Truba -silindrik rezba.** O'zDSt: 6.357-81 muvofiq bu rezbaning profili teng yonlik uchburchak bo'lib, uchidagi burchagi (profil)  $55^\circ$  ga teng. (158-chizma,a). Chiziqlami uchi va o'yiqlaming tubi yumaloqlashtirilgan. Har bir rezbaning o'lchamiga aniq butun sonlik qadam uni bir duyum uzunligiga belgilangan ya'nı 25,4mm ga. 158-chizma, b da ko'satilgan rezba 8 qadamga ega uning uzunligi 25,4mm, uning qadami  $1/8$  teng ya'nı 3,175mm. Rezba trubaning sirkali diametrinda yoki ichki diametrinda bajarilishdan qat'iy nazar bu yerda 1" dyuym truba (suv, gaz o'tuvchi ichki teshikni) diametrini ifodalydi va u 25,4mm ga teng. Tashqi va ichki rezbalami profilari bir biriga to'liq mos kelishi trubalik rezbalaming zinch bo'lishini taminlaydi. Truba - silindrik rezbani G harfi bilan shartli belgilanadi. Bu rezbani xilini, rezbaning o'lchamini belgilaydi. Rezbaning o'lchami rezba kesilgan truba ichki diametrining o'lchamiga teng. Tashqi diametr ichki diametrga ikkita truba qalinligini qo'yaniga teng. Misol: G1-rezba truba silindrik, tashqi diametri 33,249mm ga, trubani ichki



a)



b)

158 -chizma

diametri 25,4mm ga (bir dyuym). Chap rezbani bildinuvchi shartli belgi LH rezba o'lchamidan keyin yoziladi. Misol:  $G1 \frac{1}{2} LH$  - truba

silindrik rezba, rezbani o'lchami  $1\frac{1}{2}$  dyuym, chap rezba.

**Dyuymlik konus rezba** – O'zDSt: 6.111-52 bo'yicha uchburchakli profilga ega bo'lib profil uchidagi burchak  $60^{\circ}$  ga teng. Konusligi 1:16 (yasovchisini geometrik o'qqa og'maligi  $1^{\circ} 47'24''$ ) bo'lgan buyumning konus sirtlariga kesiladi. Dyuymlik konus rezbani shartli belgisi K harfi bilan ko'rsatiladi. Bu shartli diametr dyuymda va standarti nomeri ko'rsatiladi.

Misol: K 1 1/2" O'zDSt: 6.111-52.

**Truba konus rezba** – O'zDSt: 6211-81 bo'yicha uchburchak profilga ega bo'lib, profil uchidagi burchagi  $55^{\circ}$  ga teng va uchlari yumaloqlashtirilgan bo'ladi. Uni buyumning konus sirtiga kesiladi. Bu rezbada ham konuslik 1:16 ga teng bo'ladi. Uning asosiy tekislikdagi o'lchami truba silindrik rezbani o'lchamiga mos bo'ladi. Truba konus rezbani shartli belgisi rezbani tipi R harfi bilan tashqi rezba uchun ichki rezba uchun  $R_c$  va rezbani o'lchamini belgisi (dyuymdag'i shartli belgisi) ko'rsatiladi. Misol:  $R1\frac{1}{2}$  (truba konus, tashqi rezba shartli diametri  $1\frac{1}{2}''$  ).

**Trapetseodal rezba** – bir yo'llik trapetseodal rezbani O'zDSt: 9.484-81 bo'yicha profili teng yonlik trapetsiya ko'rinishida bo'ladi, yon tomonlari orasida burchak  $30^{\circ}$  ga teng. (152-chizma). Har bir diametrga qoida bo'yicha uchta qadam mo'ljallangan. Bir kirimlik rezbani shartlik belgisida  $Tr$  harfi tashqi diametri va qadami ko'rsatiladi. Misol:  $Tr 32x6$ .

Ko'p kirimlik trapetseodal rezba profili ham bir kirim rezbani profiliga o'xshash bo'ladi. U  $Tr$  harfi bilan belgilanadi va rezbani nominal tashqi diametri, yo'llining sonli qiymati qavsda R harfi qadam uchun va qadamni sonli qiymati ko'rsatiladi. Rezbaning nominal diametri bilan yo'li oralig'iga x belgi qo'yiladi. Misol:  $Tr 20x4$  (R2). Chapaqay rezba LH harflar bilan belgilanadi. Misol:  $Tr 80x40$  (R10)LH;  $Tr 32x6$  LH.

**Tirak rezba** - O'zDSt:10177-82 bo'yicha tirak rezbani profili teng yonlik bo'limgan trapetsiyasidan iborat bo'ladi. (153-chizma). Uning ish bajaruvchi tomoni  $3^{\circ}$  burchak, ikkinchi ish bajariladigan yoni  $30^{\circ}$  burchakni tashkil qiladi. Bunday rezbani profilining o'yiq qismi yumaloqlanadi, uchlari tekis kesilgan bo'ladi. Trapetsik rezbagaga o'hshash tirak rezba ham bitta diametrda har hil qadam bo'lishi mumkin. Tirak rezbani shartlik belgisiga rezbani xilini ko'rsatuvchi S harf, nominal tashqi diametr va rezbani qadami kiradi. Misol: S 50x8. Chap rezba uchun shartli belgidan keyin LH harfi ko'rsatiladi. Misol: S 50x8LH.


**Yumaloq rezba** - O'zDSt:6042-82 bo'yicha (Edison rezbasasi), O'zDSt:8587-7 bo'yicha (saqlovchi oynalar va elektryoritgichning korpusi uchun) O'zDSt:13536-68 bo'yicha (santexnik armaturalar uchun) va boshqalar, bir xil radiusli ikki yoyning tutashishida hosil bo'lgan egri chiziq. (154-chizma). Rezbani qo'llanilishiga qarab radiuslar o'lchami har-xil bo'lishi mumkin. Yumaloq rezbani belgilash: Yum 12x2,54 O'zDSt:13536-68 – yumaloq rezba. Sanitar-mexanik armaturalar uchun, diametri 12mm, qadami 2,54mm. Yuqorida keltirilgan rezbalardan tashqari maxsus vazifani bajaruvchi boshqa tipdagi rezbalar ham mavjud.

**Maxsus rezbalar** - maxsus rezbalar ikki ko'rinishda bo'ladi:

1. Standartlashtirilgan profil va standartlashtirilmagan qadami va diametrini o'lchami. Bunday rezbani Ma harfi bilan belgilanadi. Bu rezbaning maxsusligini bildiradi. So'ngra rezbaning profili, tashqi diametrlar o'lchami va qadami ko'rsatiladi. Misol: Ma M60x3,5, bu rezba maxsus, metrik uning tashqi diametri 60mm va 3,5mm mayda qadami nostandart.
2. Nostandart profil. Bunday rezbalami profili tashqariga olib chiqilgan clement ko'rinishida kattalashtirilgan masshtabda tasvirlanadi va undan hamma o'lchamlar va boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi. Io'g'ri burchakli rezba nostandart bo'ladi.







**Rezbaning konstruktiv va texnologik elementlari.** Tashqi rezbani alohida standartda stregenni birma - bir dumalatib yoki rezbalik kesgich, freza va plashka yordamida kesiladi. Ichki rezbani ko'proq metchik yoki kesgich yordamida kesildi. Plashki va metchik oldindan tayyorlangan sterjenga va oldindan tayyorlangan teshikga rezba kesish uchun qo'llaniladi. (159-chizma a,b).

Rezba kesadigan asbobning chiqish qismi rezba sbegini hosil qiladi – bu profili to'liq bo'lмаган va asta sekin kamayib boradigan qism. Sbeg rezbaning ishechi qismi hisoblanmaydi. Shuning uchun buyumning rezba kesilgan qismini aniqlashda hisobga olish kerak. Bundan tashqari sterjenda rezbani kesilmagan qismini nazarda tutish kerak. Bu sterjenni sbegini oxiri bilan tayanch yuzani (sirtni) orasidagi rezba kesilmagan qismi. Rezbani sbegi va rezba kesilmagan qismi birligida rezba kesib yetkazilmagan qismini hosil qiladi. Sterjennning hamma uzunligida yoki teshikda sifatlari rezba hosil qilish uchun halqasimon ariqcha bajariladi. Rezba kesuvchi asbobning rezba qirquvchi qismi shu halqasimon ariqchadan chiqadi. Sterjendagi halqasimon ariqchani diametri dt, kesilayotgan rezbani ichki diametidan kichik yoki teshikdagi halqasimon o'yiqchani diametri du, rezbaning tashqi diametrinda katta bo'lishi kerak.(160-chizma a,b).



159 -chizma

Rezbalik buyumning kerakli konstruktiv elementlaridan biri faska-silindir yoki konussimon sterjenlami yoki teshikni qirrasini konus ko'rinishida kesish.(160-chizma a,b,g).



161-chizma

162-chizma

Faska buyumlami biriktirishni osonlashtiradi, ularni tashqi ko'rinishi yaxshilaydi, buyumning ko'ndalang kesimidagi kesuvchi o'tkir qirrani

yo'qotadi. Rezbani yaroqsiz holga kelishdan saqlaydi. Ayrim hollarda yuqorida keltirilgan hollami bo'lmasligi uchun sterjenni uchi shar ko'rinishida kesiladi. (160-chizma, v).


**4.6. Rezbalarни чизмада тасвирлар.** O'zDSt:2.311-68 ga muvofiq rezbalar shartli tasvirlanadilar. Sterjenga kesilgan rezba tashqi diametri bo'yicha tutash asosiy chiziq, ichki diametri bo'yicha tutash ingichka chiziq bilan tasvirlanadi. (161-chizma). Rezbani sterjeni o'qiga parallel bo'lgan tekislikdag'i hosil bo'lgan tasvirda, rezbani ichki diametri bo'yicha tutash ingichka chiziq bilan rezbani hamma uzunlik bo'yicha sbegsiz chiziladi. Sterjenni o'qiga perpendikulyar bo'lgan tekislikda hosil bo'lgan ko'rinishda rezbaning ichki diametri bo'yicha aylanining taxminiy  $\frac{3}{4}$  qismiga teng aylana yoyi chiziladi.

Aylana xohlagan joyda uzulish mumkin. Lekin o'qda uzulishiga maslahat berilmaydi. Rezbani chegarasi aniqlaydigan chiziqnini uning profilini to'liq oxirigacha chiziladi (sbeg boshlanishidan oldin).

Bu chiziqnini tutash asosiy chiziq bilan rezbani tashqi diometriga o'tkaziladi.(161-chizma a). Rezbani chegarasi ko'rinemaydigan bo'lib tasvirlangan bo'lsa, u holda uning chegarasini tashqi diometriga shtrix punktir chiziq bilan chiziladi. (161-chizma, v). Teshikdag'i rezba qirqimda chizilganda ichki diametri bo'yicha asosiy tutash chiziq bilan, tashqi diametr bilan ingichka tutash chiziq bilan chiziladi. (162-chizma, a).


Teshikning o'qiga perpendikulyar bo'lgan tekislikdag'i tasvirda rezbani tashqi diametrida bo'yicha taxminan aylana  $\frac{3}{4}$  qismiga teng istalgan joyda uzilgan yoy ko'rinishida chiziladi. Teshikdag'i rezbani chegarasi tutash asosiy chiziq bilan chiziladi va uni rezbani tashqi diometrigacha davom ettiriladi. (162-chizma, v).

Sterjenda bajarilgan qirqim va kesimlarda shtrix chizig'ini rezbaning tashqi diometrigacha, teshiklarda ichki diometrigacha chiziladi ya'ni ikki holda ham asosiy tutash chiziqqacha. (162-chizma, v). Agar rezbali teshik ko'rinasmas chiziq bilan ko'rsatilgan bo'lsa, u holda rezbani shtrix punktir chiziqqacha parallel va u bilan bir xil qal ninlikdag'i chiziq bilan ko'rsatiladi. (163-chizma).




163-chizma

Teshikdagi rezba qirqimda yanada yaqqol ko'rindi. Rezbani tasvirlaganda tutash ingichka chiziqni ingichka tutash chiziqdagi 0,8mm dan kam bo'limgan va rezbani qadamidan katta bo'limgan masofada chiziladi. Rezbali sterjenda va teshikda faska agar alohida konstruktiv maqsadga ega bo'lmasa, sterjen yoki teshikni o'qiga perpendikulyar bo'lgan tekislikdag'i tasvirda ko'rsatilmaydi. (161,162-chizma, a ga qarang). Sterjendagi rezbani tasvirida tutash ingichka chiziq faskani chegarsini kesib o'tishi kerak. (161-chizma, a). Sterjenda va teshikda rezbaning o'lehami uzunligi sbegsiz ko'rsatiladi. (164-chizma a,b)




164-chizma

Agar rezbani uzunligini sbeg yoki sbegni o'lehami bilan ko'rsatish kerak bo'ssa, o'lehamlarni 164-chizma, v.g da ko'rsatilgandek qo'yiladi. Rezbali bir tomoni bek teshiklar uya deb ataladi. Uya, teshik teshilganda konus bilan tugallanadi (sverlo uchi konus shaklida bo'ladi). Agar rezba chegarasini va uni kesilgan qismini aniq ko'rsatish zarur bo'lmasa u holda rezbani oxirigacha tasvirlash mumkin (165-chizma) va uyaning konus qismini ko'rsatmasa ham bo'ladi. (165-chizma b). Rezbali birikmani qirqimida, uning o'qiga




parallel bo'lgan tekislikda tasvirlanganda, teshikda faqat sterjenni to'silmagan qismi ko'rsatiladi (166-chizma a,b). Nostandard profilli rezbalami 167-chizmada ko'rsatilgan usullardan birida hamma o'lchamlari bilan tasvirlanadi (o'lchamlari hariflarda ko'rsatiladi.).



Chizmada agar zanur bolsa qo'shimcha ma'lumotlami ham (kirim soni, rezbaning chap yo'naliishi haqida va boshqalar). "Rezba" so'zinini qo'shgan holda ko'rsatilishi mumkin.

#### 4.7. Rezbaning konstruktiv va texnologik elementlari.

Rezbaning konstruktiv va tenologik elementlari faska, rezbani sbegi, rezbani kesilmagan qismi aniq belgilangan shakli va o'lchamiga ega. O'zDSt:10.549-80 bo'yicha ko'p standartlashtirilgan rezbalami ulami rezbani qadamiga bog'liq holda aniqlanadi. Odatda buyumning chizmasida halqasimon o'yiqqacha soddalashgan holda tasvirlanadi lekin chizmani tashqarisiga olib chiqilgan element bilan to'ndiriladi.






168-chizmada tashqi va ichki rezba uchun I halqasimon o'yiqni tasvirini misol tariqasida ko'rsatilgan. Metrik rezbalik sterjenda yoki teshikdag'i konusli faska konus shaklidagi bo'lib uchidagi burchak  $90^\circ$  ga (160-chizma, a,b) yoki gaykada  $120^\circ$  ga teng bo'ladi. (160-chizma, g). Konstruktiv va texnologik elementlar Chizmasini bajarganda ko'pincha o'lchamlari shartli o'zaro nisbatda ta'sirlanadi. Lekin O'zDSt:2.311-68 da belgilangan qoida bo'yicha. P qadamli metrik rezba uchun quyidagi o'zaro nisbat qo'llaniladi. (169-chizma): tashqi faska va ichki rezba  $c \approx P$ , tashqi rezbaning sbegi  $l_1 \approx 2P$  va ichki rezbani sbegi  $l_3 \approx 3P$ , tashqi rezbaning rezba kesilmagan joyi

$l_2 \approx 3P$ , ichki rezbaning rezba kesilmagan joyi  $l_4 \approx 4P$  R qadamlik metrik rezbani halqasimon o'yig'ini kengiligi, tegishli rezba kesilmagan joyini uzunligiga teng qilib olinadi ya'ni  $b_1 \approx 3P$  va  $b_2 \approx 4P$  (160-chizma, a,b). Tashqi halqasimon o'yiqni diametrini  $d_1$  o'lchamini tashqi rezbaning ichki diametrik o'lchamidan ozgina kamroq, ichki halqasimon o'yiqni diametri  $d_2$  - ni ichki rezbaning tashqi diametrini o'lchamlaridan ozroq ko'p olinadi. Standart rezbalarni shartlik tasvirlari ulami to'liq xarakterlash uchun shartli belgilashlar bilan to'ldiradi. Konussimon va truba-silindrik rezbalardan tashqari hamma rezbalar tashqi diametrga tegishli bo'ladi va chiqarish hamda o'lcham chiziqlari yordamida belgilandi. Konussimon va truba-silindrik rezbalarni, rezbani tasvirida o'tkazilgan chiqarish chizig'ini polkasida belgilanadi. 4-jadvalda rezbalar belgilashga misalalar ko'rsatilgan.

Standart rezbalar




4-jadval

Rezbalarni nomi va DS №	Rezba shartli belgisi	Belgilashni mazmuni	Rezbalarni tasvirlash va belgilashga misollar
Yirik qadamli metrik DS 9150-81	M	Tipni shartli belgisi, rezbani nominal diametri mm	
Mayda qadamli metrik DS 9150-81	M	Tipni shartli belgisi, rezbani nominal diametri mm da, qadami	
Turba silindirk DS 6357-81	G	Tipni shartli belgisi, shartli o'lcham (dyurmada) va aniqlik klassi	

#### 4.8. Buyumning o'lchamini qo'yish.

**Asosiy qoidalar.** Buyumning chizmalariga o'lcham qo'yishda O'zDSt:2.307-68 da belgilangan qoidaga amal qilish kerak. Ulaming asosiyлари 1.6- да bayon qilingan. Ish chizmasiga taluqli bo'lgan asosiy qo'shimcha qoidalarni ko'rib chiqamiz. Buyumning ish chizmasiga o'lcham qo'yish buyumning yig'ma birlikda ishlash sharoiti uning tayyorlash texnologiyasi bilan bog'langan.

Davom!

Rezbalarining nomi va DS №	Buzb. va shartli shartli shartli	Belgilashni mazmuni	Rozbalarni tasvirlash va belgilashga misol
Truba konusli, DS 6211-81, tashqilchki	$R$ $R_c$	Rezbalar tipini shartli belgisa va o'lchamli belgisi	
Dyurmlı konus, profil buragi 60°, DS 6111-52	K	Tipni shartli belgisi shartli dijametr dyumda va standart nomeni	
Trapezsiya simon bir kirimli DS 9484-81	T	Tipni shartli belgisi, shartli dijametr dyumda va standart nomeni	
Tirak, DS 10177-82	S	Tipni shartli belgisi, nomenal dijametri nimda, rezbani qadami	

**O'lchamlari:** Chizmalardagi o'lchamlar uch guruhga bo'linadi:

1. Gabarit ya'ni (eng katta), buyum uzunligi, bo'yи va eni (yoki qalinligi).

2. Buyumning elementlari.

3. Buyum elementlarining o'zaro joylashuvini aniqlovchi.

Buyumning elementlarini o'zaro joylashuvi holatini aniqlovchi o'lchamga, aylanalami markazi orasidagi o'lcham, aylaning markazidan buyumning qirrasi va ko'ndalang kesimigacha, teshikni devorigacha, o'yiqqacha, tirqichgacha, teshikgacha, turtib chiqqan joyigacha va boshqa elementlarga bo'lgan o'lchamlar kiradi. Bundan tashqari o'lchamlar bog'langan va erkin o'lchamlarga ajratiladilar. Bog'langan o'lchamlar, o'lcham zanjiriga kiradilar va buyumdag'i detalni holatini aniqlaydilar. Erkin o'lchamlar zanjir o'lchamiga kirmaydilar, lekin bir-biriga tegib turmagan boshqa buyumlar sirtlarini muvofiqlashtiradilar. Chizmada o'lchamlar soni kam bo'lishi kerak, lekin buyumning tayyorlash va nazorat qilish uchun yetarlik bo'lishi zarur. Tasvirlarda bir xil elementlami o'lchamhami qaytarishga ruxsat berilmaydi. Buyumni tayyorlash va nazorat qilish qulay bo'lishi uchun o'lchamlarani yuzadan, chiziq va nuqtadan ko'rsatilishi kerak. Lechin chizmalarda qo'yiladigan hamma o'lchamlar standart bilan belgilangan normal sonlar qatoridan tanlanadi. Chiziqli o'lchamning normal sonlar qatori O'zDSt:6635-69, radiuslani yumaloqlash normal qatori O'zDSt:10948-64, burchaklami normal soni O'zDSt:8908-81, rezbani chiqishi, sbegi, kesilmay qolgan qismi, halqasimon o'yiq va faska O'zDSt:10549-63, "Kalit uchun" normal o'lcham (kvadrat va oltiburchak elementlarning alohida o'lhami)- O'zDSt:6424-73, umumiy belgilangan normal diametr O'zDSt:6636-69, konusli O'zDSt:8593-86 lar bilan belgilangan.

**Bazadan o'lcham qo'yish** - ish chizmalarida buyumning o'lchamining bir qancha qator holatlami hisobga olgan holda qo'yiladi: buyumning geometrik shakli, uning konstruksiyasini xususiyatlari va bajaradigan vazifasi aniq tayyorlanishi va texnologiyasi, nazoratning qulayligi, buyumning yig'ma birlikda ishlash sharoitini ta'minlash uchun u bilan bog'langan elementlari va sirtining o'lchamini o'zaro mos lashtirish kerak. Aniq joydan o'lcham


qo'yish bilan erishilgan o'zaro moslashuv baza deb qabul qilingan. Yig'ma birlikda buyumning holatini muvoysiqlashtiruvechi nuqta, chiziq yoki sirtlar baza deb ataladi. O'lcham bazasini to'rt xil ko'rinishga ajratiladi: konstrukturlik, texnologik, o'lchami va yig'ma, ulami har biri o'zini vazifasi bor.

**Konstrukturlik baza** deb yig'ma birlikda buyumning muvoysiqlashtirilgan holatini aniqlovchi sirt, chiziq va nuqtalarga aytildi. Loyihalashda bu bazaga nisbatda buyumning boshqa elementlari yoki yig'ma birlikni boshqa buyumlar mo'ljallanadi. Hamma bir-biri bilan bog'langan o'lchamlar konstrukturlik bazadan beriladi. O'lchamlami konstrukturlik bazadan quyishi buyumning tayyorlash bilan bog'langan.

**Texnologik baza**. Texnologik baza deb sirt, chiziq yoki nuqtaga aytildi. Bunga nisbatandan buyum tayyorlanganda ishlov berilayotgan yuzaga nisbatdan mo'ljallanadi. Ulami buyumga ishlov berishi ketma-ketligini hisobga olgan holda tanlanadi. Odatta ularga erkin o'lcham beriladi.

**O'lchanadigan baza**. Tayyor buyumni o'lchaganda o'lcham hisobi bosqlanadigan sirt, chiziq yoki nuqtaga aytildi.

**Yig'ma baza**. Birikmalar yig'ilganda uning buyumlarini sirtlar, chiziqlar va nuqtalarga nisbatdan mo'ljal qilinishiga aytildi. Har bir baza ko'rinishi uchta bosh yo'nalish bo'yicha olinishi mumkin. Bu buyumni uzunligini kengili va balandligi ayrim hollarda qiya



170-chizma


yo'nalishni uzunligi odatta konstrukturlik va texnologik bazalami bir-biriga to'g'ri kelishiga intiladi. Bu o'lcham zanjirini hisoblashni va

qo'yimni hisoblashni yengillashtiradi. Lekin buyumni konstruktiv va texnologik talablarini hisobga olgan holda o'lcham qo'yishga hamma vaqt ham imkon bo'lmaydi. Misol: teshikka konstruktiv talablami hisobga olgan holda faskaning o'lchamini (170-chizma, a) qo'yish texnologiyasini talablari hisobga olgan holda o'lcham qo'yishga to'g'ri kelmaydi. (170-chizma, b). Birinchi holda konstruktiv mulohazalami hisobga olgan holda faska kesilgandan keyingi konusning katta asosini diametri berilgan. Ikkinci holda faskani cho'nqirligini o'lchami ya'ni sverloni qancha pastga tushishini aniqlovchi o'lcham qo'yilgan. Buyumda bitta emas bir qancha baza bo'lishi mumkin, shu bilan birga ulardan biri asosiy hisoblanadi. Qolganlari yordamchi bo'ladi. Har bir yordamchi baza asosiy bazadan mo'ljallangan bo'ladi. Bazadan qo'yiladigan o'lchamlar iloji boricha asosan bitta tasvirda qo'yiladi (xatoni bartaraf qilish uchun). O'quv chizmada o'lcham qo'yilganda yig'ma birlikda alohida buyumning holatini aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun odatda texnologik bazadan foydalaniladi. O'lcham baza sisatida ko'ndalang kesim, o'yiq joy, qirra, tayanch joy va boshqa sirtlar, simmetrik o'qi, markaziy va bosliqa chiziqlar, nuqtalar ya'ni bulardan o'lchamni ko'rsatish va o'lchash qulay. O'lcham qo'yish usuli o'lchamni bazasini tanlashni aniqlaydi. Amaliyotda uchta o'lcham qo'yish usuli qo'llaniladi: zanjir, koordinata va kombinatsiyalan-gan. (171-chizma).

**Zanjir usuli.** Bu usulda o'lchamlar ketma-ket qo'yib zanjir ko'rinishida bo'ladi (171-chizma, a) va buyumning alohida qismi ishllov berilishini ketma-ketligini aniqlaydi. Bunday usulda har bir keyingi o'lcham ya'ni bazadan aniqlanadi. Markazlar orasidagi masofani ko'rsatishda, pog'onalik buyumni har bir elementini o'lchamini qo'yishda bu usuldan foydalaniladi.


**Koordinata usuli.** Koordinata usulda o'lchamlar bitta bazadan qo'yiladi. (171-chizma, b). Bu usul buyumni loyihalashda ayniqsa qulay. Bitta bazadan belgilangan o'lchamlar bu bazadan buyumni tekislik, chiziq va nuqtasigacha bo'lgan masofa koordinatalarini ko'rsatadi.

Koordinata usulda qo'yilgan o'lchamlar aniqligi buyumning tayyorlanish texnologiyasiga bog'liq bo'ladi va boshqa o'lchamlami aniqlashga mutlaqo bog'liq emas.




ko'rsatilgan bo'sha, u holda oraliq o'lchamidan biri bo'lmasligi kerak. 172-chizmada vtulkani tasviri berilgan, unda o'lchamni kombinatsiyalash usulida qo'yilgan va o'lchamlami bazasi qo'rsatilgan. Asosiy baza A ga unga ko'ndalang kesim olingan. Undan buyumning 22.42..68 alohida elementlami o'lchamlari va umumiyligini 90 qo'yilgan Erdamchi. B, V, G bazalar buyumning bos hqa elementlarini o'lchamini qo'yish uchun mo'ljalangan. Baza B  $\phi 6$  aylanani holatini aniqlovchi 12 o'lchamni ko'rsatish vazifasini bajaradi.

**Kombinatsiyalangan usul**  
zanjir va koordinata usullarini birga qo'llash. (171-chizma, v). Bu holda asosiy bazadan tashqari yordamchi bazadan foydalilanildi. Yordamchi bazadan bir qator buyumning o'lchamlarini qo'yish va nazorat qilish qulay, ayniqsa murakkab shaklli buyum o'lchamini qo'yishda kombinatsiyalangan o'lcham qo'yish usuli keng qo'llanildi. Har qanday zanjir usulida o'lcham tutashmasligi kerak. Bu holda buyum tayyorlanganda uning talab qilingan o'lchamini aniqligini taminlab bo'lmaydi. Misol: agar zanjir usulida chizmada buyumning gaborit o'lchami






172-chizma



173-chizma



V bazadan halqasimon o'yiqning kengligi 3. G bazadan  $\phi 35$  bo'lgan tekis buyumlarda uning tashqi ishllov berilgan cheti baza bo'lishi mumkin. 173-chizmada shunday buyumni tasviriga o'lcham qo'yish ko'rsatilgan. O'zaro perpendikulyar A va B chetlardan gaborit va buyumning elementlari holatini ko'rsatadigan o'lchamlar qo'yilgan. Elementlami o'lchami berilmagan. Buning uchun qo'shimcha baza tanlash kerak. O'lchamlami iloji boricha buyumning tasvirini konturidan tashqariga joylashtirish kerak. Ko'rinishi bir qismi bilan tegishlik qirqimni bir qismi birga tasvirlanganda ulami simmetriya o'qidan ikki tomonga tegishli tashqi va ichki shakl uchun joylashtiriladi. (172-chizmaga qarang).

Ayrim hollarda buyumning elementlari (teshik, tish, o'yiq) bitta o'qda yoki bitta aylanada joylashgan bo'lsalar ulami o'zaro joylashishini aniqlovchi o'lchamlar quyidagi usulda qo'yiladi: koordinata-bitta bazadan (174-chizma, a,b); kombinatlashtirilgan -bir qancha umumiy bazadan bir qancha gunih bilan (174-chizma, v); zanjir yonma-yon element orasida (174-chizma, g).



174-chizma

Qandaydir elementga tegishli o'lchamlar (teshik, o'yiq, chiziq) bir ko'rinishga guruhanadi va ko'p tuchuncha beradigan ko'rinishga joylashadi.




175-chizma

176-chizma


Baza chizmalarda ko'rsatilgan xatolardek bir xil joylashtirilmaydi. Misol: 175-chizmada tasvirlangan buyumda uning diametrini va holatini aniqlovchi o'lcham ustidan ko'rinishda o'yiqqa tegishlik o'lcham bosh ko'rinishda ko'rsatilgan. shunki bu ko'rinishlarda berilgan elementni geometrik shakli eng ko'p to'liq ko'rsatilgan.

**Elementlarni bir xil va bir turdag'i o'lchamlari.** Buyumning bir qancha bir xil elementlar o'lchamlari ketma-ket chizmaga bir martda qo'yiladi. Bunda o'lcham chiqarish chizig'ini tokehasiga element sonini ko'rsatgan holda qo'yiladi. Misol: 4 tesh.  $\phi 6$  (176-chizma, a). Elementlar sonini 176-chizma, a-dagidek ko'rsatishga ruxsat beriladi.




Ya'ni kasr ko'rinishida:  $\frac{\phi 3,2}{2meu}, \frac{0,5x45^\circ}{3\text{фаска}}$ . Aylana bo'ylab bab-  
barobar joylashgan bir xil elementlami o'lchamini (misol, aylana) qo'yishda, elementlami o'zaro joylashuvini bildiruvchi burchakli o'lcham o'miga ulami faqat sonini ko'rsatish mumkin. (177-chizma).

Buyumning ikkita simmetrik joylashgan elementning (aylanadan tashqari) o'lchamini bir martda (bittasiga) sonini ko'rsatmasdan qo'yiladi. Ular qoidaga asosan bir joyga guruhanadi. (178-chizma).




a)




\* Małumot uchun o'cham  
178-chizma

Agar bunday buyumlarda bir xil aylanalar bo'lsa u holda, diametr o'lehami faqat bitta tasviriga aylanalar sonini ko'rsatilgan holda ko'yildiladi. (177-chizma.a). Simmetrik buyumda, 179-chizmada ko'rsatilgandek qo'yildi. Agar buyumning bir xil elementlar (misol, aylana) har xil sirtda joylashgan va har xil tasvirda ko'rsatilgan bo'lsa, u holda bu elementlar soni alohida har bir sirt uchun yoziladi. (180-chizma). Agar yumaloqlashtirilgan radiuslar, buqiqlar va boshqalar chizmada bir xil yoki ulardan biri soni ko'p bo'lsa unda ularni o'lehami bevosita tasviriga qo'yilmaydi. Ya'ni

texnik talabda chizmani polyasida quyidagi ko'rinishda yoziladi.  
"yumalolqlashtirilgan radius 4mm", "ko'satilgan radiuslar 8mm".




a)



b)


\* Malumot uchun o'cham

179 -chizma



180-chizma

**Ma'lumot uchun va bos hqa o'lchamlar.** Berilgan chizma bo'yicha bajarilishi kerak bo'lgan o'lchamlar ma'lumot uchun o'lchamlar deyiladi va chizmalardan foydalanishda katta qulaylik bo'lishini ko'rsatadi. chizmalarda ma'lumot uchun o'lchamni "\*" yulduzcha belgisi bilan ko'rsatiladi. Texnik talablarda "\*O'lchamlar ma'lumot uchun" deb yoziladi. Yopiq zanjiming o'lchamlaridan biri ma'lumot uchun o'lchamga tegishlik bo'ladi (bunday o'lchamlarda chekli chetga chiqarish ko'rsatilmaydi 181-chizma). Chizmalarda o'lchamhami yopiq zanjir ko'rinishida qo'yishga ruxsat berilmaydi. Ulardan birini ma'lumot uchun ko'rsatilganidan tashqari (171,181-chizma a)




\* Ma'lumot uchun o'lcham


### 181-chizma

Tashqi ko'rinishi murakkab bo'lgan silindrik buyumning o'lchamini 182-chizma da ko'rsatilgandek qo'yishga ruxsat beriladi. Chizmaning mashtab o'lchami 1mm va undan kam yumaloqlashtirishni chizmada tasvirlanmaydi va ulami radiusi 182-chizma, b -- da ko'rsatilgandek belgilanadi, chizmada tasvirlanmagan  $45^\circ$  burchakda kesilgan o'lchami chizma mashtabida 1mm va undan kam bo'lgan faska o'lchamini qirradan chiqarilgan tokchada ko'rsatish mumkin. (182-chizma, b).


Quyish, shtampovkalash, prokatlash, presslash usuli bilan tayyorlangan buyumlarga mexanik ishlov berilgandan keyin ulami faqat sirtlarini bir qismi bos hqa detallar bilan bog'langan bo'ladi. Bu buyumlarga o'lcham qo'yishda quyidagi qoidani hisobga olish kerak:




a)



b)




b)



183-chizma

- a) buyumni ishlov berilmaydigan sirtlarini o'zaro holatini bu yuzalami o'zaro bog'lovchi o'lcham bilan ko'satiladi.
- b) mexanik ishlov berilgan va ishlov berilmagan sirtni bitadan ko'p bo'lmagan o'lcham bilan har bir koordinati yo'nalishi bo'yicha bog'lanadi. Ya'ni uzunligi va eni bo'yicha bog'lovchi o'lcham 183-chizmada 32 o'lcham bo'ladi. Shakli ko'p pog'onalik bo'lgan buyumlarni chizmadagi o'lchamlarni qo'yishda xatoga yo'lli

qo'ymaslik uchun ketma-ket qo'yiladi, yani yig'indi o'lchamda yig'ilgan o'lchamga (184-chizma).



184-chizma

Buyumning eng katta tashqi o'lchami  $A$  ni tarkibi ( $B$  va  $V$ ) ni yig'indisi o'lcham zanjirini erkin oxirgi zvenosini tashkil qiladi. O'sebaytida bu o'lchamlar ( $B$  va  $V$ ) boshqa o'lchamlari yig'indisi bo'ladi.

## **Adabiyotlar**

1. Қирғизбоев Ю., Собигов Ә., Хакимов Л., И.Рахмонов. Машинасөзлик чизмачилеги курси.-Ташкент: Ўқитувчи,1981.356.
2. Абдурахмонов А. Чизмачиликдан график ишлар тизими --Ташкент: Чўлпон , 2005. 176 б.
3. Абдумаликов А. Чизмачиликдан терминология лугат – справочник . Ташкент: Ўқигувчи, 1977 . 144 б.
4. Тўхгаев А. ва б. Машинасөзлик чизмачилигидан справочник Ташкент: Ўқитувчи,1979. 277 б.
5. Борисов Д.М., Василенко Е.А.,Ляпунов Б.А, Макарова М.Н.. Черчение. - Москва:Просвещение, 1987. 352 с.
6. ЕСКД. Основные положения ГОСТ 2.101-68..... ГОСТ 2.114-70.
- 7.ЕСКД. Классификация и обозначения изделий в конструкторских документах. ГОСТ 2.201-80.
- 8.ЕСКД. Общие правила выполнения чертежей. ГОСТ 2.301-68.... ГОСТ 2.320-82.
9. Вяткин Г.П., Андреев А.Н. ва б. Машиностроительное черчение.- М:Машиностроение, 1985.368 с.
10. Богданов В.Н.и др. Справочное руководство по черчению. Москва:Машиностроение, 1987 . 864 с.
11. Ануриев В.И. Справочник конструктора-машиностроителя. 1982 . 736 с.
12. Чекморев А.А. Начертательная геометрия и черчение. - Москва :Высшее образование, 2006. 471 с.
13. Ганенко А.Н., Лансаро М.И. Оформление текстовых и графических материалов (требования ЕСКД). -Москва: Академия,2006. 330 с.
14. Гекмарев А.А., Осипов В.К. Справочник по машиностроительному черчению. -М: Высшая школа, 1994. 672 с.
15. Ройтман А.А.. Машиностроительное черчение. Часть 1,2- М.:Издательство гуманитарной помощи, 2002.

16. Умаров А.Р. Тасвирлаш чизмачилигини ўқиш. - Ташкент: ТашДТУ, 2003. 80 б.
- 17.Патент гувохномаси №DGU 00649.
- 18.Патент гувохномаси №DGU 00756.
- 19.Умаров А.Р.Компьютер графикаси.- Т., Молия, 2000. 72 б.
- 20.<http://www/yandex.ru>

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. Chizmalarni chizish haqidagi umumiyy qoidalar.</b>	
1.1. Chizmalami taxt qilish standartlari.....	4
1.2. O'zDSt-2.301-96. Chizma formatlari.....	5
1.3. O'zDSt-2.302-97. Masshtablar.....	8
1.4. O'zDSt-2.303-97. Chizma chiziqlari.....	9
1.5. O'zDSt-2.304-97. Chizma shriftlari.....	11
1.6. O'zDSt-2.307-97. Chizmalarga o'leham qo'yish.....	11
1.7. Geometrik chizishlar.....	20
1.8. Qiyalik. Qiyalikni chizish.....	25
1.9. Konuslik. Konuslikni chizish.....	26
1.10. Tutashmalar.....	27
1.11. Ovallar.....	34
1.12. Lekalo yordamida chiziladigan egri chiziqlar.....	36
<b>II bob. Chizmalarda tasvirlar</b>	
2.1. Asosiy qoshimcha va mahalliy ko'rinishlar.....	51
2.2. Kesimlar.....	58
2.3. Qirqimlar.....	62
2.4. Tekis qirqim va o'tish chizig'i.....	77
<b>III bob. Yaqqol tasvir.</b>	
3.1. Aksionometrik tasvirlar.....	86
3.2. To'g'ri burchakli izometrik tasvir.....	86
3.3. To'g'ri burchakli dimetrik tasvir.....	90
3.4. Buyumning va yig'ma birlik aksionometrik tasvirini bajarish. Aksionometrik tasvimi tanlash.....	94
3.5. Buyumni va yig'ma birlikni aksionometrik tasvirini chizish usullari.....	98
<b>IV bob. Chizmalar.</b>	
4.1. Chizma-konstrukturlik hujjati.....	107
4.2. Buyum turlari va konstrukturlik hujjatlari.....	107
4.3. Buyumning ko'rinishlari.....	108
4.4. Buyumni tasvirlashdagi shartliklar va soddalashtirishlar...	116
4.5. Rezbani shartli belgilash va tasvirlash.....	124

4.6. Rezbalami chizmada tasvirlash.....	132
4.7. Rezbaning konstruktiv va texnologik elementlari.....	135
4.8. Buyumning o'lezchamini qo'yish.....	137
Adabiyotlar.....	150

Muharrir Sidiqova K.A.

Bosishga ruhsat etildi 2.09.2008 y. Bichimi 60x84 1/16  
Shartli bosma tabog' 9,3 Nussasi 50 dona. Buyurtma № 383  
HDTV bosimaxonasida chop etildi. Toshkent sh. Lalabalar ko'chasi 54